$\xi(x, y)$ va $\eta(x, y)$ funksiyalarni topish uchun

$$a(d\ y)^2 - 2bdxdy + c(dx)^2 + 0, \qquad (2)$$

xarakteristik tegnlama qaraladi, u ikkita tenglamalar sistemaga teng kuchli:

$$\begin{cases} \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b + \sqrt{b^2 - ac}}{a} \\ \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b - \sqrt{b^2 - ac}}{a} \end{cases}. \qquad (3)$$

(2) egri chiziqli integral tenglamalar (1) tenglamaning xarakteristik tenglamalari deb ataladi. Giperbolik, parabolik va eliptik tipdagi tenglamalarni kanonik ko'rinishga keltirishni qaraymiz.

1.Agar (1) tenglama giperbolik tipda bo'lsa, (3) tenglamalarning birinchi integrallari

$$\varphi_1(x.y) = C_1, \varphi_2(x, y) = C_2$$

xaqiqiy va har xil. Ular (1) tenglamaning xaqiqiy xarakteristikalari ikkita turli oilasini aniqlaydi .

$$\xi = \varphi_1(x.y), \eta = \varphi_2(x, y)$$

o'garuvchilarni almashtirish yordamida, (1) tenglama giperbolik tipdagi tenglamani quyidagi kanonik ko'rinishiga keltiriladi.

$$u_{\xi\eta} = \Phi(\xi, \eta, u, u_\xi, u_\eta)$$

$$\xi = \mu + \nu, \eta = \mu + \nu$$

o'zgaruvchilarni almashtirish yerdamida boshqa

$$u_{\mu\mu} - u_{\nu\nu} = \Phi(\mu, \nu, u, u_\mu, u_\nu)$$

kanonik ko'rinishga keltiriladi.

1-misol. $a^2u_{xx} - y^2u_{yy} = 0$ tenglamani kanonik ko'rinishga keltiring.

$b^2 - ac = 0 + x^2y^2 = x^2y^2 > 0$ bo'lgani uchun, bu giperbolik tipdagi tenglama ekanligini aniqlaymiz.

Xarakteristik tenglama tuzamiz:

$$x^2(dy)^2 y\ (dx)^2 = 0 \Leftrightarrow (xdy + ydx)(xdy - ydx) = 0$$

Ikkita $(xdy + ydx) = 0, (xdy - ydx) = 0$ difrensal tenglama xosil qilamiz.

O'zgaruvchilarni ajratib va interallab quyidagi ko'rinishga kelamiz:

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| + \ln|y| = \ln C_1$$

$$\frac{dy}{y} - \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| - \ln|y| = \ln C_2$$

Potensiallashtirgandan keyin, ikki oila xarakteristikalar uchun tenglamalarni topamiz:

$$xy = C_1, \frac{y}{x} = C_2.$$

Endi yangi o'zgaruvchidarni kiritamiz.

$$\xi = xy, \eta = \frac{y}{x}$$

Yuqorida keltirgan fomulalardan foydalanib, eski o'zgaruvchilar bo'yicha xususiy xosilalarni yangi o'zgaruvchilar bo'yicha xususiy xosilalar orqali ifodalaymiz:

$$u_x = u_\xi \xi_x + u_\eta \eta_x = yu_\xi + \frac{y^2}{x^2}u_\eta$$

$$u_y = u_\xi \xi_y + u_\eta \eta_y = xu_\xi + \frac{1}{x}u_\eta$$

$$u_{xx} = (u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_x)y - (u_{\eta\xi}\xi_x + u_{\eta\eta}\eta_x)\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = (yu_{\xi\xi} - \frac{y}{x^2}u_{\xi\eta})y -$$

$$-(yu_{\xi\eta} - \frac{y}{x^2}u_{\eta\eta})\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = y^2u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta.$$

$$u_{yy} = x(u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_y) + \frac{1}{x}(u_{\eta\xi}\xi_y + u_{\eta\eta}\eta_y) = x(xu_{\xi\xi} + \frac{1}{x}u_{\xi\eta}) +$$

$$+\frac{1}{x}(xu_{\xi\eta} + \frac{1}{x}u_{\eta\eta}) = x^2u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}$$

Berilgan tenglamaga ikkinchi xosila uchun topilgan ifodalarni qo'yib

$$x^2(y^2u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta) - y^2(x^2u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}) = 0$$

ni olamiz. Oxirgi ifodani soddalashtirib,

$$u_{\xi\eta} - \frac{1}{2\xi}u_{\eta} = 0$$

kanonik ko'rinishga kelamiz.

2. Agar (1) parabolik tipdagi tenglama bo'lsa, u xolda (3) tenglamalar ustma-ust tushadi. Bu xolda (3) sistema uchun bitta $\varphi(x, y) = C$ birinchi integralini xosil qilamiz.U xolda o'zgaruvchilarni

$$\xi = \varphi(x, y), \eta = \psi(x, y)$$

formula bo'yicha amalshtirib olamiz, bu yerda $\psi(x, y)$-ni

$$\begin{vmatrix} \varphi_x & \varphi_y \\ \psi_x & \psi_y \end{vmatrix} \neq 0$$

shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy funksiya, ya'ni funksional determinant –yakobian–nolga teng bo'lmasligi lozim.

2-misol. Tenglamani kanonik ko'rinishga keltiring.

$$z_{xx}\sin^2 x - z_{xy}2y\sin x + z_{yy}y^2 = 0$$

$b^2 - ac = y^2\sin^2 x - y^2\sin^2 x = 0$ bo'lgani uchun tenglama giperbolik tipga qarashli. Xarakteristik tenglamasi quyidagicha

$$\sin^2 x(dy)^2 + 2y\sin xdxdy + y^2(dx)^2 = 0$$

yoki

$$(\sin xdy + ydx)^2 = 0$$

ko'rinishga ega. Yani $xdy + ydx = 0$ tenglamani o'zgaruvchilarni almashtirib va integrallab

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|x| + \ln tg\frac{x}{2} = \ln C, tg\frac{x}{2} = C.$$

tenglamani olamiz.

$$\xi = ytg\frac{x}{2}, \eta = y$$

O'zgaruvchilarni almashtirib, bu yerda y - ixtiyoriy $\begin{vmatrix} \xi_x & \xi_y \\ \eta_x & \eta_y \end{vmatrix} \neq 0$ shartni qanoatlantiruvchi funksiya. Bu funksiya uchun xususiy xosilalarni yangi o'zgaruvchilar orqali ifodalaymiz.

$$z_x = z_\xi\xi_x + z_\eta\eta_x = \frac{1}{2}z_\xi y\sec^2\frac{x}{2},$$

$$z_y = z_\xi \xi_y + z_\eta \eta_y = z_\xi tg\frac{x}{2} + z_\eta,$$

$$z_{xx} = \frac{1}{2}(z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x)y\sec^2\frac{x}{2} + \frac{1}{2}z_\xi y\sec^2\frac{x}{2}tg\frac{x}{2} =$$
$$= \frac{1}{4}z_{\xi\xi}y^2\sec^4\frac{x}{2} + \frac{1}{2}yz_\xi\sec^2\frac{x}{2}tg\frac{x}{2},$$

$$z_{yy} = (z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y)tg\frac{x}{2} + z_{\eta\xi}\xi_y + z_{\eta\eta}\eta_y = z_{\xi\xi}tg^2\frac{x}{2} + 2z_{\xi\eta}tg\frac{x}{2} + z_{\eta\eta}$$

$$z_{xy} = \frac{1}{2}(z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y)y\sec^2\frac{x}{2} + \frac{1}{2}z_\xi\sec^2\frac{x}{2} =$$
$$= \frac{1}{2}(z_{\xi\xi}tg\frac{x}{2} + z_{\xi\eta})y\sec^2\frac{x}{2} + \frac{1}{2}z_\xi\sec^2\frac{x}{2}$$

ni olamiz. Olingan xususiy xosilalarni berilgan differensial tenglamaga qo'yamiz.

$$\frac{1}{4}z_{\xi\xi}y^2\sec^4\frac{x}{2} + \frac{1}{2}yz_\xi\sec^2\frac{x}{2}tg\frac{x}{2} - (z_{\xi\xi}tg\frac{x}{2} + z_{\xi\eta})y^2\sec^2\frac{x}{2}\sin x -$$
$$-\frac{1}{2}z_\xi y\sec^2\frac{x}{2}\sin x + y^2(z_{\xi\xi}tg^2\frac{x}{2} + 2z_{\xi\eta}tg\frac{x}{2} + z_{\eta\eta}) = 0$$

Soddalashtirib

$$\frac{1}{2}z_{\xi\xi}y\sec^2\frac{x}{2}tg\frac{x}{2}\sin^2 x + y^2 z_{\eta\eta} - z_\xi y\sec^2\frac{x}{2}\sin x = 0$$

yoki

$yz_{\eta\eta} = z_\xi \sin x$ ni olamiz.

$$\sin x = \frac{2tg\frac{x}{2}}{1 + tg^2\frac{x}{2}}$$ bo'lgani uchun u xolda

$$tg\frac{x}{2} = \frac{\xi}{\eta}, \sin x = \frac{2\xi}{\xi^2 + \eta^2}$$ natijada

$$z_{\eta\eta} = \frac{2\xi}{\xi^2 + \eta^2}z_\xi$$ ni olamiz.

3. Agar (1) tenglama elliptik tipda bo'lsa, sistemaning birinchi integrallari qo'shma kompleks ko'rinishda bo'ladi:

$$\varphi(x,y) + i\psi(x,y) = C_1, \varphi(x,y) - i\psi(x,y) = C_2$$

$\xi = \varphi(x,y), \eta = \psi(x,y)$ formula bo'yicha almashtirish yerdamida (1) tenglama

$$u_{\xi\xi} + u_{\eta\eta} = \Phi(\xi,\eta,u,u_\xi,u_\eta)$$

ko'rinishga keltiriladi.

3-misol. $z_{xx} - 2z_{xy} + 2z_{yy} = 0$ tenglamani kanonik ko'rinishga keltiring.

$b^2 - ac = 1 - 2 = -1 < 0$ bo'lgani uchun elliptik tipdagi tenglama ekan.

Demak, xarakteristik tenglama

$$(dy)^2 + 2dxdy + 2(dx)^2 = 0, y'^2 + 2y' + 2 = 0$$

ko'rinishga ega. Uni yechib

$y + x - ix = C_1, y + x + ix = C_2$ ni topamiz. Ikkita mavhum xarakteristikalar oilalarini xosil qilamiz:

$$\xi = y + x, \eta = x$$

O'zgaruvchilarni almashtirib

$$z_x = z_\xi \xi_x + z_\eta \eta_x = z_\xi + z_\eta,$$

$$z_y = z_\xi \xi_y + z_\eta \eta_y = z_\xi,$$

$$z_{xx} = (z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x) + (z_{\eta\xi}\xi_x + z_{\eta\eta}\eta_x) = z_{\xi\xi} + 2z_{\xi\eta} + z_{\eta\eta},$$

$$z_{xy} = z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x = z_{\xi\xi} + z_{\xi\eta}$$

$$z_{yy} = z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y = z_{\xi\xi}.$$

larga ega bo'lamiz. Topilgan ifodalarni berilgan differensial tenglamaga qo'yib

$z_{\xi\xi} + 2z_{\xi\eta} + z_{\eta\eta} - 2z_{\xi\xi} - 2z_{\xi\eta} + 2z_{\xi\xi} = 0$ ni yoki $z_{\xi\xi} + z_{\eta\eta} = 0$ ifodani olamiz.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Xususiy xosilali differensial tenglama qachon giperbolik tipdagi tenglama deyiladi?
2. Xususiy xosilali differensial tenglama qachon parabolik tipdagi tenglama deyiladi?
3. Xususiy xosilali differensial tenglama qachon elliptik tipdagi tenglama deyiladi?

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Xususiy xosilali differensial tenglama ta'rif bering.
2. Kvazichiziqli differensial tengalama qanday ko'rinishga ega?
3. Xususiy xosilali differensial tenglama tartibi deb nima aytiladi.

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

4. Kvazichiziqli differensial tengalama umumiy yechimi to'g'risidagi teoremani keltiring.
5. Bir jinsli iyenglamaning yechimi to'g'risidagi teoremani keltiring.
6. Ikkinchi tartibli xususiy xosilali tenglama qachon chiziqli deyiladi?

7. Matematik fizik tenglamalar kursi uchun xarakterli belgilashlarni keltiring.
8. 2–chi tartibli o’zgarmas koeffisiyentli giperbolik tipdagi tenglamani kanonik shakliga keltirish yo’lini ayting.
9. 2–chi tartibli o’zgarmas koeffisiyentli parabolik tipdagi tenglamani kanonik shakliga keltirish yo’lini ayting.
10. 2–chi tartibli o’zgarmas koeffisiyentli elliptik tipdagi tenglamani kanonik shakliga keltirish yo’lini ayting.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o’z-o’zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o’zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo’shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko’rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O’zbekistan», 2002, 448 b.*

2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*

3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*

4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*

5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo’shimcha

6. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*

7. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*

8. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*

9. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*

10. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*

11. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*

12. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*

13. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*

14. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 2. GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ikkinichi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning klassifikasiyasi.
2. Tebranish tenglamasi uchun masalaning quyilishi.
3. Dalamber formulasi. Koshi masalasi yechimining mavjudligi turg'unligi va yagonaligi.
4. Ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning xarakteristikasi.
5. Yarim to'g'ri chiziqdagi masala. Davom ettirish metodi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O’quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo’nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to’liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag’ulotlarni bajarishda o’rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O’qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o’ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o’quv mashg’ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so’zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro’yhati; o’quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o’quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko’rinish; o’quv materiallar va qo’llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o’quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko’rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so’rov; mustahkamlovchi so’rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O’qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o’tgan fanlar va mashg’ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, “Insert” usuli bilan belgilar qo’yishni taklif etadi; birinchi savol bo’yicha matn o’qiladi; qo’shimcha o’quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo’yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg’ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o’qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o’zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so’rov blits-so’rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O’qituvchining faoliyati:* mavzu bo’yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o’tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o’zaro baholashning natijalarini chiqarish; o’quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko’rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo’llash; o’zaro baholashni o’tkazish, yo’l qo’yilgan hatolar bo’yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O’quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

6. Ikkinichi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning klassifikasiyasi.
7. Tebranish tenglamasi uchun masalaning quyilishi.
8. Dalamber formulasi. Koshi masalasi yechimining mavjudligi turg'unligi va yagonaligi.
9. Ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning xarakteristikasi.
10. Yarim to'g'ri chiziqdagi masala. Davom ettirish metodi.

Tayanch iboralar: xususiy xosilali teglama, klassifikasiya, tebranish tenglamasi, Dalamber formulasi, Koshi masalasi, xarakteristika, davom ettirish.

1.3.1. Ma`ruza matni

1.Ikkinichi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning klassifikasiyasi

O'tgan ma'ruzada berilgan ta'riflarni eslaymiz.

Ta'rif: E^2 fazoda ikkinchi tartibli xususiy hosilalarga ega bo'lgan biror bir funksiya $U(x,y)$ berilgan (bunda $U_{xy} = U_{yx}$) bo'lsin. Shunda xususiy hosilali umumiy tenglama deb $F(x, y, u, u_x, u_y, u_{xx}, u_{yy}) = 0$ tenglamaga aytiladi. Bunda F qandaydir funksiya. Kvazichiziqli tenglama uning xususiy holidan iborat

$$a_{11}(x, y, u, u_x, u_y)u_{xx} + 2a_{12}(x, y, u, u_x, u_y)u_{xy} +$$
$$+ a_{22}(x, y, u, u_x, u_y)u_{yy} + F_1(x, y, u, u_x, u_y) = 0$$

Bizni yuqori tartibli xosilalarga nisbatan chiziqli tenglamalar, ya'ni a_{11}, a_{12}, a_{22} funksiyalari faqat (x, y) o'zgurvchilarga bog'liq bo'lgan hollar qiziqtiradi.

$$a_{11}(x, y)u_{xx} + 2a_{12}(x, y)u_{xy} + a_{22}(x, y)u_{yy} + F_1(x, y) = 0$$

Tenglama chiziqli deyiladi, agar u nafaqat yuqori tartibli hosilalari u_{xx}, u_{xy}, u_{yy} ga nisbatan balki u funksiya va uning birinchi tartibli hosilalariga nisbatan chiziqli bo'lsa.

$$a_{11}\, u_{xx} + 2a_{12}\, u_{xy} + a_{22}u_{yy} + b_1\, u_x + b_2\, u_y + cu + f = 0$$

(2.0)

Bu yerda a_{11}, a_{12}, a_{22}, b_1, b_2, c, f - koeffisiyentlar faqat x va y bo'yicha o'zgaradi.

Ta'rif: Agar $f \equiv 0$ bo'lsa shunda (2.0) tenglama bir jinsli tenglama, aks holda bir jinsli bo'lmagan tenglama deb aytiladi.

Ta'rif: (x_0, y_0) nuqtada (2. 1) tenglama quyidagicha aniqlanadi.

1. Agar $a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) > 0$ bo'lsa, giperbolik tipdagi bo'ladi.
2. Agar $a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) < 0$ bo'lsa, elliptik tipdagi bo'ladi.
3. Agar $a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) = 0$ bo'lsa, parabolik tipdagi bo'ladi.

Tenglamaning tipi ma'lum bir soha uchun ham xuddi shunday aniqlanadi: (2.1) tenglama sohada (elliptik), (giperbolik), (parabolik) tipdagi deb ataladi, agar shu soha barcha nuqtalarda $a_{12}^2 - a_{11} \cdot a_{12}$ $a_{12}^2 - a_{11} \cdot a_{12} > 0$ $a_{12}^2 - a_{11} \cdot a_{12} < 0$ $a_{12}^2 - a_{11} \cdot a_{12} = 0$ bo'lsa. Agar tenglama sohaning har xil nuqtalarida xar xil tipga ega bo'lsa, bunda u shu sohada aralash tipdagi tenglama teyiladi.

GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR.

2. Tebranish tenglamasi uchun masalaning qo'yilishi.

Bizlar giperbolik tipdagi tenglamani ko'rib chiqammiz.

Faraz qilaylik $u(x,t) \in C^2 \ \left((x,t): 0 < x < l, t > 0\right)$ bo'lsin, shunda

$$u_{tt} = a^2 u_{xx}, \ \left((x,t): 0 < x < l, t > 0\right) \quad (2.1)$$

Tenglama ideal torning tebranish tenglamasi deyiladi.

Ikki fazoviy o'zgaruvchilarning funksiyasi $u(x,y,t)$ holida:

$$u_{tt} = a^2 \Delta u, \ (x,y) \in D, \ t > 0$$

bu elastik membrananing tebranish tenglamasi.

(2. 1) tenglamani qaraymiz. Biz quyidagi boshlang'ich shartlarni berishimiz mumkin:

$$\begin{cases} u \ (x,0) = \phi(x), \ 0 < x < l; \\ u_t \ (x,0) = \varphi(x), \ 0 < x < l, \end{cases} - \text{torninng muvozanat holatidan chetlanishini izohlaydi;}$$

va chegaraviy shartlarni:

$$\begin{cases} u \ (l,t) = \mu \ (t), \ t > 0; \ (\max kamlanlangan \quad holda \ \ \mu \equiv 0) \\ u_x \ (l,t) = \nu \ (t), \ t > 0; \\ u \ (l,t) + \alpha \ u_x(l,t) = \theta \ (t). \ t > 0 \end{cases}$$

odatda bizlar ulardan ba'zilarini olamiz.

Giperbolik yoki tebranish tenglamalar uchun chegaraviy masalalar tuzamiz.

Birinchi chegaraviy masala.

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & 0 < x < l, \ 0 < t \le T; \\ u \ (x,0) = \phi \ (x), & 0 \le x \le l; \\ u_t \ (x,0) = \varphi(x), & 0 \le x \le l; \\ u \ (0,t) = \mu_1(t), & 0 \le t \le T; \\ u \ (l,t) = \mu_2(t), & 0 \le t \le T; \end{cases}$$

Xuddi shuni o'zi yarim to'g'ri chiziq uchun :

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0, \ 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \ge 0; \\ u_t(x,0) = \varphi(x), & x \ge 0; \\ u(0,t) = \mu(t), & 0 \le t \le T; \end{cases}$$

Shuningdek oddiy Koshi masalasini qarash mumkin:

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < +\infty, \ 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & -\infty < x < +\infty; \\ u_t(x,0) = \varphi(x), & -\infty < x < +\infty. \end{cases}$$

3. Dalamber formulasi. Koshi masalasi yechimining mavjudligi turg'unligi va yagonaligi.

Bizlar tebranish tenglamasi uchun Koshi masalasini qaraymiz.

$$[1.1] \begin{cases} (1) \quad u_{tt} = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < +\infty, \ 0 < t \le T; \\ (2) \quad u(x,0) = \phi(x), & -\infty < x < +\infty; \\ (3) \quad u_t(x,0) = \varphi(x), & -\infty < x < +\infty. \end{cases}$$

Faraz qilaylik, $u \in C^2\left(R \times R^+\right)$ funksiya bo'lib, u [1.1] Koshi masalasining yechimi bo'lsin. Yangi ξ, η o'zgaruvchilarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\begin{cases} \xi = x + at; \\ \eta = x - at; \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \dfrac{\xi + \eta}{2}; \\ t = \dfrac{\xi - \eta}{2a}. \end{cases}$$

Yangi funksiyani aniqlaymiz:

$$v(\xi, \eta) = u\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right).$$

Bu funksiyaning xususiy hosilalarini topamiz.

$$v_\xi = u_x\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{2} + u_t\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{2a};$$

$$v_{\xi\eta}=u_{xx}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4}+u_{xt}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)\left(-\frac{1}{4a}\right)$$
$$+u_{tx}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4a}+u_{tt}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)\left(-\frac{1}{4a}\right)=$$
$$=u_{xx}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4}-\frac{1}{4a}u_{tx}\left(\frac{\xi+\eta}{2},\frac{\xi-\eta}{2a}\right)=$$
$$\{tebranish \quad tenglamasi\}=0;$$

Endi teskari integrallashni amalga oshiramiz:

$$v_{\xi\eta}(\xi,\eta)=0, \quad \overset{\xi \quad bo'yicha\ \mathrm{int}egral}{\Longrightarrow} \quad v_{\eta}(\xi,\eta)=\tilde{f}_1(\eta) \quad \Rightarrow$$
$$\overset{\eta \quad bo'yicha\ \mathrm{int}egral}{\Longrightarrow} \quad v(\xi,\eta)=\int\tilde{f}_1(\eta)d\eta+f_2(\xi)$$
$$\Rightarrow v(\xi,\eta)=f_1(\eta)+f_2(\xi)\Rightarrow\{u(x,t)=v(x+at,\,x-at)\}\Rightarrow$$

$$u(x,t)=f_1(x-at)+f_1(\,x+at), \quad (2.2)$$

bu yerda $\tilde{f}_1,\, f_1,\, f_2$ - lar integrallash davomida hosil bo'ladigan funksiyalar. Shunday qilib biz tebranish tenglamasi yechimi bo'lgan u funksiyaning umumiy ko'rinishini hosil qildik. Boshlang'ich shartlardan foydalanib f_1, f_2-larni aniqlaymiz:

$$\begin{cases} u\ \ (x,\ 0)\ =\ f_1(x)+f_2(x)=\phi(x); \\ u_t(x,\ 0)\ =-af_1'\ (x)+af_1'\ (x)=\varphi(x); \end{cases}\Rightarrow$$
$$\Rightarrow\begin{cases} -f_1(x)+f_2(x)=\dfrac{1}{a}\displaystyle\int_{x_0}^{x}\varphi(\xi)d\xi+C \\ f_1(x)+f_2(x)=\phi(x). \end{cases}$$

Sistemadagi tenglamalarni qo'shib va biridan birini ayirib quyidagini hosil qilamiz.

$$\begin{cases} f_2(x)=\dfrac{\phi(x)}{2}+\dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x_0}^{x}\varphi(\xi)d\xi+\dfrac{c}{2}; \\ f_1(x)=\dfrac{\phi(x)}{2}-\dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x_0}^{x}\varphi(\xi)d\xi-\dfrac{c}{2}. \end{cases}\Rightarrow$$
$$\Rightarrow\{u\ \ (x,\ t)\ =\ f_1(x-at)+f_2(x+at)\}\Rightarrow$$

$$u\ \ (x,\ t)=\frac{\phi(x-at)+\phi(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\varphi(\xi)d\xi \quad (2.3)$$

(2.3) formula Dalamber formulasi deyiladi.

Teorema 2. 1 (Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi).

Faraz qilaylik $\phi(x) \in C^2(R)$, $\varphi(x) \in C^1(R)$. [1. 1] Koshi masalasining yechimidan iborat shunday $u(x,y)$ funksiya mavjud va yagonadirki, bunda $u \in C^2\left(R \times \overline{R}^+\right)$. Bu yerda $\phi(x)$, $\varphi(x)$ funksiyalar boshlang'ich shartlarni aniqlaydi.

Isbot:

Yechimning mavjudligi (1)-(3) shartlardan foydalanib va teorema shartlaridan foydalangan holda bevosita o'rniga qo'yish bilan tekshirilib ko'riladi.

Yagonaligi quyidagi mulaxozalardan kelib chiqadi: (1)-(3) shartlarni qanoatlantiriuvchi ixtiyoriy funksiya uchun Dalamber formulasi bo'yicha ifodasi xaqqoniydir, bu ifoda esa faqat bir funksiyani ko'zda tutadi.

Teorema 2.2 (Turg'unlik teoremasi).

Faraz qilaylik $\phi_1, \phi_2(x) \in C^2(R)$, $\varphi_1, \varphi_1(x) \in C^1(R)$ va ular R fazoda cheagralangan bo'lsin. Agar $u_1, u_2(x,t)$ funksiyalar [2.1] tipdagi masalaning yechimlari vam mos ravishda $\phi_1, \phi_2, \varphi_1, \varphi_2$ boshlang'ich shartlar bilan berilgan yechimlari bo'lsa, shunda

$$\sup_{x \in R,\, 0 \le t \le T} |u_1(x,t) - u_2(x,t)| \le \sup_{x \in R} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| + T \sup_{x \in R} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)|$$

bo'ladi.

Isbot.

u_1, u_1 uchun (2.3) Dalamber formularidan kelib chiqadiki:

$$u_{tt} = a^2 u_{xx}, \ \left(\left(x,t\right): 0 < x < l, t > 0\right)$$

$$|u_1 - u_2| \le \left| \frac{\phi_1(x+at) - \phi_2(x+at)}{2} \right| + \left| \frac{\phi_1(x+at) - \phi_2(x+at)}{2} \right| +$$

$$+ \frac{1}{2a} \int_{x-at}^{x+at} |\varphi_1(\xi) - \varphi_2(\xi)| d\xi \le \sup_{x \in R} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| +$$

$$+ \sup_{x \in R} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| \frac{1}{2a} \int_{x-at}^{x+at} d\xi \le \sup_{x \in R} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| + \sup_{x \in R} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| T$$

Teorema isbotlandi.

4. Ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning xarakteristikalari.

Ikkinchi tartibli xususiy hosilali klassik tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$a_{11}(x,y) U_{xx} + 2a_{12}(x,y) U_{xy} + a_{22}(x,y) U_{yy} = F(x,y,u,u_x,u_y) \quad (2.4)$$

Unga bir qiymatli moslik bilan quyidagi oddiy differensial tenglamani qo'yamiz:

$$a_{11}(dy)^2 - 2a_{12}\, dxdy + a_{22}(dx)^2 = 0 \quad (2.5)$$

Shunda (2.5)ning yechimlari bo'lgan funksiyalar (egri chiziqlar) (2.4) tenglamaning xarakteristikalari deyiladi. Masalan

$a^2 U_{xx} - U_{tt} = 0$ tebranish tenglamasi uchun xarakteristikalar hosil qilinadigan tenglama

$a^2 (dt)^2 - (dx)^2 = 0$ ko'rinishga ega.

Undan quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{bmatrix} a\ dt + dx = 0; \\ a\ dt - dx = 0. \end{bmatrix} \Rightarrow \begin{bmatrix} x + at = const\ ; \\ x - at = const\ . \end{bmatrix}$$

Bular giperbolik tipdagi tenglamalarning xarakteristikalaridan iborat ikki to’g’ri chiziqdir.

Faraz qilaylik u (x, t) funksiya ma’lum bir Koshi masalasining yechimi bo’lsin. *Oxy* tekisligining birinchi choragida ixtiyoriy (x_0, y_0) nuqta olamiz. Bu nuqtadan faqat ikkita xarakteristika o’tadi:

$$x - at = x_0 - at_0,\ x + at = x_0 + at_0$$

Ular O*x* o’qini $(x_0 + at_0, 0),\quad (x_0 - at_0, 0)$ nuqtalar orqali kesib o’tib, bunda xarakteristik uchburchakni hosil qiladi.

u (x, t) funksiya uchun u (x $_0$, t $_0$) nuqtada (2.3) Dalamber formulasini yozib

$$u(x_0, t_0) = \frac{\phi(x_0 - t_0) + \phi(x_0 + t_0)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x_0 - at_0}^{x_0 + at_0} \varphi(\xi) d\xi$$

hosil qilamizki, u (x, t) funksiyaning qymati faqat xarakteristik uchburchakning asosidagi $\phi(x),\quad \varphi(x)$ qiymatlari bilan aniqlanadi.

Bu giperbolik tipdagi tenglamalarning muxim o’ziga xos xususiyat. Uni quyidagi misolda tushinib olish mumkin.

Faraz qilaylik $\phi(x), \varphi(x)$ funksiyalar biror [a, b] kesmaning tashqarisida 0 ga teng bo’lsin. Shunda II, III sohalarda u *(x, t)* funksiya ham 0 ga aynan teng bo’ladi. Bu Dalamber formulasidan osongina ko’rish mumkin. Ushbu fakt (dalil) giperbolik tenglamadagi u (x, t) signal (xabar)ni tarqalishining (x o’qi bo’yicha) (t vaqt mobaynidagi) oxiridagi tezligini ko’rsatadi.

Aksincha issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasi uchun berilgan Koshi masalasida

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < \infty, \quad t > 0 \\ u(x,0) = \phi(x) & -\infty > x > \infty, \end{cases}$$

yechim, keyinchlik ko’rsatadiganidek, quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

$$u(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\left(-\frac{(x-s)^2}{4a^2}\right)\phi(s)ds$$

Ko’rinib tipibdiki, agar $\phi(s)$ funksiya uzluksiz, manfiy bo’lmagan va biror nuqtada 0 dan farqli bo’lsa, unda

$$u(x,t) > 0, \quad \forall t > 0$$

bo’ladi.

Ya’ni biz shuni hosil qildikki issiqlik o’kazuvchanlik tenglamasi holida signal (xabar) amalda darhol (mgnovenno) tarqaladi.

5. Yarim to’g’ri chiziqdagi masalalar. Davom ettirish usuli.

Birinchi chegaraviy masala

Yarim to’g’ri chiziqdagi bir jinsli shartga ega bo’lgan tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masala quyidagi ko’rinishga ega:

$$\begin{cases} (1) & u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0, t < 0; \\ (2) & u(x,t) = 0, & t < 0; \\ (3) & u(x,0) = \phi(x), & x \geq 0; \\ (4) & u_t(x,0) = \varphi(x), & x \geq 0; \end{cases}$$

u (x, t) va u_t *(x, t)* funksiyalarning 0 da uzluksizligini ta'minlash uchun

$$\begin{cases} \phi(0) = 0; \\ \varphi(0) = 0. \end{cases}$$

bog'lanish shartlarini qo'shamiz (usloviya sopryajeniya).

Ushbu chegaraviy masalaning yechimini topish uchun, uni to'liq to'g'ri chiziq holigacha kegaytirish asosida aniqlaymiz. Yangi Φ, Ψ fuknsiyalarni kiritgan xolda $\phi(x), \varphi(x)$ funksiyalarni butun to'g'ri chiziqda toq tarzada qo'shimcha aniqlaymiz (Doopredelim nechetnым obrazom).

$$\Phi(x) = \begin{cases} \phi(x), & x \geq 0; \\ -\phi(-x), & x < 0. \end{cases}$$

$$\Psi(x) = \begin{cases} \varphi(x), & x \geq 0; \\ -\varphi(-x), & x < 0. \end{cases}$$

Modifikasiyalangan Koshi masalasini qaraymiz.

$$\begin{cases} u_{tt}(x,t) = a^2 u_{xx}(x,t), & -\infty < x < \infty, \ t > 0; \\ u(x,0) = \Phi(x), \\ u(x,0) = \Psi(x). \end{cases}$$

Bu holda U(x,t) ni topish uchun biz Dalamber formulasidan foydalanamiz.

$$\text{U (x, t)} = \frac{\Phi(\text{x - at}) + \Phi(\text{x + at})}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} \Psi(\xi) d\xi.$$

$x, t \geq 0$ ∂a bizga kerakli u (x, t) funksiya sifatida U (x, t) funksiyani olamiz. Ko'rinib tipibdiki (1), (3) va (4) shartlar $x, t \geq 0$ bo'lganda birdaniga bajariladi, bu $\Psi(x), \Phi(x)$ larni tarifidan kelib chiqadi. (2) shartning bajrilishi quyidagi almashtirishlardan kelib chiqadi.

$$u(0,t) \overset{def}{=} U(0,t) = \frac{\Phi(-at) + \Phi(at)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{-at}^{at} \Psi(\xi) d\xi.$$

1-chi va 2-chi qo'shiluvchilar tegishli funksiyalarning toqligi sabali nolga aylanadi. Bu esa 2chi shartning bajarilishini ko'rsatadi. Shunday qilib bizlar tuzgan u (x, t) funksiya birinchi chegaraviy masalalarning yechimi ekanligini isbotladik. $\Psi(x), \Phi(x)$ funksiyalarni mos ravishda isxodnыye funksiyalar $\phi(x), \varphi(x)$ orqali ifodalaymiz:

$$Agar \quad x \geq at \quad bo'lsa \begin{cases} \Phi(x+at) = \phi(x+at); \\ \Phi(x-at) = \phi(x-at); \\ \quad \Psi(\xi) = \varphi(\xi), \quad agar \quad \xi \in [x-at; x+at] \quad bo'lsa \end{cases}$$

$$Agar \quad x < at \quad bo'lsa \begin{cases} \Phi(x+at) = \phi(x+at); \\ \Phi(x-at) = -\phi(x-at); \end{cases}$$

Birinchi chegaraviy masalani yechish uchun quyidagi yordamchi formulani yozamiz.

$$Agar \;\; x < at \;\; bo'lsa, \; unda \int_{x-at}^{x+at} \Psi(\xi)d\xi = \int_{x-at}^{0} \Psi(\xi)d\xi + \int_{0t}^{x-a} \Psi(\xi)d\xi =$$

$$= \int_{x-at}^{0} -\varphi(-\xi)d\xi + \int_{0}^{x+at} \varphi(\xi)d\xi =$$

$$= \{-\xi = \xi \;\; deb \;\; olamiz\} = \int_{at-ч}^{0} \varphi(\xi)d\xi + \int_{0}^{x+at} \varphi(\xi)d\xi = \int_{at-x}^{at+x} \varphi(\xi)d\xi$$

Shunda umumiy formula quyidagicha bo'ladi:

$$u(x,t) = \begin{cases} \dfrac{\phi(x+at)+\phi(x-at)}{2} + \dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x-at}^{x+at} \varphi(\xi)d\xi, \; x \geq at; \\ \dfrac{\phi(at+x)-\phi(at-x)}{2} + \dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{at-xt}^{at+xt} \varphi(\xi)d\xi, \; x < at; \end{cases}$$

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Turg'unlik teoremasi
2. Dalamber formulasini yozing.
3. Xususiy xosilali tenglamaga uchun klassifikasiyani keltiring.
4. Tebranish tenglamasi uchun Koshi masalasi.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Xususiy hosilali umumiy tenglama deb nimaga aytiladi?
2. Xususiy xosilali chiziqli tenglamaga ta'rif bering.
3. Bir jinsli xususiy hosilali tenglama ta'rifini bering.

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Tebranish tenglamasi uchun masalaning quyilishi.
2. Ideal torning tebranish tenglamasini keltiring.
3. Birinchi chegaraviy masala.
4. Koshi masalasi yechimining mavjudligi turg'unligi va yagonaligi to'g'risidagi teorema.
5. Ikkinchi tartibli xususiy hosilali tenglamalarning xarakteristikalari
6. Yarim to'g'ri chiziqdagi bir jinsli birinchi chegaraviy shartga ega bo'lgan tebranish tenglamasi uchun chegaraviy masalaning ko'rinishi.
7. Birinchi chegaraviy masalani yechimini keltiring

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;

- Taklif etilayotgan g’oyalarni baholashdan o’zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo’q bo’lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g’oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo’lma;
- Izoh berishdan o’zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g’oyalar ko’p bo’lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko’proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o’ksinma,
- Tasavvo’ringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo’lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o’ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:
  Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
  Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
  Agar «+» bo’lsa siz o’qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 3. Birinchi chegaraviy masala yechiminig mavjudgini isbotlash uchun o’zgaruvchilarni ajratish usuli.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O’quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ikkkinchi chegaraviy masala
2. O’zgaruvchilarni ajratish usuli

3. Shturm-Liuvill masalasining trivial bo'lmagan yechimlari
4. Birinchi chegaraviy masala yechimining mavjudligi haqida teorema
5. 1–chi chegaraviy masala yagonaligi

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;

- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Ikkkinchi chegaraviy masala
2. O'zgaruvchilarni ajratish usuli
3. Shturm-Liuvill masalasining trivial bo'lmagan yechimlari
4. Birinchi chegaraviy masala yechimining mavjudligi haqida teorema
5. 1–chi chegaraviy masala yagonaligi

Tayanch iboralar: chegaraviy masala, o'zgaruvchilarni ajratish, usul, Shturm-Liuvill masalasi, mavjudlik teoremasi, yagonalik teoremasi.

1.3.1. Ma`ruza matni

Ikkinchi chegaraviy masala

Yarim to'g'ri chiziqdagi bir jinsli chegaraviy shart bilan berilgan ikkinchi chegaraviy masala quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{cases} (1) \quad u_{tt} = a^2 U_{xx}, x > 0, t > 0 \\ (2) \quad u_x(0,t) = 0, t \geq 0; \\ (3) \quad u(x,0) = \phi(x), x \geq 0; \\ (4) \quad u_t(x,0) = \psi(x), x \geq 0. \end{cases}$$

Oldingi holdagiday harakat qilamiz. Lekin bizlarni faqat juft davom ettirish qanoatlantiradi:

$$\Phi(x) = \begin{cases} \phi(x), x \geq 0; \\ \phi(-x), x < 0. \end{cases} \quad \Psi(x) = \begin{cases} \psi(x), x \geq 0; \\ \psi(x), x < 0. \end{cases}$$

Yangi Koshi masalasi va uning uchun Dalamber formulasi bo'yicha yechimi 2-chi ma'ruzada ko'rsatganimzdek bo'ladi:

$$U(x,t) = \frac{\Phi(x-at) + \Phi(x+at)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} \Psi(\xi)d\xi.$$

Odlingi xoldagidek, $u(x,t) = U(x,t), x, y > 0$ bo'lsin.

U holda (1), (3), (4) shartlarning bajarilishi ayon.

(2) shartni tekshiramiz. Dalamber formulasini differensiallasak va $\Psi(t)$ juft funksiyaning hosilasi toq funksiya bo'lishini inobatga olib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$u_x(0,t) = U_x(0,t) = \frac{\Phi'(at) + \Phi'(-at)}{2} + \frac{1}{2a}[\Psi(at) - \Psi(-at)]$$

$\Phi'(t)$ toqligidan va $\Psi(t)$ juftligidan ko'rinadiki ikkala had ham nolga teng.
$u(x,t)$ uchun umumiy formula shunga o'xshash olinadi.

2. O'zgaruvchilarni almashtirish usuli

$[0,l]$ kesmada ortonormallashgan funksiyalar sistemalarini qaraymiz.

$$\left\{ \sqrt{\frac{2}{l}} \sin(\frac{\pi n}{l} x) \right\}, n = 1,2,3,... \quad \left\{ \frac{1}{\sqrt{l}} \sqrt{\frac{2}{l}} \cos(\frac{\pi n}{l} x) \right\}, n = 1,2,3,...$$

Fur'ye koeffisiyentlarini

$$\phi_n = \int_0^l \phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds; \quad \tilde{\phi}_n = \int_0^l \phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds.$$

kabi aniqlaymiz.

U holda matematik analiz kursidan ma'lumki, agar $\phi(x) \in C[a;b]$ bo'lsa, u holda

$$\sum_{n=1}^{\infty} \phi_n^2, \quad \sum_{n=1}^{\infty} \tilde{\phi}_n^2$$

qatorlar yaqinlashadi. Buni eslab qolamiz va bir jinsli chegaraviy shartlar bilan berilgan bir jinsli tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaga o'tamiz:

$$[1.2]\begin{cases}(1).u_{tt}=a^2u_{xx},0<x<l,t>0;\\(2).u(0,t)=u(l,t)=0,t\geq 0;\\(3).u(x,0)=\phi(x),0\geq x\geq l;\\(4).u_t(x,0)=\psi(x),0\geq x\geq l.\end{cases}$$

Uning yechimini quyidagi usul bilan topamiz: biror $u(x,t)$ funksiyaga keltiruvchi almashtirishlarni bajaramiz, so'ngra, ma'lum bir shartlarni qanoatlantiruvchi $\phi(x)$ va $\psi(x)$ funksiyalar uchun bu funksiya mavjud bo'lishini va berilgan masala yechimi ekanligini isbotlaymiz.

Yechimni $v(x,t)=X(x)T(t)$ ko'rinishda izlaymiz. Bu nolga aynan teng bo'lmagan funksiya bo'lsin. $v(x,t)$ ni tebranish tenglamasiga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$T''(t)X(x)=a^2X''(x)T(t)\Rightarrow\frac{X''(x)}{X(x)}=\frac{T''(t)}{a^2T(t)}=-\lambda$$

bu yerda λ qandaydir o'zgarmas son.

Bu ayniyatlardan ikkita tenglama kelib chiqadi:

$$\begin{cases}X''(x)+\lambda X(x)=0,0<x<l;\\T''(t)+\lambda a^2T(t)=0,t>0.\end{cases}$$

$X(0)=X(l)=0$ da $v(x,t)$ funsiya (2) shartni qanoatlantiradi.

3. Shturm – Liuvill masalasi

Quyidagi masalani qaraymiz.

$$\begin{cases}X''(x)+\lambda X(x)=0,0\leq x\leq l;\\X(0)=X(l)=0.\end{cases}$$

Shturm – Liuvill masalasining trivial bo'lmagan yechimlarni topamiz.

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun yechimni chiqarishda, quyidagi xos qiymatlar va ularga mos xos funksiyalar to'g'ri keladi (buni bizlar keyinchalik ko'rsatamiz):

$$\lambda_n=(\frac{\pi n}{l})^2;\quad X_n(x)=\sin(\frac{\pi n}{l}x),n=1,2,...$$

Topilgan λ_n larni $T(t)$ uchun tenglamaga qo'yamiz:

$$T_n''(t)+(\frac{\pi n}{l}a)^2T_n(t)=0\Rightarrow T_n(t)=a_n\cos(\frac{\pi n}{l}at)+b_n\sin(\frac{\pi n}{l}at),$$

bu yerda a_n va b_n lar qandaydir o'zgarmaslar.

Shunday qilib (1), (2) shartlar qanoatlantiradigan $X_n(x),T_n(t)$ funksiyalarni topdik.

$v_n(x,t)=X_n(x)T_n(t)$ deb olamiz. Ravshanki, bu funksiya uchun ham (1), (2) shartlar bajariladi.

(3), (4) shartlardan a_n, b_n konstantalarni

$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}u_n(x,t)$ deb olamiz;

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}u_n(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\sin(\frac{\pi n}{l}x)[a_n\cos(\frac{\pi n}{l}at)+b_n\sin(\frac{\pi n}{l}at)];$$

$$\phi(x)=u(x,0)=\sum_{n=1}^{\infty}a_n\sin(\frac{\pi n}{l}x)\Rightarrow a_n=\frac{2}{l}\int_0^l\phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds;$$

$$\psi(x)=u_t(x,0)=\sum_{n=1}^{\infty}(b_n\frac{\pi na}{l})\sin(\frac{\pi n}{l}x)\Rightarrow\frac{\pi na}{l}b_n=\frac{2}{l}\int_0^l\psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds\Rightarrow$$

$$b_n=\frac{2}{\pi na}\int_0^l\psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds.$$

Natijada, konstantalarni topdik, endi to'la formulani yozamiz;

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}[\frac{2}{l}\int_0^l\cos(\frac{\pi n}{l}s)\phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds+$$
$$+\frac{2}{\pi na}\int_0^l\sin(\frac{\pi n}{l}at)\psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds]\sin(\frac{\pi n}{l}x). \tag{1.6}$$

Endi bu formula korrekt bo'ladigan shartlarni ifodalaymiz.

4. Mavjudlik teoremasi

Teorema 1.3. (mavjudlik)

$$\phi(x)\in C^3[0;l],\phi(0)=\phi(l)=\phi''(0)=\phi''(l)=0;$$
$$\psi(x)\in C^2[0;l],\psi(0)=\psi(l)=0.$$

bo'lsin. U holda (1.6) formula bilan aniqlanadigan $u(x,t)$ funksiya quyidagi xossalarga ega:

$$u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;t]\}(T-\forall>0)$$

va (1)-(4) shartlarni qanoatlantiradi ([1.2] chegaraviy masala yechimi bo'ladi).

Isbot: $u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ekanligini isbotlaymiz;

$$\phi_n=\int_0^l\phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds=\{bo'laklab\ \text{int}\,egrallaymiz\}=$$

$$=-\phi(s)\frac{l}{\pi n}\cos(\frac{\pi n}{l}s)\bigg|_0^l+\frac{l}{\pi n}\int_0^l\phi'(s)\cos(\frac{\pi n}{l}s)ds=$$

$$=\{bo'laklab\ \text{int}\,egrallaymiz\}=$$

$$=\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\phi'(s)\sin\left(\frac{l}{\pi n}s\right)\bigg|_0^l-\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\int_0^l\phi''(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=$$

$$=\left(\frac{l}{\pi n}\right)^3\phi''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)\bigg|_0^l-\left(\frac{l}{\pi n}\right)^3\int_0^l\phi'''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.$$

$$\widehat{\phi}_n=\int_0^l\phi'''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.\qquad n^3\left|\phi_n\right|=\left(\frac{l}{\pi}\right)^3\left|\widehat{\phi}_n\right|.$$

deb olamiz. Yuqorida aytib o'tilgan xossaga ko'ra $\sum_{n=1}^{\infty}\hat{\phi}_n^2$ qator yaqinlashadi. Bundan $\sum_{n=1}^{\infty} n^2|\phi_n|$ qatorning yaqinlashuvchiligi kelib chiqishini ko'rsatamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty} n^2|\phi_n| = \left(\frac{l}{\pi}\right)^3 \sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}|\hat{\phi}_n| \le \left\{ab \le \frac{a^2+b^2}{2}\right\} \le \left(\frac{1}{n}\right)^3\left[\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^2}+\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}\hat{\phi}_n^2\right]$$

Shunday qilib, bizda ikkala qator ham yaqinlashuvchi qatorlar, shuning uchun

$\sum_{n=1}^{\infty} n^2|\phi_n|$ qator majorant alomatiga ko'ra yaqinlashadi. Shunga o'xshash

$$\psi_n = \int_0^l \psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds = \{bo'laklab \operatorname{int} egrallaymiz\} =$$

$$= -\psi(s)\frac{l}{\pi n}\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\Big|_0^l + \frac{l}{\pi n}\int_0^l \psi'(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds =$$

$$= \{bo'laklab \operatorname{int} egrallaymiz\} =$$

$$= \left(\frac{l}{\pi n}\right)^2 \psi'(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)\Big|_0^l - \left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\int_0^l \psi''(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds$$

Shunga o'xshash, $\sum_{n=1}^{\infty} n|\psi_n|$ qatorning yaqinlashishini ko'rsatish mumkin. $\left|\cos\left(\frac{\pi n}{l}st\right)\right|$ ni bir bilan chegaralab, $u(x,t)$ uchun (1.6) qator Veyershtrass alomatiga ko'ra tekis yaqinlashadi (majorant bo'lib $\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{2}{l}|\phi_n| + \frac{2}{\pi n a}|\psi_n|\right]$ yaqinlashuvchi qator hisoblanadi). Bundan tashqari $u(x,t)$ bu holda $[0;l]\times[0;T]$da uzluksiz.

Shunga o'xshash x bo'yicha birinchi va ikkinchi hosilalar mavjudligi va uzluksizligi uchun (1.6) formuladagi mos hosilalardan iborat qatorning tekis yaqinlashishini ko'rsatish yetarli. x bo'yicha differensiallab, quyidagilarni olamiz.

$$u_x(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty}\frac{\pi n}{l}\begin{bmatrix}\frac{2}{l}\int_0^l \cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds + \\ \frac{2}{\pi n a}\int_0^l \cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\end{bmatrix}\cos\left(\frac{\pi n}{l}x\right).$$

$$u_{xx}(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2\begin{bmatrix}\frac{2}{l}\int_0^l \cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds + \\ +\frac{2}{\pi n a}\int_0^l \cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\end{bmatrix}\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right).$$

U holda (Veyershtrass alomatiga ko'ra)

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\pi n}{l}\left(\frac{2}{l}|\phi_n| - \frac{2}{\pi n a}|\psi_n|\right), \quad \sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2\left(\frac{2}{l}|\phi_n| - \frac{2}{\pi n a}|\psi_n|\right)$$

qatorlar yaqinlashishini ko'rsatish yetarli.

U $\sum_{n=1}^{\infty} n^2 |\phi_n|$ va $\sum_{n=1}^{\infty} n|\psi_n|$ qatorlar uchun hozir isbot qilingan xossalardan kelib chiqadi. Shuning uchun o'sha mulohazalarni t bo'yicha hosilalar uchun o'tkazib, natijada $u(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ni hosil qilamiz. Bu holda oson tekshirish mumkinki (1.6) formula bilan belgilanadigan $u(x,t)$ funksiya tebranish tenglamasini qanoatlantiradi (ya'ni (1) shartni). Bunday $u(x,t)$ funksiya (2)-(4) shartlarni qanoatlantirishi uni ko'rishdan quriladi – chegaraviy va boshlang'ich shartlar hisobga olingan.

Teorema isbotlandi.

Shunday qilib, yechim qurildi. Ba'zi shartlarda bu yechim yagona ekanligini isbotlaymiz.

5. 1–chi chegaraviy masalaning yagonaligi

Qo'yidagi umumiy 1 – chegaraviy masalani qaraymiz:

$$[1.3] \quad \begin{cases} U_{tt} = a^2 U_{xx} + f(x,t), & 0 < x < l, \quad 0 < t < T \\ U(0,t) = \mu_1(t), & 0 \le t \le T; \\ U(l,t) = \mu_2(t), & 0 \le t \le T; \\ U(x,0) = \phi(x), & 0 \le x \le l; \\ U_t(x,0) = \varphi(x), & 0 \le x \le l; \end{cases}$$

Bu chegaraviy masalaning yechimi yagonaligini isbotlaymiz.

Teorema 1.4 (yagonalik). Faraz qilaylik $u_1, u_2(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ va u_1, u_2 funksiyalar bir hil [1.3] chegaraviy masalaning echimi bo'lsin, u holda $\{[0;l]\times[0;T]\}$ soxada $u_1(x,t) \equiv u_2(x,t)$

Isbot: $v(x,t) = u_1 - u_2$ ko'rinib turibdiki funksiya bizning chegaraviy masalaning $f, \varphi, \phi, \mu_1, \mu_2$ funksiyalar aynan 0 ga teng bulgadagi yechim bo'ladi. Shuday qilib

$$v(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$$

va

$$\begin{cases} v_{tt} = a^2 v_{xx}, 0 < x < l, 0 < t < T; \\ v(0,t) \equiv v(l,t) \equiv v(x,o) \equiv v_t(x,0) \equiv 0 \end{cases}.$$

$v(x,t) \equiv 0$ isbotlash talab etiladi. $E(t) = \int_0^l \left[(v_t(x,t))^2 + a^2 (v_x(x,t))^2\right] dx$ funksiyani aniqlaymiz va uni **energiya integrali** deb ataymiz. Misol uchun bizning tebranuvchi torimizning o'zgarmasgacha aniqlik bilan olingan to'la energiya deb fizikaviy interpretasiya o'ilish mumkin. Ko'rinib turibdiki, bizning **v** funksiya shartlarida **E(t)** differensialanuvchi funksiyadir. Demak uning xosilasi quyidagicha hisoblanadi:

$$E'(t) = \int_0^l \left[2v_t(x,t) v_{tt}(x,t) + 2a^2 v_x(x,t)\right] dx$$

Bu integralda ikkinichi qo'shiluvchini **x** bo'yicha bo'laklab integrallab quyidagi ifodaga kelamiz:

$$E'(t)=\int_0^l \left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t)-2a^2 v_{xx}(x,t)v_{xx}(x,t)\right]dx+2a^2 v_x(x,t)v_t(x,t)\Big|_0^l$$

v(x, t) tebranish tenglamasini yechimi ekanligini esda tutgan holda, integral ostidagi ifoda aynan 0 ga teng ekanligini aniqlaymiz. Chegaraviy sharlarni **t** bo'yicha differensiallab $v_t(0,t)\equiv 0\equiv v_t(l,t)$ ni xosil qilamiz. Bundan xulosa: integral tashqarisidagi qo'shiluvchisi 0ga teng. Demak $E'(t)\equiv 0$ yoki

$$E(t)=\int_0^l \left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx\equiv const.$$

Umuman olaganda biz yopiq [1.3] tenglamar bilan ifodalanuvchi sistemada energiya saqlanish qonunininig yana bir ko'rinishiga ega bo'ldik –– energiya soni doimiydir. Ko'rinib turibdiki

$$E(t)=E(t)=\int_0^l \left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$$

Boshlang'ich shartlardan quyidagiga ega bo'lamiz. $v_t(x,0)=v_x(x,0)=0,\quad 0\ge x\ge l,$

Demak, $E(0)=0\Rightarrow E(t)\equiv 0$. Integral ostidagi funksiyalarning manfiy bo'lmaganligi $v_t(x,t)\equiv v_x(x,t)\equiv 0$ ga teng ekanligi aniqlanadi. Bundan $v\equiv const$, boshlang'ich shartlardan esa $v\equiv 0$ ekanligi kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

Eslatma: $\begin{cases} v_x(0,t)=0 \\ v_x(l,t)=0 \end{cases}$ ikkinchi tur chegaraviy shartlargaega bo'lgan masala uchun ham barcha tasdiqlarimiz o'rinli. Teoremaning isboti o'zgarmaydi, faqat integral tashqarisidagi qo'shiluvchi nolga teng ekanligi boshqa usulda. Bundat tashqari, teoremaning barcha tasdiqlari aralash ko'rinishdagi chegaraviy shartlar uchun ham o'rinlidir.

Savollar.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Yarim to'g'ri chiziqdagi bir jinsli chegaraviy shart bilan berilgan ikkinchi chegaraviy masala quyilishini keltiring
2. Ikkinchi chegaraviy masalaning Dalamber formulasi bo'yicha yechimini keltiring.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. O'zgaruvchilarni almashtirish usuli.
2. Umumiy 1 – chegaraviy masalani qo'yilishini keltiring.
3. Umumiy 1 – chegaraviy masala yagonaligi.

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Bir jinsli chegaraviy shartlar bilan berilgan bir jinsli tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani keltiring.

2. Shturm – Liuvill masalasi.
3. Mavjudlik teoremasi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

6. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
7. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
8. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
9. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
10. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

10. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
11. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
12. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
13. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
14. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
15. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
16. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
17. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
18. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o’zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g’oyalarni baholashdan o’zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo’q bo’lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g’oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo’lma;
- Izoh berishdan o’zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g’oyalar ko’p bo’lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko’proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o’ksinma,
- Tasavvo’ringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo’lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o’ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:
  Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
  Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
  Agar «+» bo’lsa siz o’qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 4. Energiya integralining tebranish tenglamasi uchun chegaraiy masala yechimining yagonaligi

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O’quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ma’lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.
2. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

O’quv mashg’uloti maqsadi:

O’quv fani to’g’risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O’quv mashg’uloti masalalari:

- *O’rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O’qitish texnologiyasi:

- *O’qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
- *O’qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O’qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O’qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o’g’zaki savol-javob, blits-so’rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o’quv fanlar sistemasidagi o’rni va roli bilan tanishtirish;
- O’quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o’quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O’qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O’quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo’nalishlari beriladi;

- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Ma'lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.
2. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

Tayanch iboralar: chegaraviy masala, xarakteristika, integral tenglama, tebranish tenglamasi, energiya integrali,

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Ma'lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala. Integral tenglamalarning ekvivalent sistemasi.

Quyidagi masalani qaraymiz

$$[1.4]\quad \begin{cases} (1)\quad u_{xy}(x,y) = a(x,y)u_x(x,y) + b(x,y)u_y(x,y) + \\ + f(x,y,u(x,y)),\quad 0 < x < l_1,\quad 0 < x < l_2 \\ (2)\quad u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l_2; \\ (3)\quad u(0,y) = \varphi(x), \qquad 0 \le y \le l_2; \end{cases}$$

Bu giperbolik tipdagi chiziqli bo'lmagan tenglama uchun berilgan masala **Gursa masala**si deb ataladi. Ilgari berilgan ta'rifga ko'ra (1) tenglamaning xarakteristikalari bu dxdy=0 tenglamani qanoatlantiruvchi funksiyalar bo'ladi. Bu esa x=const, y=const ko'rinishdagi to'g'ri chiziqlar oilasini bildiradi. Shunday qilib, bizning u(x, t) funksiyamizning x=0, y=0 xarakteristikalardagi ma'lumotlar bilan beriladi.

Ta'rif: **u(x,y)** funksiya [1.4] masalaning yechimi deb ataladi, agarda $u(x,y) \in C^2\{[0;l_1]\times[0;l_1]\}$ va (1) – (3) shartlarni qanoatlantirilsa.

Berilgan masalaning yechimi mavjudligi va yagonligini bir necha etaplarda isbotlaymiz. Dastlab biz [1.4] masalani qandaydir chiziqli bo'lmagan integral tenglamalar sistemasiga ekvivalent ekanligini ko'rsatamiz.

Faraz qilaylik, u(x,y) funksiya [1.4] masalaning yechimi bo'lsin. U holda (1) tenglamani dastlab y bo'yicha keyin x bo'yicha integrallab, quyidagini xosil qilamiz:

$$u_x(x,y) = u_x(x,0) + \int_0^y a(x,\eta)u_x(x,\eta)d\eta + \int_0^y b(x,\eta)u_y(x,\eta)d\eta + \int_0^y f(x,\eta,u(x,n))d\eta;$$

$$u(x,y) = u(0,y) + u(x,0) - u(0,0) + \int_0^x\int_0^y a(\xi,\eta)u_x(\xi,\eta)d\eta d\xi + \int_0^x\int_0^y b(\xi,\eta)u_y(\xi,\eta)d\eta d\xi + \int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\eta d\xi \qquad (1.7).$$

Ikkita yangi funkiyalarni kiritamiz $\begin{cases} v(x,y) = u_x(x,y) \\ w(x,y) = u_y(x,y) \end{cases}$

U holda, (2)-(3) boshlang'ich shartlarni qo'llab, (1.7) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$u(x,y) = \varphi(y) + \phi(x,0) - \phi(0) + \int_0^x\int_0^y \left[a(\xi,\eta)v(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w(\xi,\eta)\right]d\xi d\eta + \int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\xi d\eta \qquad (1.8)$$

Buni x bo'yicha differensiallab, quyidagini xosil qilamiz:

$$v(x,y) = \phi'(x) + \int_0^y \left[a(x,\eta)v(x,\eta) + b(x,\eta)w(x,\eta)\right]d\eta + \int_0^y f(x,\eta,u(x,\eta))d\eta \qquad (1.9)$$

Xuddi shunday y bo'yicha differensiallaymiz:

$$w(x,y) = \varphi'(y) + \int_0^x \left[a(\xi,y)v(\xi,y) + b(\xi,y)w(\xi,y)\right]d\xi + \int_0^x f(\xi,y,u(\xi,y))d\xi$$

(1.10)

Demak, agar u(x,t) [1.4] masalani yechimi bo'lsa u holda (1.8) – (1.10) tenglamalarini qanoatlantiruvchi v (x, t), w(x, t) funksiyalar mavjud bo'ladi. Teskarisi: (1.8) – (1.10) tenglamalarning yechimlari bo'lgan u, v,w- uzluksiz funksiyalarning mavjudligidan

$v = u_x$; $w = u_y$ ekanligi kelib chiqadi. Shuningdek bevosita differensiallashdan u(x,t) funksiyalar [1.4] masalani yechimi ekanligini tekshirib ko'rish mumkin.

2. **Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.**

Teorema [1.5]: (Mavjudlik teoremasi) Quyidagi to'rtta shart bajarilgan bo'lsin:

1. $a(x,y),\quad b(x,y) \in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$

2. $f(x,y,p) \in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}$ ya'ni, bizlar u(x, y) funksiyani p ixtiyoriy qiymat qabul qiluvchi o'zgaruvchi bilan almashtirdik.

3. $|f(x,y,p_2) - f(x,y,p_2)| \le L|p_1 - p_2|,\quad \forall x \in [0;l_1],\quad \forall p_1, p_2 \in E$ r o'zgaruvchi bo'yicha Lipshis shartidir.

4. $\phi(x) \in C^1[0;l_1],\quad \varphi(y) \in C^1[0;l_2],\quad \phi(0) = \varphi(0)$

U holda [1. 4] masalaning yechimi mavjud.

Isbot. [1.4] masala (1.8)-(1.10) ga ekvivalentligini xisobga olib, (1.8)-(1.10) ni qanoatlantiruvchi u(x,y), v(x,y), w(x,y) uzluksiz funksiyalar mavjudligini isbotlaymiz. Bu funksiyalarni iterasiyalar ketma-ketligi yordamida topamiz. Ketma-ket interasiyalar prosessini quyidagicha ko'ramiz:

$$\begin{cases} u_0(x,y) = v_0(x,y) = w_0(x,y) = 0 \\ u_{n+1}(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) + \int\limits_0^x\int\limits_0^y \left[a(\xi,\eta)v_n(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_n(\xi,\eta)\right]d\eta d\xi + \\ +\int\limits_0^x\int\limits_0^y f(\xi,\eta,u_n(\xi,\eta))d\eta d\xi \\ u_{n+1}(x,y) + \phi'(y) + \int\limits_0^y \left[a(x,\eta)v_n(x,\eta) + b(x,\eta)w_n(x,\eta)\right]d\eta + \int\limits_0^y f(x,\eta,u_n(x,\eta))d\eta \\ w_{n+1}(x,y) + \varphi'(y) + \int\limits_0^x \left[a(\xi,y)u_n(\xi,y) + b(\xi,\eta)w_n(\xi,y)\right]d\xi + \int\limits_0^x f(\xi,y,u_n(\xi,y))d\xi \end{cases}$$

Bu prosessni yaqinlashuvchi ekanligini isbotlaymiz. Buning uchun u_n, v_n, w_n ketma-ketliklarning hadlari orasidagi farqlarni baholaymiz. u_n uchun iterasiya ta'rifidan va teoremaning (3) shartlaridan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi:

$$|u_{n+1} - u_n| \le \int\limits_0^x\int\limits_0^y \left[|a(\xi,\eta)||v_n(\xi,\eta) - v_{n-1}(\xi,\eta)| + |b(\xi,\eta)||w_n(\xi,\eta) - w_{n-1}(\xi,\eta)|\right]d\xi d\eta +$$
$$+\int\limits_0^x\int\limits_0^y L|u_n(\xi,\eta) - u_{n-1}(\xi,\eta)|d\xi d\eta$$

Faraz qilaylik: $(x,y) \in \{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}da\ \ M = \max\{\max|a(x,y)|\max|b(x,y)|, L\}$.

Shunda:

$$|u_{n+1} - u_n| \le M\int\limits_0^x\int\limits_0^y \left[|v_n(\xi,\eta) - v_{n-1}(\xi,\eta)| + |w_n(\xi,\eta) - w_{n-1}(\xi,\eta)| + |u_n(\xi,\eta) - u_{n-1}(\xi,\eta)|\right]d\xi d\eta \qquad (1.11)$$

v_n, w_n funksiyalar uchun ham xuddi shunday:

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^y\left[|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|+|w_n(x,\eta)-w_{n-1}(x,\eta)|+|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|\right]d\eta \qquad (1.12)$$

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^x\left[|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|+|w_n(\xi,y)-w_{n-1}(\xi,y)|+|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|\right]d\xi \qquad (1.13)$$

Iterasiya prosessining barcha elementlari uzluksiz funksiyalar bo'lganligi sababli, bundan $|u_n|,|v_n|,|w_n|$ funksiya qandaydir H o'zgarmas bilan chegaralanganligi kelib chiqadi. Ketma-ketlikning nolga teng bo'lgan xadlarning ta'rifidan $|u_1-u_1|\le M, |v_1-v_1|\le M, |w_1-w_1|\le M$ kelib chiqadi. Buni qo'llab quyidagi ayirmani baholaymiz:

$$|u_2-u_1|\le M\int_0^x\int_0^y 3Hd\xi d\eta=3HMxy\le 3HM\frac{(x+y)^2}{2}$$

$$|v_2-v_1|\le M\int_0^y 3Hd\eta=3HMy\le 3HM(x+y)^2$$

$$|w_2-w_1|\le M\int_0^x 3Hd\xi=3HMx\le 3HM(x+y)$$

Ketma – ketlikni tekis yaqinlashuvchi ekanligini isbotlash uchun majorant qator qurishga to'g'ri keladi, lekin dastlab quyidagi bahoni isbotlaymiz.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^2}{2};$$

$$|v_n(x,y)-v_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

$$|w_n(x,y)-w_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

Bu yerda $K=2+l_1+l_2$;

Isbotni induksiya bilan ko'ramiz .

Induksiya bazasi. Yuqorida isbotlanganidek n=2 uchun o'rinli

Induksiya farazi. Faraz qilaylik n uchun o'rinli. $n+1$ uchun isbotlaymiz .

Induktiv o'tish . $|u_{n+1}-u_n|$ induksiya farazidan foydalanib ayirmani baholaymiz:

$$|u_{n+1}-u_n|\le M\int_0^x\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\xi d\eta\le$$

$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^{n+1}}{(n+1)!}\Bigg|_0^y d\xi+2\int_0^x\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}\Bigg|_0^y d\xi\right]$$

Integralni hisoblaylik. Bunda boshlang'ich integral chegaralarini qo'yishda quyi chegarani tashlab yuboramiz. Ularni qo'shiluvchilari manfiy bo'lib, yuqoridagi ayirma uchun shunday bahoni yuqori chegara asosida hosil qilamiz:

$$|u_{n+1}-u_n|\le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+2}}{(n+2)!}+2\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\right]=$$

$$=3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\left[\frac{x+y}{n+2}+2\right]\le$$

$$\le\left\{\frac{x+y}{n+2}+2\le l_1+l_2+2=K\right\}\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}$$

Shunday qilib u_n ketma-ketlik uchun induksiya farazi isbotlangan. Qolgan ikkita ketma-ketlik uchun bahoning isboti shunga o'xshash bo'ladi.

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^y \left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+23HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\eta \le$$

$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}+2\frac{(x+y)^n}{n!}\right]=3HM^nK^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\left[\frac{x+y}{n+1}+2\right]\le$$

$$\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^n}{n!}$$

Demak ikkinchi baho ham to'g'ri .

Uchinchi bahoning isboti ham shu ko'rinishda bo'lad , shuning uchun uni tashlab ketamiz. Endi u_n, v_n, w_n, ketma –ketliklarni tekis yaqinlashuvchi ekanligini isbotlaymiz. Ko'rinib turibdiki bunday ketma-ketlikning har bir hadini tegishli qatorning qismiy yig'indisi shaklida ifodalash mumkin.

$$u_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}(u_m(x,y)-u_{m-1}(x,y));$$

$$v_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}(v_m(x,y)-v_{m-1}(x,y));$$

$$w_n(x,y)=\sum_{m-1}^{n}(w_m(x,y)-w_{m-1}(x,y));$$

Birinchi qatorning qo'shiluvchilari uchun biz bahoni isbotlagan edik.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(l_1+l_2)^n}{n1}=C\frac{a^n}{n!},$$

$$C,a=const.$$

Malumki, $\sum_{n=1}^{\infty}c\frac{a^n}{n!}$ qator yaqinlashuvchi. Bundan Veyershtrass alomatiga ko'ra u_n ketma-ketlikni tekis yaqinlashishini hosil qilamiz. Qo'shiluvchilarning uzliksizligidan limitik funksiyaning uzluksizligi kelib chiqadi.

Shunga o'xshash qolgan ikki ketma-ketlik uchun ham ko'rsatish mumkin:

$$v_n(x,y)\Rightarrow v(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

$$w_n(x,y)\Rightarrow w(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

Endi biz $n\to\infty$ da limitni hisoblash iterasion jarayonini yozishga haqlimiz. Bu esa ushbu tenglamalar sistemasining yechimi bo'lgan u,v,w funksiyalarning mavjudligini bildiradi. Bu tenglamalar sistemasini boshlang'ich [1.4] ga ekvivalent deb olsak teorema butunlay isbotlanadi. Teorema isbotlandi.

3. Malumotlar xarakteristikalarda berilgan masalaning yagonaligi.

Shunday qilib**[1.4] masalaning mavjudligini isbotladik. Endi uning yagonaligini isbotlaymiz-ravshanki bu** (1.8)-(1.10) integral tenglamalar sistemasi yechimining yagonaligiga ekvivalentdir **.**

Teorema 1.6 (Yagonalik) Faraz qilaylik

$$\{u_1(x,y), v_1(x,y), w_1(x,y)\},$$
$$\{u_2(x,y), v_2(x,y), w_2(x,y)\};$$

ikki funksiyalar sistemasi mavjud bo'lib, ular (1-8)-(1-10) integral tenglamalar sistemasining yechimlari bo'lsin va bunda [1.4] tenglamaning yechimi mavjudligi haqidagi teoremani (1)-(4) shartlari bajarilgan bo'lsin, u holda

$$u(x.y) = u_1(x,y) - u_2(x,y), v(x,y) = v_1(x,y) - v_2(x,y), w(x,y) = w_1(x,y) - w_2(x,y)$$

funksiyalar $\prod_{l_1 l_2} = \{[0;l_1] \times [0;l_2]\}$ to'g'ri to'rtburchakda aynan 0 ga teng bo'ladi.

Isbot. Shunday qilib $u_1, u_2 -$ (1.8) integral tenglamani yechimi bo'lsin.

$$u_1(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) + \int_0^x \int_0^y [a(\xi,\eta)v_1(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_1(\xi,\eta)]d\eta d\xi + \int_0^x \int_0^y f(\xi,\eta,u_1(\xi,\eta))d\eta d\xi;$$

$$u_2(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) + \int_0^x \int_0^y [a(\xi,\eta)v_2(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_2(\xi,\eta)]d\eta d\xi + \int_0^x \int_o^y f(\xi,\eta,u_2(\xi,\eta))d\eta d\xi.$$

Biridan ikkinchisini ayirib va $f(x,y,p)$, uchun Lipshis shartini qo'llab quyidagini hosil qilamiz:

$$|u_2 - u_1| \le \int_0^x \int_0^y [M|v_2(\xi,\eta) - v_1(\xi,\eta)| + M|w_2(\xi,\eta) - w_1(\xi,\eta)| + M|u_2(\xi,\eta) - u_1(\xi,\eta)|]d\eta d\xi \Rightarrow$$

$$|u(x,y)| \le \int_0^x \int_0^y [M|v(\xi,\eta)| + M|w(\xi,\eta)| + M|u(\xi,\eta)|]d\eta d\xi \quad (1.14)$$

Shunga o'xshash natija $v(x,y)$, $w(x,y)$ funksiyalar uchun ham o'rinli:

$$|v(x,y)| \le \int_0^y [M|v(x,\eta)| + M|w(x,\eta)| + M|u(x,\eta)|]d\eta;$$

$$w \le \int_0^x [M|v(\xi,y)| + M|w(\xi,y)| + M|u(\xi,y)|]d\xi.$$

Bundan ushbu funksiyalar P to'g'ri to'rtburchakda 0 ga tengligi kelib chiqishini isbotlaymiz.Dastlab ular $\prod_{x_0 y_0} = \{[0;x_0] \times [0;y_0]\}$, to'g'ri to'rtburchakda 0 ga tengligini ko'rsatamiz. Bu yerda $x_{0,} y_0$ quyidagi shartlarni qanoatlantiradi: $\begin{cases} 3x_0 y_0 M < 1; \\ 3x_0 M < 1; \\ 3y_0 M < 1. \end{cases}$

Faraz qilaylik: $\bar{u} = \max_{\Pi x_0 y_0} |u(x,y)|; \bar{v} = \max_{\Pi x_0 y_0} |v(x,y)|; \bar{w} = \max_{\Pi x_0 y_0} |w(x,y)|$

Umumiylikni chegaralashdan, $\bar{u} \ge \max\{\bar{v}, \bar{w}\}$ bo'lishini faraz qilamiz.

Bu holda (1.14) tengsizlikdan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi:

$$|u(x,y)| \le M \int_0^x \int_0^y [\bar{u} + \bar{u} + \bar{u}]ds \le 3Mx_0 y_0 \bar{u}, (x,y) \in \Pi_{x\, y_0} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \bar{u} \le 3Mx_0 y_0 \bar{u}.$$

$3x_0y_0M < 1$ bo'lganligi sababli, bu faqat $\overline{u} = 0$ da bajariladi. Bundan ko'rinib turibdiki $u(x, y), v(x, y), w(x, y)$ funksiyalar $\Pi x_o y_o$ da aynan 0 ga teng. Keyingi qadamda biz shunday x_1 ni olamizki,

$$\begin{cases} 3(x_1 - x_0)y_0M < 1; \\ 3(x_1 - x_0)M < 1; \\ 3y_0M < 1. \end{cases}$$

va uni $\Pi x_1 y_0$ to'g'ri to'rtburchakda qaraymiz.U holda (1.14) tengsizlik quyidagi ko'rinishga ega:

$$|u(x, y)| \leq M \int_{x_0}^{x} \int_{0}^{y} [\overline{u} + \overline{u} + \overline{u}] ds, (x, y \in \Pi x_1 y_0)$$

Oldingi qadamga o'xshash harakat qilib $u(x, y), v(x, y), w(x, y)$ funksiyalar $\Pi x_1 y_0$ to'g'ri to'rtburchakda aynan 0 ga tengligini hosil qilamiz.

Shunday mulaxozalarni davom etib, chekli sonli qadamlardan keyin bu funksiyalarning $\Pi_{l_1 y_0}$ da 0 ga teng ekanligini ko'rsatish mumkin.

Teorema isbotlandi. □

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Energiya integrali
2. Ma'lumotlar xarakteristikalarda berilgan masala.
3. Gursa masalasi.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Mavjudlik teoremasi.
2. Lipshis sharti.

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Xarakteristikalarda berilgan yechimning mavjudligi.
2. Umumiy 1 – chegaraviy masala uchun yagonalik teoremasi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadze L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;

- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 5. «Qo'shma differensial operator. Riman usuli. Limitga o'tish shaklidagi umumlashgan yechimlar »
Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Qo'shma differensial operator
2. Chiziqli algebradagi qo'shma operator bilan bog'lanish.
3. Riman usuli.
4. Limitga o'tish shaklidagi umumlashgan yechimlar
5. Integrallik ayniyat ma'nosidagi umumlashgan yechimlar

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning husus iyatlari bilan tanishtirish;

- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;

- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Qo'shma differensial operator
2. Chiziqli algebradagi qo'shma operator bilan bog'lanish.
3. Riman usuli.
4. Limitga o'tish shaklidagi umumlashgan yechimlar
5. Integrallik ayniyat ma'nosidagi umumlashgan yechimlar

Tayanch iboralar: operator, differensial operator, qo'shma operator, chegaraviy masala, Grin formulasi, Riman usuli, limit, Dalamber formulasi, Puasson tenglamasi.

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Qo'shma differensial operator.

E^n fazoni qaraymiz.Faraz qilaylik $x=(x_1,\dots,x_n)$- bir necha o'zgaruvchilar, $u(x)$ - esa p o'zgaruvchi funksiya bo'lsin

Tarif . Biror $u(x)\in C^2(E^n)$ funksiyadan $L[u]$ differensial operator quyidagicha aniqlanadi :

$$L[u]=\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}a_{ij}(x)u_{x_ix_j}+\sum_{i=1}^{n}b_i(x)u_{x_i}+c(x)u \qquad (1.15)$$

Bu yerda $a_{ij}, b_i \in C^2(E^2)$, $c(x)$ qandaydir funksiyalar. Bu holda ikkinchi tartibli xususiy hosila differensiallash tartibiga bog'liq bo'lmaganligi sababli $a_{ij}(x) = a_{ji}(x)$ bir biriga to'g'rilikni qabul qilinadi.

Tarif. Har qanday $L[u]$ differensial operatorga o'zaro bir qiymatli moslik bo'yicha keluvchi $M[v]$ qo'shma operator olish mumkin.

$$M[v] = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left(a_{ij}(x)v\right)_{x_i x_j} - \sum_{i=1}^{n}\left(b_i(x)v\right)_{x_i} + c(x)v$$

Tarif. Agar $L[u] = M[v]$ bo'lsa operator o'z-o'ziga qo'shma operator deyiladi.
Bizga quyidagi formula kerak bo'ladi .

$$vL[u] - uM[v] = \sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} \tag{1.16}$$

Bu yerda $p_i(x) = \sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] + b_i uv.$

Bu formulani isbotlash uchun $p_i(x)$ ni (1.16) ning o'ng tomoniga qo'yamiz va qo'shiluvchilarni guruhlaymiz

$$\sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_i x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j x_i}\right] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] +$$

$$+\sum_{i=1}^{n}\left[vb_i u_{x_i} + u\left(b_i v\right)_{x_i}\right] + cuv - cuv = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}va_{ij}u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n}vb_i u_{x_i} + cuv -$$

$$-\left(\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}u\left(a_{ij}v\right)_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n}u\left(b_i v\right)_{x_i} + cuv\right) + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] =$$

$$vL[u] - uM[v] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right].$$

Qolgan ikkilangan yig'indi 0 ga teng –bu qo'shiluvchilar indekslarining simmetrikligidan kelib chiqadi. Bu yerdan(1.16) formula to'g'riligi kelib chiqadi.

2. Chiziqli algebradagi qo'shma operator bilan bog'lanish.

Chiziqli algebrada A operatorga qo'shma A^* operatorni deb quyidagi $(Au, v) = (u, A^*v)$ munosabatga aytiladi. Bu E^n dan olingan barcha *u,v* lar uchun bajarilishi kerak edi. Bizning tarifimiz shu berilgan tarif bilan qanchalik mos kelishini ko'rib chiqamiz.

Misol 1. $\Omega \subset E^3$ bo'lsin va skalyar ko'paytma quyidagicha aniqlansin :

$$(f, g) = \iiint_{\Omega} fg\,d\tau,\ f, g \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega})$$

u holda

$$u, v \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega}),$$

$u, v|\Sigma = 0,$ ($\Sigma - \Omega$ ning chegarasi) bo'lgan funksiyalar uchun quyidagi

$$(v, L[u]) = (M[v], u)$$

ifoda to'g'ri bo'lsin. Buni ko'rsatamiz:

$$(v,L[u])-(M[v],u)=\iiint_{\Omega}(vL[u]-uM[v])d\tau=\{(1.16)\}=\iiint_{\Omega}\left(\frac{\partial p_1}{\partial x_1}+\frac{\partial p_2}{\partial x_2}+\frac{\partial p_3}{\partial x_3}\right)d\tau=$$

$$=\{\vec{P}=(p_1,p_2,p_3)\}=\iiint_{\Omega} div\vec{P}d\tau=\{Ostrogradskiy-Gauss\quad formulasi(5.3)\}=$$

$$\iint_{\Sigma}(\vec{P},\vec{n})d\sigma=\{\vec{n}=(n_x,n_y,n_z)\}=\iint_{\Sigma}(p_1n_x+p_2n_y+p_3n_z)d\sigma=0$$

- $p_i|\Sigma=0,u,v$ uchun chegaraviy shartdan kelib chiqadi.

Misol 2. Qo'shma operator uchun oddiy misol bu Laplas operatori hisoblanadi, masalan E^3 da $L[u]=\Delta u=u_{x_1x_1}+u_{x_2x_2}+u_{x_3x_3}$ bo'ladi

Bu yerda $M[u]=\Delta v$ tekshirish oson.

3. Riman usuli

E^2 fazoda $u(x,y)$ funksiya uchun quyidagi differensiallanuvchi operatorni qaraymiz:

$$L[u]=u_{xy}+a(x,y)u_x(x,y)+b(x,y)u_y(x,y)+c(x,y)u(x,y)$$

Ta'rifga ko'ra, unga qo'shma operator quyidagi ko'rinishga ega:

$$M[v]=u_{xy}-(a(x,y)v)_x-(b(x,y)v)_x+c(x,y)v$$

Shunday qilib, (1.15) formulada

$$a_{11}=a_{22}=0,\qquad a_{12}=a_{21}=\frac{1}{2},\quad b_1=a,\qquad b_2=b,\qquad c=c.$$

Ko'rinib turibdiki (1.16) formuladagi P_1,P_2 lar quyidagicha hisoblanadi:

$$p_1=\frac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv;$$

$$p_2=\frac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv;$$

Endi Oxy tekisligida $y=f(x)$ egri chiziq berilgan bo'lsin, va unda $\forall x$ lar uchun $f'(x)<0$. Uning grafigini L_f bilan belgilaymiz. Nuqtalari $f(x)$ funksiya grafigidan yuqorida yotgan yarim tekislikni R_f^+ deb belgilaymiz:

$$R_f^+=\{(x,y):y>f(x)\},$$

Quyidagi chegaraviy masalani (shuni ta'kidlash lozimki, bu masala giperbolik tipdagi tenglama uchundir) ko'rib chiqamiz:

$$[1.5]\begin{cases}(1)\quad L[u]=F(x,y,), & (x,y)\in R_f^+;\\(2)\quad u(x,y)=\phi(x,y), & (x,y)\in L_f;\\(3)\quad \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\psi(x,y), & (x,y)\in L_f;\end{cases}$$

($L[u]$ (1.17) formulasi bilan aniqlanadi.)

Keltirilgan chegaraviy masalaning yechimini R_f^+ da izlaymiz.

Uning ixtiyoriy $A(x_0,y_0)\in R_f^+$ nuqtada qanday qilib xisoblanilishini ko'rsatib beramiz.

Buning uchun biz A nuqtani L_f egri chiziq bilan koordinata o'qlariga parralel bo'lgan kesmalar vositasida birlashtiramiz va shu orqali kesishuv nuqtalari $B(x,y_0)$ va

$C(x_0, y)$ ni hosil qilamiz. AB, AC kesmalar hamda BC yoy orasida hosil bo'lgan konturni L deb, uning ichki qismini D bilan belgilaymiz.

Qo'shma differensial operator $M[v]$ ning (bunda v - muayan bir funksiya). (1.16) formulasidan foydalanamiz.

$$\iint_D (vL[u]-uM[v])ds = \iint_D \left(\frac{\partial p_1}{\partial x}+\frac{\partial p_2}{\partial y}\right)ds$$

Buning o'ng qismini o'zgartirish uchun egri chiziqli integrallar uchun Grin formulasidan foydalanamiz:

$$\int_L Pdx + Qdy = \iint_D (Q_x - P_y ds)$$

Bu holda quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\iint_D (vL[u]-uM[v])ds = \int_L - p_2 dx - p_1 dy = \quad \text{(kontur qismlari koordinata o'qlariga parralel)}$$

$$\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} +$$

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \quad (1.18)$$

Ma'lumki,

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx =$$

$$\underbrace{\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy}_{I_{CA}} + \underbrace{\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx}_{I_{BA}}$$

Bungacha biz v funksiyani oddiygina ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiya deb belgilagan edik. Endi $M[v]=0$ bo'lishini aniqroq aytganda quyidagi masalaning yechimi bo'lishi kerak:

$$\begin{cases} (4) \quad v_{xy} - (a(x,y)v)_x - (b(x,y)v)_y + c(x,y)v = 0, \quad x \le x_0, y \le y_0; \\ (5) \quad v(x_0, y) = \exp\{\int_{y_0}^{y} a(x_0, s)ds\}, \quad y \le y_0; \\ (6) \quad v(x, y_0) = \exp\{\int_{x_0}^{x} b(s, y_0)ds\}, \quad x \le x_0; \end{cases}$$

Bu masala [1.4] ko'rinishdagi xarakteristikalar yordamida berilgan ma'lumotlarga ega bo'lgan masaladir. Oldingi bo'lmlarda ko'rsatgan edikki uning yechimidan isbot bo'lgan va yagona bo'lgani (x, y) funksiya mavjud. Bu funksiya bizga ma'lum deb hisoblaymiz va aynan shu funksiyadan foydalanamiz.

Birinchi boshlang'ich tenglamadan $F(x,y)$ funksiyani qo'ygan holda $u(x,y)$ uchun (1.18) ifodaga qaytamiz.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + I_{CA} + I_{BA}.$$

I_{CA}, I_{BA} integrallarda koordinatalaridan biri fiksirlanganidan foydalanamiz. $v(x,y)$ uchun (4) shartdan $x = x_0$ bo'lsa, $v_y - av = 0$ bo'lishini oson aniqlash mumkin. Shunday qilib:

$$I_{CA} = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy = \int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_y - u(v_y - av)\right]dy = \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C$$

Xuddi shunday, $y = y_0$ bo'lganda $u_x - bu = 0$ ekanligini ko'rsatish mumkin. Demak,

$$I_{BA} = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx = \int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_x - u(v_x - bv)\right]dx = \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B.$$

Shunday qilib, (1.18) ifodani quyidagicha yozish mumkin.

$$\iint_D v(x,y)F(x,y)ds = \int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} +$$
$$uv\Big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C - \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B.$$

Bundan $A(x_0, y_0)$ nuqtada $u(x,y)$ funksiyasini qiymatini aniqlash mumkin:

$$u(x_0,y_0)v(x_0,y_0) = -\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} +$$
$$\tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B + \iint_D v(x,y)F(x,y)ds.$$

$v(x,y)$ ning (5),(6) chegaraviy shatrlardan $v(x_0,y_0) = 1$ ekanligi kelib chiqadi.

U holda

$$u(x_0,y_0) = -\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\Big|_B +$$
$$+ \iint_D v(x,y)F(x,y)ds$$

hosil bo'ladi. Bu $u(x_0,y_0)$ uchun yakuniy formuladir. Konturdagi xususiy hosilalar $u(x,y)$ bizga noaniq ekanligi ko'rinishi mumkin. Ularni (2),(3) chegaraviy shartlardan topish mumkinligini ko'rsatamiz:

$$\begin{cases} u(x, f(x)) = \phi(x, f(x)); \\ \dfrac{\partial u}{\partial n}(x, f(x)) = \varphi(x, f(x)); \end{cases}$$

L_f ga o'rinmaning birlik vektori $\vec{\tau}$ quyidagi ko'rinishga ega:

$$\vec{\tau} = \left\{ \frac{1}{\sqrt{1 + (f'(x))^2}}; \frac{f'(x)}{\sqrt{1 + (f'(x))^2}} \right\}.$$

Bundan quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y) = \frac{\partial u}{\partial n}\frac{1}{\sqrt{1 + (f'(x))^2}} + \frac{\partial u}{\partial y}\frac{f'(x)}{\sqrt{1 + (f'(x))^2}}$$

$\dfrac{\partial u}{\partial \tau}$ quyidagi o'zgartirishlardan topiladi.

$$\frac{\partial}{\partial n}u(x, f(x)) = u_x(x, f(x)) + u_y(x, f(x))f'(x) = \sqrt{1 + (f'(x))^2}\,\frac{\partial u}{\partial \tau}(x,y).$$

Ma'lumki,

$$\frac{\partial y}{\partial n} = (\vec{n}, gradu).$$

L_j ga normalning, $\vec{\tau}$ vektorga ortogonal bo'lgan birlik vektori quyidagicha hisoblanadi:

$$\vec{n} = \left\{ \frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}; -\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} \right\}.$$

Bundan:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y) = \frac{\partial u}{\partial n}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} - \frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

Yuqoridagilarga asoslanib, chegaraviy shartlardan L konturda $u(x,y)$ ni topish uchun sistemani hosil qilamiz.

$$\begin{cases} \frac{\partial}{\partial x}\phi(x, f(x)) = \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial u}{\partial y} f'(x) \\ \varphi(x, f(x)) = \frac{\partial u}{\partial x}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} - \frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}} \end{cases}$$

Uning determinanti hech qayerda 0 ga teng emas. Bundan kelib chiqadiki, $u_x(x,y)$, $u_y(x,y)$ lar mavjud va ular bir qiymatli aniqlanishi mumkin.

Shunday qilib, biz (1.19) formula to'g'riligini asosladik. Uni hosil qilish uchun qo'llaniladigan usul **Riman usuli** deyiladi.

Eslatma: Dalamber formulasi (1.19) formulaning xususiy holidan iborat uzluksiz umumlashtirilgan yechim.

Shunday hollar bo'ladiki, amaliy masalalarning yechimlari bo'ladi. Bunday yechimlar ushbu kursdagi standart formulalar yordamida hosil qilib bo'lmaydi. Ammo, ularni masalan, oddiy yechimlarning chegarasidek tasvirlash mumkin.

4. Limitga o'tish shaklidagi umumlashgan yechimlar

Umumiy yondoshuv: $L[u] = 0$ tenglamadan topish lozim bo'lgan u funksiya berilgan va bunda shu funksiyaga ba'zi bir F va F funksiyalar ko'rinishida shartlar qo'yilgan bo'lsin.Agar bu masala yechimga ega bo'lmasa, masalan, $F \notin C^2, \Phi \notin C^2$ bo'lganligi tufayli bu holda biz tekis yaqinlashuvchi ketma-ketliklar $F_n \Rightarrow F, \Phi_n \Rightarrow \Phi$ ni tuzamiz.Bu yerda $F \notin C^2, \Phi \notin C^2$.Shunda agar F_n va Φ_n funksiyalarga mos keluvchi yechim (u_n) mavjud bo'lsa u sifatida u_n funksiyalarning limitini olamiz:

$$u = \lim_{n \to \infty} u_n$$

Bunda u_n ketma-ketlik u ga tekis yaqinlashish sharti bajarilgan.

Misol. Bizlarga berilgan giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini ko'rib chiqamiz:

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, -\infty < x < +\infty, 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad -\infty < x < +\infty; \\ u_t(x,0) = \psi(x), \qquad -\infty < x < +\infty \end{cases}$$

Ma'lumki agar $\phi \in C^2(E), \psi \in C^1(E)$ bo'lsa yechim Dalamber formulasi bilan berilgan bo'ladi?

$$u(x,t)=\frac{\phi(x-at)+\phi(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi$$

Faraz qilaylik bizlarga xuddi shunday masalada $\overline{\phi},\overline{\psi}$ funksiya faqatgina uzluksiz bo'lsa, ya'ni biz Dalamber formulasidan foydalana ololmaymiz. Polosada fikr yuritamiz. $[-d;d]$ kesmadan tashqarida $\overline{\phi}=\overline{\psi}=0$ bo'lishini talab qilamiz. Bu yerda d ma'lum bir o'zgarmas. Bunday xossa

$$\text{supp}\,\overline{\phi},\overline{\psi}=[-d;d]$$

kabi belgilanadi. Faraz qilaylikki shunday $\phi_n(x),\psi_n(x)$ funksiyalar mavjud bo'lib, $\phi_n\in C^2(E),\psi_n\in C^1(E)$ shuningdek $|x|\geq 2d$ uchun $\overline{\phi_n}(x)=\overline{\psi_n}(x)=0,$ hamda $[-2(d+aT);2(d+aT]$ kesmada

$$\begin{cases}\phi_n(x)\Rightarrow\overline{\phi}(x);\\ \psi_n(x)\Rightarrow\overline{\psi}(x).\end{cases}$$

$\Phi_n\quad\psi_n$ funksiyalarga mos keluvchi Koshi masalasining yechimi uchun Dalamber formulasi o'rinlidir.

$$u_n(x,t)=\frac{\phi_n(x-at)+\phi_n(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi\qquad\Rightarrow u_n(x,t)\in C^2\{E\times[0;T]\}$$

Bunday funksiyalarning limitini bizlar yechim deb nomlaymiz.

$$\overline{u}(x,t)=\lim_{n\to\infty}u_n(x,t)$$

Aniqlashni to'g'ri deb hisoblash mumkin agar biz

$$\prod=\{(x,t):-2d-aT\leq x\leq 2d+aT,0\leq t\leq T\}$$

To'g'ri burchakda $u_n(x,t)$ ketma-ketlikning tekis yaqinlashishini ko'rsata olsak (ravshanki to'g'ri to'rt burchakdan tashqarida ketma-ketlikning barcha hadlari 0 ga aynan teng). Buning uchun u_n fundamental ketma-ketlik ekanligini,ya'ni

$\forall\varepsilon>0\quad\exists M:\forall m>M,\forall p>0\quad |u_{m+p}(x,t)-u_m(x,t)|<\varepsilon\quad\forall(x,t)\in\prod$ ni isbotlaymiz

Bu ayirmani Dalamber formulasi orqali baholaymiz.

$$|u_{m+p}(x,t)-u_m(x,t)|\leq\frac{|\phi_{m+p}(x+at)-\phi_m(x+at)|}{2}+\frac{|\phi_{m+p}(x-at)-\phi_m(x-at)|}{2}+$$
$$+\frac{1}{2}\int_{x-at}^{x+at}|\psi_{m+p}(\xi)-\phi_m(\xi)|d\xi$$

Hosil qilingan yig'indini har qanday ilgaridan berilgan ε dan kichik qilish mumkin –bu tekis yaqindashish shartidan, demak $\Phi_n\quad\psi_n$ ketma-ketliklarning fundamentalligidan kelib chiqadi.Shundan hosil qilamizki

$$u_n(x,t)\Rightarrow\overline{u}(x,t),(x,t)\in\prod\qquad\text{bu yerda}\qquad\overline{u}(x,t)\in C[\prod]$$

Bundan tashqari $u_n(\pm(2d+aT),t)=0,$ bo'lgani uchun $u\ (\pm(2d+aT),t)=0,$ va $\prod$ to'g'ri burchakdan tashqarida $\overline{u}(x,t)=0$ bo'ladi. Shunday tarzda tuzilgan funksiya limitik o'tish shaklidagi umumlashtirilgan yechim deyiladi.Bu yechim yagonami degan savol tug'iladi (chunki biz Φ_n,ψ_n ketma-ketliklarni ixtiyoriy ravishda tanlagan edik)? Bu savolga javob berish uchun bizlar ixtiyoriy ikki ϕ_n^1,ϕ_n^2 *ва* ψ_n^1,ψ_n^2 juft ketma-ketlik olamiz va ular

$$\begin{cases} \phi_n^1 \Rightarrow \overline{\phi}, & \phi_n^2 \Rightarrow \overline{\phi}; \\ \psi_n^1 \Rightarrow \overline{\psi}, & \psi_n^2 \Rightarrow \overline{\psi}; \end{cases}$$

bo'ladi. Faraz qilaylikki bu ketma-ketliklarga mos ravishda Dalamber formulasi bo'yicha hosil qilingan u_n^1 *ва* u_n^2 ketma-ketliklar hadlarining limitlaridan iborat bo'lgan $\overline{u}^1(x,t), \overline{u}^2(x,t)$ ikki yechimlar to'g'ri kelsin $\overline{u}^1(x,t) \equiv \overline{u}^2(x,t)$ isbotlaymiz. Buning uchun ularning ayirmasini baxolashimiz kerak $\overline{u}^1(x,t) - \overline{u}^2(x,t)$

$$\left|\overline{u}^1(x,t) - \overline{u}^2(x,t)\right| \le \left|\overline{u}^1(x,t) - u_n^1(x,t)\right| + \left|u_n^1(x,t) - u_n^2(x,t)\right| + \left|\overline{u}^2(x,t) - u_n^2(x,t)\right|$$

u_n^1 *va* u_n^2 funksiyalarning mos ravishda $\overline{u}^1$ *va* $\overline{u}^2$ funksiyalarga tekis yaqinlashishi sababli ushbu ayirmaning birinchi va uchinchi qo'shiluvchilari nolga intiladi, chunki ϕ_n^1, ϕ_n^2 *va* ψ_n^1, ψ_n^2 ketma-ketliklarga mos ravishda yana o'sha funksiyalar Φ va ψ yaqinlashadi.Bu yerdan $\overline{u}^1(x,t)$ *va* $\overline{u}^2(x,t)$ funksiyalarning aynan tengligi kelib chiqadi.

6. **Integrallik ayniyat ma'nosidagi umumlash yechimlar**.

Umumlashgan yechimlar qo'llanilishining boshqa misoli sifatida Puasson tenglamasidagi $\Delta u = -f(x,y,z)$ f funksiya ikki marta diferensiyalanmaydigan holat, ya'ni normal yechim mavjud bo'lmagan holat bo'lishi mumkin (chunki hamma vaqt $\Delta u \in C^2$)

Umumiy yondashuv. $\sum$ chegaraga ega bo'lgan $\Omega \in E^3$ sohada $u(x,y,z)$ funksiyalar $L[u] = F$ tenglama bilan aniqlanadigan bo'lsin, bu yerda

$$L[u] = \sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3} a_{i,j}(x) u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{3} b_i(x) u_{x_i} + c(x)u$$

shunda burchakga bog'langan operator quyidagicha beriladi

$$M[v] = \sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3} \left(a_{i,j}(x)v\right)_{x_i x_j} - \sum_{i=1}^{3}\left(b_i(x)v\right)_{x_i} + c(x)v$$

Bizlar faqat shunaqa v funksiyalarni qaraymizki, ular uchun limitda to'liq quyidagi shart bajarilishi kerak. Ma'lumki agar $u, v \in C^2(\Omega) \cap C^1(\Omega)$ bo'lsa (1.16) formula o'rinli bo'ladi

$$\iiint_{\Omega} (vL[u] - uM[v])d\tau = \iiint_{\Omega} div\vec{\rho} d\tau = \iint_{\sum} (\vec{p}, \vec{n}) d\sigma$$

v ga qo'yilgan shartlardan v, v_x, v_y, v_z funksiyalar demak $\vec{\rho}$ vektor funksiya ham $\sum$ da 0ga aylanishini hosil qilamiz. Bundan kelib chiqadiki

$$\iiint_{\Omega} (vL[u] - uM[v])d\tau = 0$$

$L[u] = F$ ekanligidan foydalanamiz

$$\iiint_{\Omega} vF d\tau = \iiint_{\Omega} uM[v] d\tau \ (1.20)$$

u funksiya uchun hosil qilingan ifoda integral o'xshashlik ma'nosidagi umumlashtirilgan yechim deyiladi. Shunday qilib biz uzluksiz differensiallanish talabini v funksiyaga o'tkazib, shuningdek bu funksiya qat'iy Ω ichida yotuvchi sohadagina 0ga teng bo'lmasligi shartini talab etib u funksiya uchun tenglamani o'zgartirdik.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Chiziqli algebradagi qo'shma operator bilan bog'lanish.
2. $L[u]$ differensiallanuvchi operatorni yozing.
3. $L[u]$ differensiallanuvchi operator qo'shma operator qanday ko'rinishga ega
4. $L[u]$ differensiallanuvchi operator uchun chegaraviy masalani keltiring.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Differensial operator.
2. Qo'shma differensial operator .
3. Qo'shma differensial operatormisol keltiring.
4. Dalamber formulasini yozing.
5. Puasson tenglamasini keltiring.

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Egri chiziqli integrallar uchun Grin formulasini yozing.
2. Limitga o'tish shaklidagi umumlashgan yechimlar. Umumiy yondoshuv.
3. Giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini keltiring
4. Integrallik ayniyat ma'nosidagi umumlash yechimlar. Umumiy yondashuv.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*

2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*

3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*

4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*

5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*

6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*

7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*

8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*

9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 6. Parabolik tipdagi tenglamalar
Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini chiqarilishi
2. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Asosiy masalalarning qo'yilishi
3. Birinchi chegaraviy masala yechimining mavjudligi.
4. O'zgaruvchilarni ajratish usuli.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;

- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini  beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini chiqarilishi
2. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Asosiy masalalarning qo'yilishi
3. Birinchi chegaraviy masala yechimining mavjudligi.
4. O'zgaruvchilarni ajratish usuli.

Tayanch iboralar: Fur'ye qonuni, Ostragradskiy-Gauss formulasi, Fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi, Chegaraviy shartlar, Boshlang'ich shartlar, Birinchi chegaraviy masala, Ikkinchi chegaraviy masala, Yarim to'g'ri chiziqdagi masala, Koshi masalasi

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini chiqarilishi

Uch o'lchovli fazoda biror issiqlik o'tkazuvchi va koordinatalari (x, y, z) bo'lgan ixtiyoriy M nuqtaning temperaturasi t vakt momentida $u(x, y, z, t)$ funksiya ko'rinishida beriluvchi jismni qaraymiz. Ma'lumki, issiqlik potoki vektori uchun $\vec{W}$ quyidagi Fur'ye qonuni deb ataluvchi formula o'rinlidir.

$$\vec{W} = -k\ grad\, u$$

Bu yerda $k(x, y, z)$ - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti.

Agar jism E^3 fazoda berilgan bo'lsa Ω soxaning chegarasi Σ bo'ladi. Shunda jismning issiqlik miqdori t vaqt momentida quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_2)d\tau_M - \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_1)d\tau_M =$$
$$= (t_2 - t_1)\iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u_t(M, t_3)d\tau_M$$

$[t_1; t_2]$ $(Q(t_1) = Q_1, Q(t_2) = Q_2)$ vaqt oralig'ini qaraymiz. Shunda

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M, t_2)d\tau_M - \iiint_{\Omega} c(m)\rho(M)u(m, t_1)d\tau_M$$

bo'ladi. Issiqlik miqdorining o'zgarishi tashqaridan issiqlik oqib kelish natijasida va ba'zi ichki manbaning (stoklarning) harakati tufayli ro'y beradi:

$$Q_2 - Q_1 = \int_{t_1}^{t_2}\left[-\iint_{\Sigma}(\vec{W}, \vec{n})dv\right]dt + \int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_{\Omega} F(M, t)d\tau\right]dt$$

Birinchi integral uchun Ostogradskiy-Gauss formulasini qo'llaymiz va o'rta qiymat haqidagi formulani esa ikkinchi integral uchun qo'llaymiz:

$$Q_2 - Q_1 = -\int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_{\Omega}(div\vec{W})d\tau\right]dt + (t_1 - t_2)\iiint_{\Omega} F(M,t_4)d\tau$$

Bu yerda $t_4 \in [t_1;t_2]$ ga qarashli.

Lagranj formulasidan quyidagi silliq (buni faraz qilamiz) u funksiya uchun foydalanamiz:

$$u(M,t_2) - u(M,t_1) = u_t(M,t_3)(t_2 - t_1), \quad t_3 \in [t_1;t_2]$$

Bundan quyidagini hosil qilamiz:

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M,t_2)d\tau_M - \iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u(M,t_1)d\tau_M =$$

$$= (t_2 - t_1)\iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u_t(M,t_3)d\tau_M$$

Demak,

$$(t_2 - t_1)\iiint_{\Omega} c(M)\rho(M)u_t(M,t_3)d\tau_M = -\int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_{\Omega}(div\vec{W})drM\right]dt + (t_1 - t_2)\iiint_{\Omega} F(M,t_4)dr.$$

Endi hamma integral uchun umumlashtirilgan o'rat qiymat formulani qo'llaymiz:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2 - t_1) = -div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_5\\ M=M_2}} V_\Omega(t_2 - t_1) + F(M_3,t_4)V_\Omega(t_2 - t_1),$$

Bunda $t_5 \in [t_1;t_2]; M_1, M_2 \in \Omega$, $V_\Omega - \Omega$ ning hajmi bo'ladi. $V_\Omega(t_2 t_1)$ ga qisqartirib, Ω dan olingan biror bir M_1, M_2 nuqtalar uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2 - t_1) = -div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_3\\ M=M_2}} + F(M_3,t_4).$$

Endi biror M_0 nuqtagacha Ω ni qissak, $[t_1,t_2]$ kesma ham t_0 nuqtagacha qisiladi. Bundan ko'rinadiki M_1, M_2 nuqtalar M_0 ga o'tadi, t_3, t_4, t_5 lar esa t_0 ga. Bundan limitga o'tganda quyidagi hosil bo'ladi:

$$c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0) = -div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_0\\ M=M_0}} + F(M_0,t_0)$$

$\vec{W}$ uchun Fur'ye qonunini qo'llab quyidagini hosil qilamiz:

$$div\vec{W} = div(-kgradu) = -\frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x} - \frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y} - \frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0) = \frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y} + \frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z} + F(M_0,t_0)$$

M_0, t_0 nuqtalarni ixtiyoriy olganimiz sababli, hosil qilingan formulani butun $[t_1.t_2]$ va Ω ni soha uchun yoyish mumkin:

$$c(x,y,z)\rho(x,y,z)u_t(x,y,z,t) = \frac{\partial}{\partial x}(k(x,y,z)u_x(x,y,z,t)) + \frac{\partial}{\partial y}(k(x,y,z)u_y(x,y,z,t)) +$$

$$+\frac{\partial}{\partial z}(k(x,y,z)u_z(x,y,z,t)) + F(x,y,z,t)$$

Bu ifoda **fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi** deb nomlanadi.

c, ρ, k larni konstanta da deb olib, quyidagi tenglik hosil qilamiz:

$$u_t = a^2(u_{xx} + u_{yy} + u_{zz}) + f(x,y,z,t), \qquad a^2 = \frac{k}{c\rho}, \qquad f = \frac{F}{c\rho} \qquad \textbf{(2.1)}$$

Agar u, f faqat x va t o'zgaruvchilari bilan bog'liq bo'lsa, u holda bu tenglik quyidagicha yoziladi:

$$u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t) \qquad \textbf{(2.2)}$$

Fizik interpretasiyada bir jinsli yupqa sterjinda issiqlik o'tkazuvchanlik (yoyilish) tenglamasidir. (2.2) tenglamani biz keyinchalik **issiqlik o'tkazuvchi tenglamasi** deb yuritamiz.

Analogik fikrlashni boshqa bir fizik prosesslar uchun ham o'tkazishimiz mumkin, masalan diffuziya uchun. Agar $u(x.y.z.t)$- fazoda gazning konsentrasiyasi bo'lsa, u holda **diffuziya tenglamasi** quyidagicha bo'ladi:

$$cu_t = div(Dgradu) + F(x,y,z,t)$$
$$D - diffuziya \quad koeffitsiyenti$$
$$F - biror\ bir \ \ funktsiya$$

2. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Asosiy masalalarning qo'yilishi

Quyidagi tenglamani qarab chiqamiz:

$$u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \quad 0 < x < l, \quad 0 < t \le T$$

Agar bizga sterjinning boshlang'ich vaqt momentidagi temperaturasi malum bo'lsa, u holda biz boshlang'ich shartga ega bo'lamiz:

$$u(x,o) = \phi(x), \ \ 0 \le x \le l$$

Agar chetlarida temperaturani o'zgarishini bilsak, u holda ayrim chegaraviy shartlar **xosil qilamiz:**

$$x = l, 0 \le t \le T \qquad \begin{cases} (1)\ u(l,t) = \mu_2(t) - birinchi\ \ chegaraviy\ shart \\ (2)\ u_x(l,t) = \nu_2(t) - ikkinchi\ chegaraviy\ shart \\ (3)\ u_x(l.t) = -\lambda_2\left[u(l,t) - \theta_2(t)\right] - uchinchi\ chegaraviy\ shart \end{cases}$$

$$x = 0, 0 \le t \le T \qquad \begin{cases} (4)\ u(0,t) = \mu_1(t) - birinchi\ chegaraviy\ shart \\ (5)\ u_x(0,t) = \nu_1(t) - ikkinchi\ chegaraviy\ shart \\ (6)\ u_x(0,t) = -\lambda_1\left[u(0,t) - \theta_1(t)\right] - uchinchi\ chegaraviy\ shart \end{cases}$$

Bu shartlardan bir nechtasini tanlab har xil tipli masalalarni hosil qilamiz:

Birinchi chegaraviy masala

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,o) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

Ikkinchi chegaraviy masala

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \ \ 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u_x(0,t) = \nu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u_x(l,t) = \nu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

Yarim to'g'ri chiziqdagi masala

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), x > 0, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad x \ge 0 \end{cases}$$

Koshi masalasi

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), -\infty < x < +\infty, 0 < t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad -\infty < x < +\infty \end{cases}$$

3. Birinchi chegaraviy masala yechimining mavjudligi
O'zgaruvchilarni ajratish usuli.
Birinchi chegaraviy masalaga kengroq to'xtalib o'tamiz:

$$\textbf{[2.1]} \begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

Yechimning mavjud va yagonaligini qarab o'tamiz, shu bilan birga turhunligini va **Grinn funksiyasini** qo'llashini qaraymiz. Birinchi chegaraviy masalaning yechima nima. Aniqki, birjinsli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi holatida $\tilde{u}(x,t)$ uzilishga ega bo'lgan funksiyalar tuplami qanoatlantiradi:

$$\tilde{u}(x,t) = const, \ (x,t) \in Q_T = \{(x,t) : (0;1) \times (0;T)\};$$
$$\tilde{u}(0,t) = \mu_1(t); \ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(l,t) = \mu_2(t); \ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(x,0) = \phi(x); \ 0 \le x \le l.$$

Shuning uchun funksiya dan uzluksizlikni talab qilamiz, bu talab bilan keyinchalik biz barcha funksiyani o'rganishdagi noqulayliklar bartaraf etamiz.

Ta'rif. u(x,t) funksiya **[2.1] issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun 1-chegaraviy masalasining yechimi** deyiladi, agar u quyidagi 3 shartni qanoatlantirsa:

1. $u \in C[\overline{Q}_T]$;
2. $u_t, u_{xx} \in C[Q_T]$;
3. $u(x,t)$ [2.2]

Bir jinsli issiqlik o'tazuvchasnlik tenglamasi nolinchi chegaraviy shartlar bilan berilgan birinchi chegaraviy masala uchun yechimni topamiz:

$$\textbf{[2.2]} \qquad \begin{cases} (1)\, u_t = a^2 u_{xx}, 0 < x < l, 0 < t \le T; \\ (2)\, u(0,t) = 0, \ 0 \le t \le T; \\ (3)\, u(l,t) = 0, \ 0 \le t \le T; \\ (4)\, u(x,0) = \phi(x), \ 0 \le x \le l. \end{cases}$$

Yechimni quyidagi yo'l bilan aniqlaymiz, avvalo berilgan tenglamani almashtirish yordamida biror u(x,t) funksiyani tuzatamiz, keyin esa, boshlang'ich shartlarga qo'yilgan ma'lum bir cheklanishlarda biz tuzgan funksiya 1-chi chegaraviy masalaning yechimi bo'lishini isbotlaymiz.

Yangi funksiyani aniqlaymiz:

$$v(x,t) = X(x)T(t.)$$

Funksiyamizni issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasiga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$X(x)T'(t) = a^2 X''(x)T(t).$$

Tenglikning ikki tomonini ham $a^2 X(x)T(t)$ ga bo'lamiz:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)}$$

O'ng va chap tomondagi funksiyalar har xil o'zgaruvchilarga bog'lik bo'lganligi tufayli, aniqki ularning har ikkalasi ham biror konstantaga teng bo'ladi, biz uni $-\lambda$ bilan belgilaymiz:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} = -\lambda$$

Bundan 2 ta tenglamaga ega bo'lamz:

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0; \qquad \textbf{(2.3)}$$

$v(x,t)$ funksiyamiz uchun chegaraviy shartlarni yozib olamiz:

$$\begin{cases} v(0,t) = 0; \\ \qquad\qquad t \in [0;T], \\ v(l,t) = 0. \end{cases}$$

Quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} X(0) = 0 \\ X(l) = 0. \end{cases}$$

(2.3) ni xosil bo'lgan sistema bilan birlashtirsak, **Shturm-Liuvill masalasini** hosil qilamiz:

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0; \\ X(0) = 0; \\ X(l) = 0. \end{cases}$$

Barcha λ larni topish talab qilinadi.

Differensial tenglama kursidan malumki,

$$\begin{cases} \lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2, n \in N \\ X_n(x) = c_n^1 \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right), n \in N \end{cases}$$

λ_n ni (2.4) ga qo'yib, quyidagi ko'rinishdagi tenglikni hosil qilamiz:

$$T_n'(t) + a^2 \lambda_n T_n(t) = 0.$$

Yechim

$$T_n = c_n^2 \exp\left\{-a^2 \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\} \qquad \text{bo'ladi.}$$

$X_n(x)$ *va* $T_n(t)$ ni birlashtirib quyidagini hosil qilamiz:

$$v_n(x,t) = X_n(x)T_n(t) = c_n \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right) \exp\left\{-a^2 \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}$$

Qayd etib o'tamizki, xamma shunday funksiyalar (1) issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasining yechimi va (2), (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. u(x,t) funksiyani qatorning yig'indisi sifatida aniqlaymiz:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,t)$$

Takidlab o'tamizki bu chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Konstantalarni shunday tanlaymizki, boshlang'ich shartlar bajarilsin:

$$\phi(x) = u(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} c_n \sin(\frac{\pi n}{l} x)$$

Tenglikni $\sin(\frac{\pi m}{l} x)$ ga ko'paytiramiz (m-butun). $x \to s$ almashtirish olamiz va s bo'yicha integrallaymiz:

$$\int_0^l \phi(s) \sin\left(\frac{\pi m}{l} s\right) ds = \sum_{n=1}^{\infty} c_n \int_0^l \sin\left(\frac{\pi m}{l} s\right) \sin\left(\frac{\pi n}{l} s\right) ds.$$

$$\int_0^l \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right) \sin\left(\frac{\pi m}{l} x\right) = \begin{cases} 0, n \neq m; \\ \frac{l}{2}, n - m. \end{cases} \Rightarrow \int_0^l \phi(s) \sin\left(\frac{\pi m}{l} s\right) ds = \frac{l}{2} c_m \Rightarrow$$

$$c_m = \frac{2}{l} \int_0^l \phi(s) \sin\left(\frac{\pi m}{l} s\right) ds$$

Natijada u(x,t) uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2}{l} \left(\int_0^l \phi(s) \sin\left(\frac{\pi n}{l} s\right) ds \right) \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right) \exp\left\{ -a^2 \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t \right\}. \qquad \mathbf{(2.5)}$$

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Ostragradskiy-Gauss formulasi
2. Fazoda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi
3. Birinchi chegaraviy masalani yechimining ta'rifi.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Fur'ye qonuni
2. Chegaraviy shartlar
3. Boshlang'ich shartlar

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Birinchi chegaraviy masala
2. Ikkinchi chegaraviy masala
3. Yarim to'g'ri chiziqdagi masala
4. Koshi masalasi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynым integralnым uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;

- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 7. Parabolik tipdagi tenglamalar

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Mavjudlik teoremasi
2. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun maksimal qiymat prinsipi
3. Birinchi chegaraviy masalani yechimining yagonaligi.
4. Birinchi chegaraviy masalani yechimining turg'unligi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;

- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; husisiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;

- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Mavjudlik teoremasi
2. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun maksimal qiymat prinsipi
3. Birinchi chegaraviy masalani yechimining yagonaligi.
4. **4.** Birinchi chegaraviy masalani yechimining turg'unligi.

Tayanch iboralar: issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi, fazoviy o'zgaruvchi, maksimum prinsipi, chegaraviy masala, yagonalik, turg'unlik

1.3.1. Ma`ruza matni

a. Bir fazoviy o'zgaruvchi bilan berilgan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Mavjudlik teoremasi

$$\mathbf{[2.1]}\begin{cases} u_t &= a^2u_{xx}+f(x,t), & 0<x<l,\ 0<t\leqslant T; \\ u(0,t) &= \mu_1(t), & 0\leqslant t\leqslant T; \\ u(l,t) &= \mu_2(t), & 0\leqslant t\leqslant T; \\ u(x,0) &= \phi(x), & 0\leqslant x\leqslant l. \end{cases}$$

Bizga malumki issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaning yechimi quyidagicha:

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\left|\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}\beta\right)ds\ \right|\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\exp\left\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\} \quad (2.5)$$

Teorema 2.1(mavjudlik):

Faraz qilaylik bizga $\phi(x)$ funksiya berilgan va u quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$1)\phi(x)\in c^1[0,l]$ $2)\phi(0)=\phi(l)=0$

Shunda (2.5) formula [2.2]chegaraviy masalala uchun yechimlar sinfini aniqlanadi.

Isboti. $(1)\,u(x,t)$ funksiyamiz $\bar{Q}_T=[0,l]*[0,T]$ soxada uzluksiz ekanini ko'rsatishimiz kerak. $|u(x,t)|\le\sum|v_n(x,t)|\le\sqrt{\frac{2}{l}}\sum_{n=1}^{\infty}|\phi_n|$. Bu yerda $\phi_n=\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l\phi(s)sun\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds$ Agar bizlar $\sum_{n=1}^{\infty}|\phi_n|$ qatorni yaqinlashishini ko'rsatsak, shunda Veyershtrass alomatiga ko'ra $\sum_{n=1}^{\infty}|v_n(x,t)|$ qator tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

Olingan $v_n(x,t)$ funksiya uzluksiz bo'lganligi sababli $u(x,t)$ funksiyamiz ham uzluksiz bo'ladi, chunki bu funksiyamiz uzluksiz funksiyalardan tuzilgan tekis yaqinlashuvchi bo'lgan qator bilan aniqlanadi. Endi ϕ_n funksiyani qaraymiz. Agarda bu funksiyani integrallasak quyidagicha bo'ladi.

$$\phi_n=\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l\phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=-\sqrt{\frac{2}{l}}\frac{1}{\pi n}\phi(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)\Big|_0^l+\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l\phi'\left(\frac{l}{\pi n}\right)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=$$
$$=\frac{1}{n}\int_0^l\frac{l}{\pi}\phi'(s)\sqrt{\frac{2}{l}\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.}$$

$\overline{\phi_n}=\int_0^l\phi'(s)\sqrt{\frac{2}{l}}\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds$ belgilash olamiz.

Ortonormallashgan funksiyalar sistemasiga taluqli bo'lgan Bessel tengsizlikdan foydalansak bizlar quyidagi tengsizlikka kelamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\overline{\phi_n^2}=\sum_{n=1}^{\infty}\left(\int_0^l\phi'(s)\sqrt{\frac{2}{l}}\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\right)^2\le\int_0^l(\phi^2(s))ds$$

Endi bizlar $\sum_{n=1}^{\infty}|\phi_n|$ qator uchun almashtirish olishimiz mumkin

$$\sum_{n=1}^{\infty}|\phi_n|=\frac{1}{n}\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}|\overline{\phi_n}|\le\left\{ab\le\frac{a^2+b^2}{2}\right\}\le\frac{l}{\pi}\left(\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^2}+\sum_{n=1}^{\infty}\overline{\phi}_n^{\,2}\right)$$

Qavs ichidagi 1-qator ma'lumki yaqinlashuvchi, 2-chi qator esa yangi ko'rsatganimizdek yaqinlashuvchi qator. Bundan xulosa Fur'ye koeffisentlaridan iborat bo'lgan $\sum_{n=1}^{\infty}|\phi_n|$ qator yaqinlashuvchi.

Demak avval ko'rsatganimizdek $u(x,t)$ funksiyamiz uzliksizligini isbotladik.

(2) Endi bizlar Q_T sohada u_t, u_{xx} bo'yicha xosilalarning mavjudligi va uzluksizligini isbotlashimiz kerak. Barcha $0<x<l$, $t_0<t<T$ (bu yerda t_0 qandaydir ixtiyoriy musbat sonlar uchun u_{xx} funksiyamiz mavjud ekanligini ko'rsatamiz. Shunda bizlar u_{xx} funksiyamiz Q_T to'plam ustida mavjud ekanligini isbotlay olamiz. Endi bizlar (2.5) formula bilan berilgan $u(x,t)$ funksiyamizni 2 marta x bo'yicha differensallaymiz. Shunda $u_{xx}(x,t)=$ $\sum_{n=1}^{\infty}\phi_n\sqrt{\frac{2}{l}}\left(-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\cdot e^{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2t}$ hosil bo'ladi. $e^{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2}t$ ko'paytuvchimiz bizlarga $t_0<t<T$ da mojaranta qatorining tekis yaqinlashuvchiligini beradi. Bu yerdan bizlar

quyidagi xulosaga kelamiz: yuqorida berilgan $u_{xx}(x,t)$ qator Q_T sohada tekis yaqinlashuvchiligi va mavjudligi kelib chiqadi. Endi $u_{xx}(x,t)$ ni uzluksizligini ko’rsatishimiz kerak. Bu xulosa $\sum_{n=1}^{\infty}(v_n(x,t))_{xx}$ qatorni har bir hadini uzluksizligidan kelib chiqadi.

(3) Endi $u(x,t)$ funksiyamiz [2.2] chegaraviy masalaning barcha shartlarini qanoatlantiradi, chunki uni ko’rinishini chiqarganda bu shartlardan foydalangan edik.

2. Issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasi uchun maksimum prinsipi

$Q_T=\{(x,t):(0,l)*(0,T]\}$ to’plamni qaraylik.

$\Gamma_T=\overline{Q_T}\setminus Q_T$ to’plamning chegarasi .

Bizlar $u(x,t)$ funksiyamiz o’zining max qiymatiga Γ_T chegarada erishadi, agarda u issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasini qanoatlantirsa.

Teorema 2.2 (max qiymat prinsipi): Agar $u(x,t)\in C\left[\overline{Q_T}\right]$, $u_t,u_{xx}\in C[Q_T]$ va $u_t=a^2u_{xx},Q_T$ bo’lsin, u xolda $\max\limits_{Q_T}u(x,t)=\max\limits_{\Gamma}u(x,t)$, $\min\limits_{\overline{Q_T}}u(x,t)=\min\limits_{\Gamma}u(x,t)$ bo’ladi.

Isbot. Bizlar max ga chegarada erishishini ko’rsatishimiz kerak. Teskarisi: faraz qilamiz $\max\limits_{\Gamma}u(x,t)=M$ va shunday $(x_0,t_0)\in Q_T$ mavjudki , shu nuqtada funksiyaning qiymati: $u(x_0,t_0)=M+\varepsilon,\varepsilon>0.$ Endi yangi $v(x,t)$ funksiyani quyidagicha aniqdaymiz:

$$v(x,t)=u(x,t)-\frac{\varepsilon}{2T}(t-t_0) \qquad (2.6)$$

Bundan quyidagi tenglikni xosil qilish oson: $v(x_0,t_0)=u(x_0,t_0)=M+\varepsilon.$ Bundan tashqari, $t\in[0,T]$ bo’lganda $\left|\frac{\varepsilon}{2T}(t-t_0)\right|\le\frac{\varepsilon}{2}$ bo’lganligi sababli $\max\limits_{\Gamma}v(x,t)=\max\limits_{\Gamma}\left[u(x,t)-\frac{\varepsilon}{2T}(t-t_0)\right]\le M+\frac{\varepsilon}{2}$ tengsizlik o’rinlidir.

Demak shunday $(x_1,t_1)\in Q_T$ nuqta mavjudki, bu nuqtada $v(x,t)$ funksiyamiz *max* ga erishadi. Ikki marta differensiallanuvchi funksiyaning maksimumnmng zaruriy shartiga ko’ra $\begin{cases}v_t(x_1,t_1)\ge 0\\ v_{xx}(x_1,t_1)\le 0\end{cases}$. Agar $t_1=T$ bo’lsa tengsizliklar qatiy bo’ladi.

Endi biz (2.6) tenglikni ikkala tomonini t bo’yicha 2 marta difftrentsiallashdan quyidagini xosil qilamiz: $u_t(x,t)=v_t(x,t)+\frac{\varepsilon}{2T}$

Endi x bo’yicha 2 marta differensiallab quyidagini xosil qilamiz: $u_{xx}(x,t)=v_{xx}(x,t)$. Yuqorida yozilgan tengsizliklar sistemasidan quyidagi tengsizliklarni xosil qilamiz:

$$u_t(x_1,t_1)=v_t(x,t)+\frac{\varepsilon}{2T}>0\ge a^2v_{xx}(x_1,t_1)=a^2u_{xx}(x_1,t_1)$$

bu esa issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasiga zid. Biz qarama-qarshilikga keldik. Demak bizlar noto’g’ri faraz qilgan edik. Shuning uchun $\max\limits_{Q_T}u(x,t)=\max\limits_{\Gamma}u(x,t)$ va birinchi qism isbotladi.

Teoremaning 2-qismini isbotlash uchun $u(x,t)$ funksiyadan $w(x,t)=-u(x,t)$ funksiyaga o'tish kerak. Xosil bo'lgan funksiya maksimumga erishgan nuqtalarda $u(x,t)$ funksiya minimal qiymatlarga erishadi. Teorema isbotlandi.
Chegaraviy masalalarga maksimum prinsipini qo'llasak, quyidagini xosil qilamiz.Endi

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, x\in(0,l), t\in(0,T] \\ u(0,t)=\mu_1(t), t\in[0,T] \\ u(l,t)=\mu_2(t), t\in[o,T] \\ u(x,0)=\phi(x), x\in[0,l] \end{cases}$$

Shunda $\max\limits_{Q_T} u(x,t) = max\left\{\max\limits_{t\in[0,T]}\mu_1(t), \max\limits_{t\in[0,T]}\mu_2(t), \max\limits_{x\in[0,l]}\phi(x)\right\}$

Bu tenglik oddiy fizikaviy ma'noga ega. Sterjenning temperaturasi uning chegaralaridagi va boshlang'ich vaqt momentidagi temperaturasidan baland bo'lishi mumkin emas.

3. Birinchi chegaraviy masalani yechimining yagonaligi.

Teorema 2.3(yagonalik). Bizga $u_1(x,t), u_2(x,t)$ funksiyalar

$$C\left[\overline{Q_T}\right], \quad \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \frac{\partial u_i}{\partial t} \in C\left[Q_T\right], \quad i=1,2$$

sinfdan olingan bo'lib, bu funksiyalarning ikkalasi ham [2.1] chegaraviy masalaning yechimi bo'lsa, shunda quyidagi tenglik o'rinli: $u_1(x,t)\equiv u_2(x,t)$

Isboti: Yangi $v(x,t)=u_1(x,t)-u_2(x,t)$ funksiya kiritamiz. Shunda $v\in C\left[\overline{Q_T}\right]$ $v_t, v_{xx}\in C\left[Q_T\right]$ bo'lishi aniq.

Bu funksiyamiz quyidagi masalaning yechimi bo'ladi

$$\begin{cases} v_t = a^2 u_{xx}, x\in(0,l), t\in(0,T] \\ v(0,t)=0, t\in[0,T] \\ v(l,t)=0, t\in[o,T] \\ v(x,0)=0, x\in[0,l] \end{cases}$$

$v(x,t)$ funksiya uchun max prinsipining barcha shartlari bajarilishi aniq. Demak max prinsipini qo'llaganimizda $\begin{cases} \max\limits_{Q_T} v(x,t) = \max\limits_{\Gamma} v(x,t) = 0 \\ \min\limits_{Q_T} v(x,t) = \min\limits_{\Gamma} v(x,t) = 0 \end{cases}$

$\Rightarrow v(x,t)\equiv 0 \Rightarrow u_1(x,t)\equiv u_2(x,t)$ teorema isbotlandi.

4. Birinchi chegaraviy masala turg'unligi.

Lemma 1. Bizlarga $u_1(x,t)$ va $u_2(x,t)$ funksiyalar berilgan va quyidagi shartlar bajarilsin:

$$u_i \in C\left[\overline{Q_T}\right], \quad \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2}, \frac{\partial u_i}{\partial t} \in C\left[\overline{Q_T}\right], \quad \text{i=1,2}$$

va

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u_i}{\partial t} \ge a^2 \dfrac{\partial^2 u_i}{\partial x^2}, x\in(0,l), t\in(0,T], i=1,2 \\ u_1(0,t)\ge u_2(0,t), t\in[0,T] \\ u_1(l,t)\ge u_2(0,t), t\in[o,T] \\ u_1(x,0)\ge u_2(x,0), x\in[0,l] \end{cases}$$

o'rinli bo'lsa, shunda $\overline{Q_T}$ sohada $u_1(x,t) \geq u_2(x,t)$.

Isboti:

Yana $v(x,t) = u_1(x,t) - u_2(x,t)$ bunda $v \in C\left[\overline{Q_T}\right]$, $v_t, v_{xx} \in C[Q_T]$ shu bilan birgalikda

$$\begin{cases} v_t = a^2 u_{xx}(x,t), x \in (0,l), t \in (0,T] \\ v(0,t) \geq 0, t \in [0,T] \\ v(l,t) \geq 0, t \in [o,T] \\ v(x,0) \geq 0, x \in [0,l] \end{cases}$$

o'rinli.

Endi bizlar max prinsipining 2-qismidan foydalanamiz: $\min\limits_{\overline{Q_T}} v(x,t) = \min\limits_{\Gamma} v(x,t) \geq 0$ demak xulosa $u_1(x,t) \geq u_2(x,t), (x,t) \in \overline{Q}$

Lemma isbotlandi.

Birinchi chegaraviy masalani yechimining turg'unligi.

Teorema 2.4 (turg'unlik). Bizga $u_1(x,t), u_2(x,t)$ funksiyalar berilgan va quyidagi shartlar:

$$u_i \in C\left[\overline{Q_T}\right], \quad \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2}, \frac{\partial u_i}{\partial t} \in C\left[\overline{Q}_T\right], \quad \text{i=1,2}$$

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u_i}{\partial t} = a^2 \dfrac{\partial^2 u_i}{\partial x^2}, x \in (0,l), t \in (0,T], i = 1,2 \\ u_i(0,t) = \mu_1^i(t), t \in [0,T], i = 1,2 \\ u_i(l,t) = \mu_2^i(t), t \in [o,T], i = 1,2 \\ u_i(x,0) = \phi_i(x), x \in [0,l], i = 1,2 \end{cases}$$

o'rinli bo'lsa, shunda

$$\max_{\overline{Q_T}} |u_1(x,t) - u_2(x,t)| = ma\,x \left\{ \max_{t\in[0,T]} |\mu_1^1(t) - \mu_1^2(t)|, \max_{t\in[0,T]} |\mu_2^1(t) - \mu_2^2(t)|, \max_{x\in[0,l]} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| \right\}$$

tenglik o'rinli

Isboti: $v(x,t) = u_1(x,t) - u_2(x,t)$ almashtirish olamiz .

Unda

$$v \in C\left[\overline{Q_T}\right]$$
$$v_t, v_{xx} \in C[Q_T]$$
$$v_t = a^2 u_{xx}(x,t), x \in (0,l), t \in (0,T]$$

Tengliklar o'rinli. Quyidagicha almashtirish olamiz:

$$\varepsilon = ma\,x \left\{ \max_{t\in[0,T]} |\mu_1^1(t) - \mu_1^2(t)|, \max_{t\in[0,T]} |\mu_2^1(t) - \mu_2^2(t)|, \max_{x\in[0,l]} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| \right\} \varepsilon > 0$$

Bu tenglikdan $\max\limits_{\Gamma} | \; v(x,t) \; | \leq \varepsilon$ kelib chiqadi.

Demak $-\varepsilon \leq v(x,t) \leq \varepsilon$, Γ to'g'ri chiziqda bajariladi: $(\; -\varepsilon, v(x,t) \;)$ va $(v(x,t), \varepsilon)$ fuksiyalar uchun 1-lemmani qo'llasak $-\varepsilon \leq u_1(x,t) - u_2(x,t) \leq \varepsilon$ $\bar{Q}_T$ sohada bo'ladi.

TEOREMA ISBOTLANDI.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaning echimi keltiring.

1.3.2-b. Blits-so’rov uchun savollar

1.3.2-c. Og’zaki so’rov uchun savollar

1. Mavjudlik teoremasi
2. Yagonalik teoremasi
3. Turg’unlik teoremasi

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o’z-o’zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o’zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo’shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko’rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O’zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo’shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*

8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*

9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 8. "Umumiy chegaraviy masala yechimining yagonaligi va mavjudligi. Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi "

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Umumiy chegaraviy masala yechimining yagonaligi
2. Koshi masalasining yechimining mavjudligi.
3. Koshi masalasi yechimining mavjudligi teoremaning isboti.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti masalalari:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;

- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini  beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Umumiy chegaraviy masala yechimining yagonaligi
2. Koshi masalasining yechimining mavjudligi.

4. Koshi masalasi yechimining mavjudligi teoremaning isboti.

Tayanch iboralar: chegaraviy masala, shartlar, yagonalik teoremasi, Koshi masalasi

1.3.1. Ma`ruza matni

Umumiy chegaraviy masala yechimining yagonaligi.

$$[2.3]\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t); & 0 < t \le T,\ \ 0 < x < l; \\ \alpha_1 u(0,t) - a_2 u_x(0,t) = p(t); & 0 \le t \le T; \\ \beta_1 u(l,t) + \beta_2 u_x(l,t) = q(t); & 0 \le t \le T; \\ u(x,0) = \varphi(x); & 0 \le x \le l; \end{cases}$$

Bu yerda $\alpha_1 + \alpha_2 > 0;\ \ \beta_1 + \beta_2 > 0.$-manfiy bo'lmagan o'zgarmaslar. Bu o'zgarmaslar uchun quyidagi shart bajarilishi kerak.

$$\alpha_1 + \alpha_2 > 0; \qquad \beta_1 + \beta_2 > 0;$$

Bu chegaraviy masala uchun quyidagi teorema o'rinli.

Teorema 2.5 (yagonalik). Faraz qilaylik, Q_T sohada $u_1, u_2(x,t)$ funksiyalar aniqlangan bo'lsin. Bu funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$u_i, \frac{\partial u_i}{\partial x} \in C[\overline{Q}_T], \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2}, \frac{\partial^2 u_i}{\partial t} \in C[Q_T], \qquad \text{i} = 1,2,$$

va bir xil [2.3] chegaraviy masalaning yechimlari bo'lsin.

Shunda $\overline{Q_T}$ sohada $u_1(x,t) = u_2(x,t)$

Isbot. Har doimdagidek $v(x,t) = u_1(x,1) - u_2(x,t)$, funksiyani kiritamiz. Bu funksiya uchun quyidagi shartlar bajariladi: $v, v_x \in C[\overline{Q}_T], v_t, v_{xx} \in C[Q_T]$ va $v(x,t)$ funksiyamiz quyidagi chegaraviy masalani yechimi bo'ladi:

$$\begin{cases} v_t = a^2 v_{xx} & 0 < t \le T,\ \ 0 < x < l; \\ \alpha_1 v(0,t) - a_2 v_x(0,t) = 0; & 0 \le t \le T; \\ \beta_1 v(l,t) + \beta_2 v_x(l,t) = 0; & 0 \le t \le T; \\ v(x,0) = 0; & 0 \le x \le l; \end{cases}$$

1-chi tenglamani ikkala tomonini $2v$ ko'paytiramiz $2vv_t = \frac{\partial}{\partial t}(v\text{I})$, inobatga olsak, quyidagi tenglikni xosil qilamiz:

$$\frac{\partial}{\partial_T}(v^2(x,t)) = 2a^2 v(x,t) v_{xx}(x,t).$$

Funksiyalarning tengligidan aniq integrallarning tengligi ham kelib chiqadi:

$$\int_0^l \int_0^t \frac{\partial}{\partial \tau}(v^2(x,\tau)) d\tau dx = 2a^2 \int_0^l \int_0^t v(x,\tau) v_{xx}(x,\tau) d\tau dx,$$

Bu tenglikning ung tomonida bizlar integrallash tartibini o'zgartira olalamiz:

$$\int_0^l \int_0^t \frac{\partial}{\partial \tau}(v^2(x,\tau)) d\tau dx = 2a^2 \int_0^t \left[\int_0^l v(x,\tau) v_{xx}(x,\tau) dx \right] d\tau. \quad (2.7)$$

Bochlang'ich shartdan foydalansak , quyidagi tenglikga kelamiz:

$$\int_0^l\int_0^t \frac{\partial}{\partial\tau}(v^2(x,\tau))d\tau dx = \int_0^l (v^2(x,\tau)dx.$$

(2.7) ni o'ng tomonidagi ichki integralni bo'laklab integrallaymiz:

$$\int_0^l v\mathrm{I}(x,\tau)v_{xx}(x,\tau)^v dx = v(x,\tau)v_x(x,\tau)|_0^l - \int_0^l (v_x(x,t))\mathrm{I}dx.$$

chegaraviy shartlardan foydalansak esa, ixtiyoriy $t\in[o,T]$ ychun:

$$v(l,t)v_x(l,t)=\begin{cases}0, & \text{agar}\ \beta_1=0,\ \beta_2>0;\\ 0, & \text{agar}\ \beta_1>0,\ \beta_2=0;\\ -\dfrac{\beta_1}{\beta_2}v^2(l,t), & \text{agar}\ \beta_1>0,\ \beta_2>0.\end{cases},$$

$$v(0,t)v_x(0,t)=\begin{cases}0, & \text{agar}\ \alpha_1=0,\ \alpha_2>0;\\ 0, & \text{agar}\ \alpha_1>0,\ \alpha_2=0;\\ -\dfrac{\alpha_1}{\alpha_2}v^2(0,t), & \text{agar}\ \alpha_1>0,\ \alpha_2>0.\end{cases},$$

Bundan xulosa, agar belgilash kiritsak:

$P(\tau)=v(x,\tau)v_x(x,\tau)|_0^l=v(l,\tau)v_x(l,\tau)-v(0,\tau)v_x(0,\tau),$ shunda $P(\tau)\le 0,\forall\tau\in[0;T].$

demak[2.7] tenglikni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$\int_0^l v^2(x,t)dx - 2a^2\int_0^t P(\tau)d\tau + 2a^2\int_0^t\int_0^l v_x^2(x,\tau)dx\,d\tau = 0$$

Birinchi va uchinchi yig'indilar manfiy emas. Ikkinchi integralning manfiy emasligi, $P(\tau)$ funksiyaning musbat emasligidan kelib chiqadi. Demak, bizlar uchta manfiy bo'lmagan funksiyaning yig'indisi 0 ga teng ekanligini ko'rsatdik. Demak har bittasi 0 ga teng deb xulosa qilamiz. Teoremani isbotining boshlanishida bizlar $v(x,t)$ funksiyamizning uzluksiz ekanligini ko'rsatgan edik. Ikkinchi tomondan $\int_0^l v^2(x,t)dx=0$ teng. Demak $v(x,t)\equiv 0$.

Xulosa qilib aytganda: $u_2(x,t)\equiv u_1(x,t)$. Teorema isbotlandi.

Koshi masalaning yechimining mavjudligi.

Bir jinsli Koshi masalasini qaraymiz:

$$[2.4]\begin{cases}(1) \quad u_t=a^2u_{xx}, & -\infty<\mathrm{x}<+\infty,\quad 0<\mathrm{t}<\mathrm{T};\\ (2)\quad u(x,0)=\varphi(x), & -\infty<x<+\infty.\end{cases}$$

[2.4] 1-chegaraviy masalani yechimini topayotganimizdek bu yerda ham oldin malum bir almashtirishlarni o'tkazamiz. So'ngra esa hosil bo'lgan funksiya yechim ekanligini ko'rsatamiz.

$$v(x,t)=X(x)T(t).$$

$v(x,t)$ funksiyadan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini qanoatlantirishini talab qilamiz:

$$T'(t)X(x)=a^2X''(x)T(t).$$

Ikkala tomonini $a^2X(x)T(t)$ ga bo'lamiz, shunda hosil bo'lgan tengliklar quyidagicha:

$$\frac{X''(x)}{X(x)}=\frac{T'(t)}{a^2T(t)}=-\lambda^2;$$

Bu yerda $\lambda=const>0$ ikkita tenglama xosil bo'ladi:

$$X''(x)+\lambda^2 X(x)=0; \ (2.8)$$
$$T'(t)+a^2\lambda^2 T(t)=0. \ (2.9)$$

$X(x)=e^{i\lambda x}$ funksiya (2.8), tenglamaning yechimi bo'ladi. Xuddi shunday qilib $T(t)=e^{-a^2\lambda^2 t}$ funksiyamiz (2.9) tenglamaning yechimi bo'ladi. Demak,
$v(x,t)=e^{i\lambda x-a|\lambda|t}$ birinchi tenglamaning yechimi bo'ladi.
$u_\lambda=A(\lambda)e^{i\lambda x-a|\lambda|t}$ funksiya ham yechim bo'ladi (A (λ)-qandaydir funksiya)
Endi yakuniy funksiya quyidagicha aniqlanadi

$$u(x,t)=\int_{-\infty}^{+\infty}A(\lambda)e^{i\lambda x-a^2\lambda^2 t}d\lambda$$

boshlang'ich shartlani qanoatlantirishini talab qilamiz

$$u(x,0)=\varphi(x)=\int_{-\infty}^{+\infty}A(\lambda)e^{i\lambda x}d\lambda$$

Endi, Fur'ye almashtirishtirishlar nazariyasinidan kelib chiqgan holda $A(\lambda)$ quydagicha topamiz

$$A(\lambda)=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}e^{-i\lambda s}\varphi(s)ds\ .$$

Shunday qilib bizlar $u(x,t)$:funksiya uchun quydagi ko'rinishini xosil qilamiz

$$u(x,t)=\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{1}{2\pi}\left[\int_{-\infty}^{+\infty}e^{-i\lambda s}\varphi(s)ds\right]e^{i\lambda x-a|\lambda|t}d\lambda=\int_{-\infty}^{+\infty}\left[\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{1}{2\pi}e^{i\lambda(x-s)-a|\lambda|t}d\lambda\right]\varphi(s)ds.$$

$u(x,t)$: uchun yechim shunday ko'rinishga ega:

$$u(x,t)=\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\}\varphi(s)ds. \quad (2.10)$$

$$G(x,s,t)=\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\},$$

belgilash kiritasak:

$$u(x,t)=\int_{-\infty}^{+\infty}G(x,s,t)\varphi(s)ds.$$

$G(x,s,t)$ funksiyamiz issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini s-fiksirlangan bo'lganda qanoatlantirishini ko'rsatamiz:

$$G_x(x,s,t)=\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\}\left(-\frac{2(x-s)}{4a^2t}\right);$$

$$G_t(x,s,t)=\frac{1}{2\sqrt{4\pi a^2 t^{\frac{3}{2}}}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\}+\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)}{4a^2t}\right\}\frac{(x-s)^2}{4a^2t^2}$$

$$G_{xx}(x,s,t)=\frac{1}{\sqrt{4\pi^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\}\frac{(x-s)^2}{4a^x t^2}+\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\exp\left\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\right\}(-\frac{2}{4a^2t})$$

$G(x,s,t)=a^2G_{xx}(x,s,t)$ ekanligini tekshirish oson.

Endi bizlar xosil bo'lgan funksiyamizni qandaydir boshlangich shartlarda mavjud ekanligini ko'rishimiz kerak.

3. Koshi masalasi yechimining mavjudlik teoremaning isboti.

Teorem 2.6 (mavjudlik teoremasi). [2.4] Koshi masalaning boshlang'ich shartlarini $\varphi(x)$ yordamidi aniqlangan bo'lsin va

$$\varphi(x) \in C(R), |\varphi(x)| \le M, \forall x \in R.$$

Shunda 2.10 formula bilan aniqlangan $u(x,t)$ funksiya $x \in R, t > 0$ bo'lganda uzluksiz bo'ladi, u_t, u_{xx} uzluksiz xosilalarga ega, agarda $x \in R, t > 0$ bo'lsa, va issiqliq o'tkazuvchanlik tenglamani qanoatlantiradi. $x \in R, t > 0$ va $\forall x_0 \in R \lim\limits_{\substack{t \to 0+ \\ x \to x_0}} u(x,t) = \varphi(x_0)$ lar uchun

Izox: Teoremaning oxirgi sharti quyidagi ma'noga ega.

$$u(x,t) = \begin{cases} \int\limits_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\} \varphi(s) ds, t > 0; \\ \varphi(x), t = 0. \end{cases}$$

$$(x,t) : x \in R, t \ge 0$$

da uzluksiz ekanligini oxirgi shart bildiradi.

ISBOT.

1.Avvalombor $u(x,t)$ funksiyamiz $x \in R, t > 0$ uzluksiz ekanligini ko'rsatamiz. Buning uchun funksiyamiz $\Pi_{L,t_0 T} = \{(x,t) : -L < x < L; t_0 < t < T\}$ to'g'ri to'rtburchakda uzluksiz ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Bu yerda L, t_0, T - musbat konstantalar.

Integral ostidagi funksiya $\Pi_{L,t_0 T}$ to'g'ri to'rtburchakda uzluksiz $u(x,t)$ funksiya $\Pi_{L,t_0 T}$ da uzluksiz ekanligini isbotlash uchun 2.10 formulada bo'lgan integral tekis yaqinlashuvchi ekanligini ko'rsatishimiz kerak.

Tekis yaqinlashishining Veyershtrass alomatidan foydalanish uchun shunday $F(s)$ funkyiyani ko'rish kerakki, bu funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\begin{cases} |G(x,s,t)| \le F(s) \forall x, t \in \Pi_{L,t_0,T}; \\ \int\limits_{-\infty}^{+\infty} F(s) ds \end{cases}$$

integral yaqinlashuvchi. Buning uchun xar xil s-lar uchun exponentaning darajasini baxolash kerak.

Agar $s \le -2L$ $\frac{(x-s)^2}{t} \ge \frac{(L+s)^2}{T} \Rightarrow -\frac{(x-s)^2}{4a^2 t} \ge \frac{(L+s)^2}{4a^2 T}.$

Agar $|s| \le 2L$ $-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t} \le 0.$ Agar $s \ge 2L$

$$\frac{(x-s)^2}{t} \ge \frac{(L-s)^2}{T} \Rightarrow -\frac{(x-s)^2}{4a^2 t} \le -\frac{(L-s)^2}{4a^2 T}.$$

Endi $t_0 \le t \le T$ bo'lsin. Shunda 2.10 integralda berilgan birinchi ko'paytiruvchi uchun quyidagi tengsizlikni yozish mumkin:

$$\frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \le \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t_0}}$$

demak

$$|G(x,s,t)| \le F(s) = \begin{cases} \dfrac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t_0}}, |s| \le 2L; \\ \dfrac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t_0}} \exp\{-\dfrac{(L-s)^2}{4a^2T} + \dfrac{L^2}{4a^2T}\}, s \ge 2L; \\ \dfrac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t_0}} \exp\{-\dfrac{(L+s)^2}{4a^2T} + \dfrac{L^2}{4a^2T}\}, s \le 2L; \end{cases}$$

bu yerda $\frac{L^2}{4a^2T}$ bu funksiyani daraja ko'rsatgichga kushib yozganimizning sababi quyidagicha. $F(s)$ funksiyamiz uzluksiz bo'lishi uchun qo'shgan funksiyamiz baxolashga ta'sir qilmaydi. $\int\limits_{-\infty}^{+\infty} F(s)ds$ yaqinlashuvchi to'g'risidagi dalolatni eksponent beradi. Shunday qilib $|\varphi(x)|$ funksiyaning chegaralanganligini xisobga olib 2.10 formulada bo'lgan integral ostidagi ifodaning modulini $MF(s)$ baxolay olamiz.

Bu funksiyadan olingan integral esa yaqinlashuvchi. Demak Veyershtrass alomatiga ko'ra 2.10 formulada berilgan integral tekis yaqinlashuvchi. Ya'ni $u(x,t)$ funksiyamiz Π_{L,t_0T} da to'g'ri to'rtburchakda uzluksiz ekanligini isbotladik.

2. Endi bizlar yuqorida ko'rsatilgan Π_{L,t_0T} to'g'ri to'rtburchak ustida u_{xx} funksiyamiz uzluksiz ekanligini ko'rsatishimiz kerak. $G(x,s,t)$ funksiyamizning ko'rinishidan foydalanib quyidagi tenglikka kelamiz.

$$|G_{xx}(x,s,t)| = \left| \frac{(x-s)^2}{4a^4t^2} G(x,s,t) - \frac{1}{2a^2t} G(x,s,t) \right| \le$$

$$\le F(s)\left[\frac{1}{2a^2t_0} + \frac{L^2+2Ls+s^2}{4a^2t_0^2} \right] = F_1(s).$$

qavs ichida yozilgan 2-hadning suratidagi yozilgan ko'phad $F(s)$ funksiyaning integraliga ta'sir qilmaydi. Shunda quyidagi ifodani xosil qilamiz.

$$u_{xx}(x,t) = \int\limits_{-\infty}^{+\infty} G_{xx}(x,s,t)\varphi(s)ds \le$$

$$\le \int\limits_{-\infty}^{+\infty} |G_{xx}(x,s,t)||\varphi(s)|ds \le M \int\limits_{-\infty}^{+\infty} F_1(s)ds < \infty$$

Demak xosiladan olingan integral tekis yaqinlashuvchi. Xulosa qilib aytganda $u_{xx}(t)$ funksiyamiz xam uzluksiz. Xuddi shunday qilib u_t funksiyamiz xam uzluksiz funksiya ekanligini ko'rishimiz mumkin.

3. $G(x,s,t)$ funksiyamiz issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamani qanoatlantiruvchi funksiya ekanligini yuqorida ko'rsatgan edik. Bu yerda

$$u_t(x,t) = \int\limits_{-\infty}^{+\infty} G_t(x,s,t)\varphi(s)ds = a^2 u_{xx}(x,t) = a^2 \int\limits_{-\infty}^{+\infty} G_{xx}(x,s,t)\varphi(s)ds$$

yani $u(x,t)$ funksiyamiz issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamaga mos keladi.

4. Demak

$$\forall x_0 \in R \lim_{\substack{t\to 0+\\ x\to x_0}} u(x,t) = \varphi(x_0)$$

$$\forall x_0 \forall \varepsilon > 0 \exists \delta : \forall x,t : t, |x - x_0| < \delta \Rightarrow |u(x,t) - \varphi(x_0)| < \varepsilon$$

Endi bizlar x_0 nuqtani va ixtiyoriy $\varepsilon>0$ ni fiksirlaymiz. $\varphi(x)$ funksiyamiz uzluksizligidan

$$\exists \Delta : |x - x_0| < \Delta \Rightarrow |\varphi(x) - \varphi(x_0)| < \frac{\varepsilon}{4}$$

kelib chiqadi.

Endi $|u(x,t) - \varphi(x_0)|$ qaraymiz:

$$|u(x,t) - \varphi(x_0)| = \left|\int_{-\infty}^{+\infty} G_t(x,s,t)\varphi(s)ds - \varphi(x_0)\right| \le$$

$$\le \left|\int_{-\infty}^{x_0-\Delta} G\ (x,s,t)\varphi(s)ds\right| + \left|\int_{x_0+\Delta}^{+\infty} G\ (x,s,t)\varphi(s)ds\right| +$$

$$\left|\int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)(\varphi(s) - \varphi(x_0))ds\right| + \left|\int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)\varphi(x_0)ds - \varphi(x_0)\right|$$

J_1, J_2, J_3 *va* J_4*–lai* bilan integrallarni belgilasak, quyidagilarni xosil qilamiz.

Bizlar J_3 ifodani baxolaymiz. Δ oralikda $|\varphi(x) - \varphi(x_0)| < \frac{\varepsilon}{4}$- bo'lganligi sababli va $\int_{-\infty}^{+\infty} Gds = 1$ bo'lganligi sababli quyidagini xosil qilamiz:

$$|J_3| = \left| \int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)(\varphi(s) - \varphi(x_0))ds \right| \le$$

$$\le \frac{\varepsilon}{4} \int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)ds \le \frac{\varepsilon}{4} \int_{-\infty}^{+\infty} G\ (x,s,t)ds$$

Bundan $|J_3| \le \frac{\varepsilon}{4}$

Endi $|x - x_0| < \delta_1 < \frac{\Delta}{2}$ talab qilamiz. Kelajakda olingan baxolar faqat shunaqa x−lar uchun.

$|J_4|$: baxolaymiz:

$$|J_4| = \left| \int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)\varphi(x_0)ds - \varphi(x_0)\ \right| \le$$

$$\le |\varphi(x_0)| \left| \int_{x_0-\Delta}^{x_0+\Delta} G\ (x,s,t)ds - 1 \right| =$$

$$= \{z \leftrightarrow \frac{s-x}{\sqrt{4a^2t}}\} == |\varphi(x_0)| \left| \int_{\frac{x_0-\Delta-x}{\sqrt{4a^2t}}}^{\frac{x_0+\Delta-x}{\sqrt{4a^2t}}} \frac{1}{\sqrt{\pi}} e^{-z^2} dz - 1\ \right|$$

Endi bizlar **t** ni kamaytirsak shunda integralning quyidagi chegarasi $-\infty$ ga, yuqoridagi chegarasiga $+\infty$ intiladi.
Shuning uchun,

$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{\pi}} e^{-z^2} dz = 1$ bo'lganligi sababli,

$$\exists \delta_2 : t < \delta_2 \Rightarrow |J_4| \le |\varphi(x_0)| \left| \int_{\frac{x_0-\Delta-x}{\sqrt{4a^2t}}}^{\frac{x_0+\Delta-x}{\sqrt{4a^2t}}} \frac{1}{\sqrt{\pi}} e^{-z^2} dz - 1 \right| \le \frac{\varepsilon}{4}$$

o'rinli

Endi $|J_1|$ baxolaymiz.

$$|J_1| = \left| \int_{-\infty}^{x_0-\Delta} G\ (x,s,t)\varphi(s)ds\ \right| \le \left| \int_{-\infty}^{x_0-\Delta} \frac{1}{4\pi a^2 t} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2t}\} \right.$$

$$\left. Mds\ \right| = \{z \leftrightarrow \frac{-(x-s)}{\sqrt{4\pi a^2 t}}\} = \frac{M}{\sqrt{\pi}} \int_{-\infty}^{\frac{-x+x_0-\Delta}{\sqrt{4a^2t}}} e^{-z^2} dz$$

Demak shunday δ_3 mavjudki $\forall t < \delta_3$ bo'lganda $|J_1| \le \frac{\varepsilon}{4}$ bo'ladi.

Xuddi shunday $|J_2|$ baxolash mumkin.

Shunday qilib

$$|u(x,t) - \varphi(x_0)| \le |J_1| + |J_2| + |J_3| + |J_4| \le \varepsilon \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \forall x_0 \forall \varepsilon > 0 \exists \delta = \min(\delta_1, \delta_2, \delta_3) : \forall x, t : t, |x - x_0| < \delta$$

$$|u(x,t) - \varphi(x_0)| < \varepsilon$$

Teorema to'liq isbotlandi.

Natija 1: Agarda teoremaning barcha shartlari $(\varphi(x) \in C(R), |\varphi(x)| \le M)$ bajarilsa, demak biz $u(x,t)$ funksiyamiz chegaralangan ekanligini xulosa qilishimiz mumkin.

$$|u(x,t)| = \int_{-\infty}^{+\infty} |G(x,s,t)||\varphi(s)|ds \le M \int_{-\infty}^{+\infty} G(x,s,t)ds = M.$$

Natija 2: Xuddi shunday qilib $(R \times R^{+})$ fazoda $u(x,t)$ funksiyamiz cheksiz uzluksiz ekanligini xosil qilishimiz mumkin.

$$\frac{\partial^p u}{\partial x^k \partial t^m}(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{\partial^p G}{\partial x^k \partial t^m}(x,s,t)\varphi(s)ds, \qquad (k+m=p)$$

bu integral esa tekis yaqinlashuvchi bulib, buni teorema isbotidagi tasdiklar orkali ko'rsatish mumkin.

Natija 3: Koshi masalasidagi shartlarni kabul qilib, biz issiqlik tarkalishining "cheksiz" tezligiga ega bo'lamiz.

Faraz qilaylik $\varphi(x) = u(x,o)$ uzluksiz funksiyamiz $[a;b]$ oralikdan boshka barcha joyda nolga teng bo'lsin. U xolda quyidagiga ega bo'lamiz.

$$u(x,t) = \int_a^b G(x,s,t)\varphi(s)ds > 0 \qquad \forall t > 0, \forall x \in R$$

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Umumiy chegaraviy masalaning qo'yilishi
2. Yagonalik teoremasi
3. Koshi masalasi

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1.3.2-c. Og'zaki so'rov uchun savollar

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xaraktyerdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. ekranga tayanch materiallarni ko'rsatish(slaydlar)

- Prezentatsiya

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. *Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamolari. T., «O'zbekistan», 2002, 448 b.*
2. *Mixlin S.G. Kurs matematicheskoy fiziki. M, 1968,*
3. *Sobole» SL. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1966.*
4. *Bisadzs L.V. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1976.*
5. *Bisadze A.V., Kalinichenko D.F. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1977.*

Qo'shimcha

1. *Tixonov A.P., Samarskiy A.A. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1968.*
2. *Koshlyakov B.C., Glipsr E.B., Smirnov M.M. Osnovnыye differensialnыye uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1962.*
3. *Vladimirov B.C. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1981.*
4. *Polojii G.11. Uravneniya matematicheskoy fiziki. M. 1964.*
5. *Petrovskiy I.G. Leksii ob uravneniyax s chastnыmi proizvodnыmi. M., 1961.*
6. *Mixlnn S.G. Leksii po lineynыm integralnыm uravneniyam. M. 1959.*
7. *Smirnov M.M. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki.*
8. *Budak B.M., Samarskiy A.A., Tixonov A.N. Sbornik zadach po matematicheskoy fizike. M. 1972.*
9. *Vladimirov 13.S, Mixaylov V.P. i dr. Sbornik zadach po uravneniyam matematicheskoy fiziki. M. 1974.*

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvo'ringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 9. *Yarim to’g’ri chiziqda issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasi uchun birinchi va ikkinchi chegaraviy masalaning yechimini mavjudligi. Birinchi chegaraviy masala uchun Grin funksiyasi*

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Matematik fizika tenglamalari

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O’quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Koshi masalasi yechimining yagonaligi.
2. *Yarim to’g’ri chiziqda qo’ydagi birinchi chegaraviy masala.*
3. *Yarim to’g’ri chiziqda qo’ydagi ikkinchi chegaraviy masala.*
4. *Birinchi chegaraviy masala uchun Grin funksiyasi*
5. *Grin funksiyasining xossasalarii*

O’quv mashg’uloti maqsadi:

O’quv fani to’g’risida umumiy ta`surotlar berish, Matematik fizika tenglamalari va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O’quv mashg’uloti masalalari:

- *O’rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Matematik fizika tenglamalarining terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Matematik fizika tenglamalarini matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Matematik fizika tenglamalari doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini  beradi, Matematik fizika tenglamalari fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

- **1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):**

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib

borishadi; “Insert” usuli bilan belgilan o’qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o’zaro;

- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so’rov blits-so’rov; aqliy hujum, “Insert” texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- *O’qituvchining faoliyati:* mavzu bo’yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o’tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o’zaro baholashning natijalarini chiqarish; o’quv mashg’ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko’rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo’llash; o’zaro baholashni o’tkazish, yo’l qo’yilgan hatolar bo’yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O’quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Koshi masalasi yechimining yagonaligi.
2. *Yarim to’g’ri chiziqda qo’ydagi birinchi chegaraviy masala.*
3. *Yarim to’g’ri chiziqda qo’ydagi ikkinchi chegaraviy masala.*
4. *Birinchi chegaraviy masala uchun Grin funksiyasi*
5. *Grin funksiyasining xossasalarii*

***Tayanch iboralar**:* Koshi masalasi, mavjudlik teoremasi, yagonalik teoremasi. *issiqlik o’tkazuvchanlik tenglamasi , birinchi chegaraviy masala, Koshi masalasi, ikkinchi chegaraviy masal, Grin funksiyasi*

1.3.1. Ma`ruza matni

1. Koshi masalasi yechimining yagonaligi.

Yuqorida bizlar chegaralangan va uzluksiz boshlangich shartlar uchun Koshi masalaning yechimini mavjudligini isbotlagan edik. Endi yuqoridagi shartlarda bizlar yagonalik teoremasini isbotlaymiz.

Teorema 2.7 (yagonalik). Koshi masalasi berilgan bo'lsin. Faraz qilaylik $(R\times R^{+})$ fazoda bizlarga 2 ta uzluksiz $u_1,u_2(x,t)$ funksiyalar berilgan bo'lsin va ular **[2.4]** masalaning yechimlari bulib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsin.

$$\left|u_i(x,t)\right| \le M,\ \forall (x,t)\in R\times \overline{R}^{+};\qquad i=1,2$$
$$\frac{\partial u_i}{\partial t},\frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2}\in C(R\times R^{+})$$

shunda

$$u_1(x,t)=u_{21}(x,t)\forall(x,t)\in(R\times\overline{R}^{+})$$

__Isbot:__ Yangi funksiya kiritamiz. $u(x,t)=u_1(x,t)-u_2(x,t)$

Aniqki bu funksiya xam uzluksiz funksiya bo'ladi va quyidagi shartlarni qanoatlantiradi.

$$\begin{cases} u_t, u_{xx}\in C(R\times \overline{R}^{+}); \\ u_t = a^2 u_{xx}; \\ u(x,0)=0,\forall x\in R \\ \left|u(x,t)\right|\le 2M,\ \forall (x,t)\in(R\times\overline{R}^{+}); \end{cases}$$

Teoremani isbotlash uchun $u(x,t)$ funksiyamiz aynan nolga teng ekanligini isbotlashimiz kerak. Buning uchun qandaydir ixtiyoriy (x_0,t_0) nuqtada nolga teng ekanligini ko'rsatish kerak. Buning uchun 2 ta konstanta **L** va **T** olamiz. Ularni shunday qilib olish kerakki ular quyidagi to'g'rito'rtburchakka qarashli bo'lsin.

Bu yerda $\Pi_{L,T}$ - to'g'rito'rtburchakning chegarasi bo'lsin.

$$\Pi_{L,T}=\{(x,t):|x|\le L, 0\le t\le T\},$$
$$v_t^L, v_{xx}^L\in C[\Pi_{L,T}];$$
$$v_t^L=a^2v_{xx}^L\in C[\Pi_{L,T}];\ v^L(x,t)=\frac{4M}{L^2}\left(\frac{x^2}{2}+a^2t\right)$$

Yuqorida bizlar $u(x,t)$ funksiya uchun baxolarni olgan edik. Shundan xulosa qilib aytganda $\Pi_{L,T}$ chegara ustida $v^L(x,t)\ge u(x,t)$ bo'ladi.

Endi maksimum prinsipidan foydalansak,

$$v^L(x,t)\ge u(x,t)\forall(x,t)\in\Pi_{L,T.}$$
$$-v^L(x,t)\le u(x,t)\forall(x,t)\in\Pi_{L,T.}$$

Bundan

$$\left|u(x_0,t_0)\right|\le v^L(x_0,t_0)=\frac{4M}{L^2}\left(\frac{x_0^2}{2}+a^2t_0\right)$$

Endi **L** n cheksizlikka intiltirsak quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\left|u(x_0,t_0)\right|\le v^{\infty}(x_0,t_0)=0$$

Teorema isbotlandi.

2. Yarim to'g'ri chiziqda qo'ydagi birinchi chegaraviy masala.

Yarim to'g'ri chiziqda qo'ydagi birinchi chegaraviy masalani ko'rib chiqamiz:

$$[2.5]\ \begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0, t > 0; \\ u(0,t) = 0, & t \geq 0; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \geq 0. \end{cases}$$

bu yerda $\phi(x) = 0$.

Butun Haqiqiy o'qda boshlang'ich shartni beruvchi $\phi(x)$ *funksiyani toq qilib davom ettirib yechimni topamiz:*

$$\Phi(x) = \begin{cases} \phi(x), & x \geq 0; \\ -\phi(-x), & x < 0. \end{cases}$$

Mos ravishda qo'ydagi Koshi masalasini ko'rib chiqamiz:

$$[2.6]\ \begin{cases} U_{tt} = a^2 U_{xx}, & -\infty < x < +\infty, t > 0; \\ U(0,t) = 0, & t \geq 0; \\ U(x,0) = \Phi(x), & -\infty < x < +\infty. \end{cases}$$

Uning yechimi bizga malum:

$$U(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds.$$

Aytaylik $(x,t) \in (\overline{R}^+ \times \overline{R}^+)$ *da* $u(x,t) = U(x,t)$. *Bu funksiya [2.5] ning yechimi ekanligini ko'rsatamiz . Koshi masalasining qo'yilishiga ko'ra ,*

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, & x > 0, t > 0; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \geq 0. \end{cases}$$

ekanligi malum. Chegaraviy shartni bajarilishini tekshiramiz:

$$u(0,t) = U(0,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{s^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds.$$

Integiral ostida juft va toq funksiyalarning ko'paytmasi turibdi , shuning uchun u nolga teng . Chegaravi shart bajarilayapdi. endi yechim uchun to'liq formulani olamiz:

$$u(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds =$$

$$= \int_{-\infty}^{0} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}(-\phi(-s))ds + \int_{0}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\phi(s)ds =$$

$$= -\int_{0}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x+s)^2}{4a^2 t}\}\phi(s)ds + \int_{0}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\phi(s)ds =$$

$$= \int_{0}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \left[\exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\} - \exp\{-\frac{(x+s)^2}{4a^2 t}\} \right] \phi(s)ds.$$

Demak,

$$u(x,t) = \int_{0}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \left[\exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\} - \exp\{-\frac{(x+s)^2}{4a^2 t}\} \right] \phi(s)ds. \quad (2.11)$$

bu yarim to'g'ri chiziqda birinchi chegaraviy masalaning yechimi bo'ladi.

3. Yarim to'g'ri chiziqda ikkinchi chegaraviy masala

Yarim to'gri chiziqda ikkinchi chegaraviy masala qo'ydagi ko'rinishga ega:

$$[2.7]\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0, t > 0; \\ u_x(0,t) = 0, & t \ge 0; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \ge 0. \end{cases}$$

Yana yechimni topish uchun boshlang'ich shartni beruvchi funksiyani endi juft qilib davom ettiramiz:

$$\Phi(x) = \begin{cases} \phi(x), & x \ge 0; \\ \phi(-x), & x < 0. \end{cases}$$

Boshlang'ich shartni o'zgartirib , quyidagi koshi masalasini olamiz:

$$\begin{cases} U_t = a^2 U_{xx}, & -\infty < x < +\infty, t > 0; \\ U(0,t) = 0, & t \ge 0; \\ U(x,0) = \Phi(x), & -\infty < x < +\infty. \end{cases}$$

Xuddi shunday uning yechimi

$$U(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds$$ *funksiya bo'ladi.*

Aytaylik $(x,t) \in (\overline{R}^+ \times \overline{R}^+)$ *da* $u(x,t) = U(x,t)$ *bo'lsin.*

Yana

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, & x > 0, t > 0; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \ge 0. \end{cases}$$

ekanligi aniq.

Chegaraviy masalaning bajarilishini tekshiramiz:

$$u_x(x,t) = U_x(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \left(-\frac{(x-s)}{2a^2 t}\right) \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds \Rightarrow$$

$$u_x(0,t) = U_x(0,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \left(\frac{s}{2a^2 t}\right) \exp\{-\frac{s^2}{4a^2 t}\}\Phi(s)ds \quad \forall t \ge 0.$$

Hosil bo'lgan integral ostida 2 ta juft va bitta toq funksiyaning ko'paytmas turibdi, demak u nolga aylanadi. Chegaraviy shart bajarilmoqda. [2.7] ning yechimi uchun qo'ydagi formilani xosil qilamiz:

$$u(x,t) = \int_0^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x+s)^2}{4a^2 t}\}\phi(s)ds + \int_{-\infty}^{0} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\}\phi(-s)ds =$$

$$= \int_0^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \left[\exp\{-\frac{(x-s)^2}{4a^2 t}\} + \exp\{-\frac{(x+s)^2}{4a^2 t}\}\right]\phi(s)ds.$$

Bu yarim to'g'ri chiziqda 2-chegaraviy masalaning yechimidir.

4. Birinchi chegaraviy masala uchun Grin funksiyasi.

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, & 0 < x < l, t > 0; \\ u(0,t) = 0, & 0 \le t \le T; \\ u(l,t) = 0, & 0 \le t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & 0 \le x \le l. \end{cases}$$

Malumki, uning yechimi qo'ydagi ko'rinishga ega:

$$u(x,l) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2}{l} \left(\int_0^l \phi(s) \sin(\frac{\pi n}{l} s) ds \right) \sin(\frac{\pi n}{l} x) \exp\{-a^2 (\frac{\pi n}{l})^2 t\}.$$

Uni Koshi masalasini yechishda qo'llaganimizday boshqacha ko'rinishda ifodalashimiz mumkin:

$$u(x,t)=\int_0^l G(x,s,t)\phi(s)ds,$$

$$G(x,s,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\sin(\frac{\pi n}{l}s)\sin(\frac{\pi n}{l}x)\exp\{-a^2(\frac{\pi n}{l})^2 t\}. \quad (2.12)$$

-bu birinchi chegaraviy masala uchin Grin funksiyasidir .

5. Grin funksiyasining xossalari

***1-xossa**.* $G(x,s,t)=G(s,x,t).$

Bu xossa Grin funksiyasining tarifidan kelib chiqadi.

***2-xossa**.* $G(x,s,t)\in C^{\infty}(R\times R\times R^{+}).$

Isboti: (x,s,t) *nuqtada uzluksizligini isbotlaymiz. Buning uchun ,* $t>t_0$ *da Veyershtrass alomatiga ko'ra tekis yaqinlashuvchi ekanligini aytib o'tish yetarli, chunki uni eksponentalardan iborat yaqinlashivchi qator bilan chegaralash mumkin:*

$$|G(x,s,t)|\le\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\exp\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t_0\}.$$

Differensiallanuvchiligini isbotlash uchun, Hosilalardan iborat qator tekis yaqinlashishini takidlash yetarli, chunki differinsiallash natijasida yani ko'paytuvchilar sifatida faqatgina palinomlar Hosil bo'ladi . Ular Halaqit bermaydi, ekisponenta baribir yaqinlashuvchilikni taminlaydi.

3-xossa.
$$\begin{cases} G_t=a^2G_{xx}; \\ G_t=a^2G_{ss}; \end{cases}$$

*Birinchi tenglamani (2.12) formulani differensiallash orqali, ikkinchi tenglamani esa **1-xossa**dagi tenglamani differensiallash orqali tekshirish mumkin.*

4-xossa. $G(x,s,t)\ge 0, \qquad x,s\in[0;l], \quad t>0.$

Isboti: *Ixtiyoriy* (x,s_0,t) *nuqta uchun isbotlaymiz.* $\phi_h(x)$ *funksiya* $(s_0-h;s_0+h)$ *intervalda qandaydir* $\widetilde{\phi}(x)$ *musbat funksiyaga, intervaldan tashqarisida esa 0 ga teng bo'lsin:*

$$\phi_h(x)=\begin{cases}\widetilde{\phi}(x)>0 & ,x\in(s_0-h;s_0+h); \\ 0, & x\in[0,l]\setminus(s_0-h,s_0+h).\end{cases}$$

Bundan tashqari , quydagi shartlarni qanoatlantirsin :

$$\begin{cases}\phi_h(x)\in C[0;l]; \\ \int_0^l\phi_h(x)dx=1.\end{cases}$$

va [2.2] turdagi qandaydir chegaraviy masala uchun boshlang'ich shartni bersin. U Holda bu chegaraviy masalaning yechimi bo'lgan $u_h(x,t)$ *funksiya quyidagi formila bilan anioqlanadi:*

$$u_h(x,t)=\int_0^l G(x,s,t)\phi_h(x)ds=\int_{s_0-h}^{s_0+h}G(x,s,t)\phi_h(s)ds=$$

$$=G(x,\theta,t)\int_{s_0-h}^{s_0+h}\phi_h(s)ds=G(x,\theta,t),\theta\in(s_0-h;s_0+h).\Rightarrow$$

$$\Rightarrow \lim_{h\to 0} G(x,\theta,t) = \lim_{h\to 0} u_h(x,t) \Rightarrow$$

$$G(x,s_0,t) = \lim_{h\to 0} u_h(x,t). \quad (2.12)$$

$u_h(0,t) \equiv 0 \equiv u_h(l,t)$: *bo'lgan xolda maksimal qiymat prinsipini qo'llaymiz:*

$$\min_{\substack{x\in[0;l]\\ t\in[0,T]}} u_h(x,t) = \min\{0,0,\min_{x\in[0;l]} \phi(x)\} = 0.$$

$U_{tt} = a^2 U_{xx} + f(x,t), \quad U(x,0) = \varphi(x), \quad U_t(x,0) = \psi(x), \quad U_x(0,t) - HU(0,t) = 0, \quad U(l,t) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \qquad X'(0) - HX(0) = 0, \ X(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \qquad X(0) = X'(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X(0) - HX'(0) = 0, \quad X(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X'(0) = X'(l) = 0$

87) Quyidagi aralash masalaga mos keluvchi Shturm-Liuvill masalasini kursating

$U_{tt} = a^2 U_{xx} + f(x,t), \quad U(x,0) = 0, \quad U_t(x,0) = 1, \; U(0,t) = 0, \; U_x(l,t) + HU(l,t) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X(0) = 0, X'(l) + HX(l) = 0.$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X(0) = X'(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X(0) - HX'(0) = 0, \quad X(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X'(0) = X'(l) = 0$

88) Chegaraviy sharti uchunchi tur bulgan quyidagi aralash masalaga mos Shturm-Liuvill masalasini kursating:

$U_{tt} = a^2 U_{xx}, \quad U(x,0) = \varphi(x), \quad U_t(x,0) = \psi(x), \; U_x(0,t) - HU(0,t) = 0, \; U_x(l,t) + HU(l,t) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X'(0) - HX(0) = 0, \; X'(l) - HX(l) = 0 \; .$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X(0) = X(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X'(0) = 0, \quad X'(l) = 0$

$X'' + \lambda^2 X = 0, \quad X'(0) = X(l) = 0$

89) $U_{tt} = a^2 U_{xx}, \quad U(x,0) = 0, \quad U_t(x,0) = x, \; U(0,t) = 0, \; U(l,t) = 0$ masalaning xos qiymatlarini kursating.

$\lambda_n = \frac{n\pi}{l}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{2n\pi}{l}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{(2n-1)\pi}{2l}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{l}{n\pi}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

90) Quyidagi chegaraviy sharti ikkinchi turdan iborat bo'lgan aralash masalaning xos qiymatlarini kursating:

$U_{tt} = a^2 U_{xx}, \quad U(x,0) = x, \quad U_t(x,0) = 1 + x, \; U_x(0,t) = 0, \; U_x(l,t) = 0$

$\lambda_n = \frac{n\pi}{l}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{(2n-1)\pi}{l}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{l}{n\pi}, \quad n = 1,2,3,... \; .$

$\lambda_n = \frac{l}{2n-1}\pi, \quad n = 1,2,3,... \; .$

91) Quyidagi aralash masalaning xos qiymatlarini kursating:

$U_{tt} = a^2 U_{xx}, \quad U(x,0) = \sin x, \quad U_t(x,0) = \cos x, \; U \;\; (0,t) = 0, \; U_x(l,t) = 0$

$\lambda_n = \frac{(2n+1)\pi}{2l}, \qquad n = 1,2,3,...$.

$\lambda_n = \frac{n\pi}{l}, \qquad n = 0,1,2,3,...$.

$\lambda_n = \frac{l\pi}{n}, \qquad n = 1,2,3,...$.

$\lambda_n = \frac{2n+1}{l}\pi, \qquad n = 0,1,2,3,...$.

92) $U_{tt} = U_{xx}$ tenglama uchun Gursa masalasi shartlarini ko'rsating.

$\begin{cases} U(x,t) = \varphi(x), & agar\ t + x = 0\ bo'lsa, \\ U(x,t) = \varphi(x), & agar\ t - x = 0\ bo'lsa. \end{cases}$

$U(x,0) = \varphi(x), \quad U_t(x,0) = \psi(x)$.

$U_x(x,0) = \varphi(x), \quad U_t(x,0) = \psi(x)$.

$U_x(x,0) = \varphi(x), \quad U_x(x,0) = \psi(x)$.

93) Bir ulchovli to'lqin tenglamasi uchun qo'yilga Koshi masalasi yechimi qanday formula orqali beriladi?
Dalamber formulasi.
Grin formulasi.
Puasson integrali.
Krixgorf formulasi.

94) Ikki ulchovli to'lqin tenglamasi uchun qo'yilga Koshi masalasi yechimi qanday formula orqali beriladi?
Puasson formulasi.
Grin formulasi.
Dalamber formulasi.
Krixgorf formulasi.

95) Uch ulchovli to'lqin tenglamasi uchun qo'yilga Koshi masalasi yechimi qanday formula orqali beriladi?
Krixgorf formulasi.
Grin formulasi.
Puasson integrali.
Dalamber formulasi.

96) Fazoda Laplas tenglamasi uchun Grin funksiyasining kurinishi qanday buladi?

$G(x,y) = \frac{1}{|x-y|} + g(x,y)$.

$G(x,y) = \ln\frac{1}{|x-y|} + g(x,y)$.

$G(x,y) = \frac{1}{|x-y|}$.

$G(x,y) = \ln\frac{1}{|x-y|}$.

97) Tekislikda Laplas tenglamasi uchun Grin funksiyasining kurinishi qanday buladi?

$G(x,y)=\ln\frac{1}{|x-y|}+g(x,y), \quad g(x,y)-garmonik\ funksiya$.

$G(x,y)=\frac{1}{|x-y|}+g(x,y)$.

$G(x,y)=\frac{1}{|x-y|}$.

$G(x,y)=\ln\frac{1}{|x-y|}$.

98) Fazoda Laplas tenglamasi uchun qo'yilgan Dirixle masalasi yechimi qanday ko'rinishda?
Puasson integrali ko'rinishida.
Kirxgorf formulasi ko'rinishida.
Grin formulasi ko'rinishida.
Dalamber formulasi ko'rinishida.

99) Tekislikda Laplas tenglamasi uchun qo'yilgan Dirixle masalasi yechimi qanday ko'rinishda?
Puasson integrali ko'rinishida.
Kirxgorf formulasi ko'rinishida.
Grin formulasi ko'rinishida.
Dalamber formulasi ko'rinishida.

100) Gel'mgol'ts tenglamasini ko'rsating.

$U_{xx}+U_{yy}+U_{zz}+k^2U=0$.

$U_{xx}+U_{yy}+U_{zz}=0$.

$U_{xx}+U_{yy}=0$.

$U_{tt}-U_{xx}-U_{yy}-U_{zz}=0$.

MATEMATIK FIZIKA TENGLAMALARI

MA'RUZANING TAQDIMOT SLAYDLARI

Математик физика тенгламалари
маърузалар

Акрам Хасанович Бегматов,
профессор, ф.-м.ф.д
Дифференциал ва математик физика
тенгламалари кафедраси

1

Маъруза № 1
Ўзгармас коэффициентли 2-чи тартибли чизиқли тенгламалари

Режа:

1. Асосий таърифлар
2. 1-тартибли квазичизиқли тенгламалар
3. Мисоллар
4. Таъриф
5. Каноник кўринишга келтириш

2

Таянч иборалар

Хусусий хосилали дифференциал тенглама, тенгламанинг тарбиби, квазичизикли тенгламалар, ечим, Коши масаласи, иккинчи тартибли хусусий хосилали тенглама

3

Асосий таърифлар

- Хусусий хосилали дифференциал тенглама деб бир нечта ўзгарувчили номаълум функцияга, унинг аргументлари ва турли тартибли хусусий хосилаларига нисбатан тенгламаларга айтилади.

4

Асосий таърифлар

Агар номаълум функция ўзгарувчига боғлик бўлса, яъни $u = u(x_1, x_2, ..., x_n)$ бўлса у холда, хусусий хосилали дифференциал тенглама

$$F\left(x_1, x_2, ..., u, \frac{\partial u}{\partial x_1}, \frac{\partial u}{\partial x_2}, ..., \frac{\partial u}{\partial x_n}, ..., \frac{\partial^m u}{\partial x_1^{k_1} ... \partial x_n^{k_n}}\right) = 0$$

кўринишга эга, бу ерда $k_1 + ... + k_n = m$,

F – берилган функциялар. Хусусий хосилали дифференциал тенгламанинг **тартиби** деб бу тенгламага кирувчи хосилаларнинг энг юқори тартибига айтилади 5

Асосий таърифлар

n-тартибли тенглама тартиби n дан катта бўлмаган хусусий хосилаларга эга бўлади. Хусусий хосилали чизикли тенглама

$$a_1(x_1, ..., x_n)\frac{\partial u}{\partial x_1} + ... + a_n(x_1, ..., x_n)_1 \frac{\partial u}{\partial x_n} +$$

$$+ b_1(x_1, ..., x_n)\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + ... + b_n(x_1, ..., x_n)\frac{\partial^2 u}{\partial x_n^2} = f(x_1, ..., x_n, u).$$

кўринишга эга. Масалан

$$x\frac{\partial z}{\partial x} + y\frac{\partial z}{\partial y} + xyz = 1,$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} = 0,$$

$$(x + \frac{\partial z}{\partial y})\frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} + \frac{\partial z}{\partial y} + z = 0$$

6

тенгламалар чизикли булади.

1-тартибли квазичизиқли тенгламалар

Квазичизикли тенгламалар

$$a_1(x_1, ..., x_n, u)\frac{\partial u}{\partial x_1} + ... + a_n(x_1, ..., x_n, u)_1 \frac{\partial u}{\partial x_n} = f(x_1, ..., x_n, u). \quad (1.1)$$

куринишга эга. Агар $f(x_1, ..., x_n, u) \neq 0$ бўлса у холда тенглама *бир жинсли тенглама бўлмайди*, акс холда, $f(x_1, ..., x_n, u)$ =0 бўлса, тенглама бир жинсли тенглама бўлади.

(1.1)тенглама ечиш учун

$$\frac{dx_1}{a_1} = \frac{dx_2}{a_2} = ... = \frac{dx_n}{a_n} = \frac{du}{f} \quad (1.2)$$

системани тузамиз. (1.2) системани ечиш жараёнида n-та биринчи интеграллар хосил қиламиз:

$$\varphi_i(x_1, ..., x_n, u) = C_i, i = 1, ..., n$$

Тенгламани ечимини қўйидаги $F(\varphi_1, ..., \varphi_n) = 0$ функция беради, бу ерда $F(\varphi_1, ..., \varphi_n)$ ихтиёрий уз аргументлари буйича дифференциалланувчи функция.

7

1-тартибли квазичизиқли тенгламалар

Теорема 1.1. (1.1) тенглама ечими (1.2) оддий дифференциал тенгламалар системасининг ечимга тенг кучли, унинг n-та биринчи интеграллари ҳар биттаси алохида берилган тенгламани ечимини беради. Шунда $F(\varphi_1, ..., \varphi_n) = 0$ умумий ечим бўлади.

Теорема 1.2.

$$a_1(x_1, ..., x_n)\frac{\partial u}{\partial x_1} + ... + a_n(x_1, ..., x_n, u)_1 \frac{\partial u}{\partial x_n} = 0$$

бир жинсли тенглама ечиш учун оддий дифференциал тенгламалар системаси тузилади.

Бу системанинг ечимлари (n-1)-та биринчи интеграллардан иборат бўлади.

Куйидаги тасдик уринли: агар $\frac{a_1}{b_1} = \frac{a_2}{b_2} = ... = \frac{a_n}{b_n} = t$

бўлса, шунда ихтиёрий k-лар учун

$$\frac{k_1 a_1 + ... + k_n a_n}{k_1 b_1 + ... + k_n b_n} = t$$

(1.3) ўринли.

8

Мисоллар

1-Мисол.

$$y\frac{\partial z}{\partial x}-x\frac{\partial z}{\partial x}=0$$

тенгламани ечинг.

$$\frac{dx}{y}=-\frac{dy}{x}$$

системани тузамиз. Сўнгра

$$xdx+ydy=0, \frac{1}{2}x^2+\frac{1}{2}y^2=C, x^2+y^2=C$$

Умумий ечими

$$z=F(x^2+y^2)$$

бўлади.

9

Мисоллар

2-Мисол.

$$xz\frac{\partial x}{\partial x}+yz\frac{\partial z}{xy}=-xy$$

тенгламани ечинг.

$$\frac{dx}{xz}=\frac{dy}{yz}=-\frac{dx}{xy}$$

системани тузамиз.

$$\frac{dx}{x}=\frac{dy}{y}, \ln|x|=\ln|y|+\ln C_1$$

тенгламани ечамиз, ундан

$$C_1=\frac{x}{y}$$

ни топамиз.
(3) айниятдан фойдаланиб

$$\frac{k_1dx+k_2dy+k_3dz}{k_1xz+k_2yz-k_3xy}=\frac{dz}{-xy}$$

ни оламиз.

10

Мисоллар

Фараз қилайлик, масалан,

$$k_1=y, k_2=x, k_3=0$$

бўлсин, бу холда

$$\frac{ydx+xdy}{yxz+xyz}=\frac{dz}{-xy}, \frac{d(xy)}{2xyz}=-\frac{dz}{xy}$$

Сўнгра

$$d(xy)=-2zdz, xy=-z^2+C, C=xy+z^2$$

$$F(x^2+y^2, xy+z^2)=0$$ умумий ечимни хосил қиламиз.

11

Мисоллар

Чизиқли тенгламалар учун Коши масаласини ечимини қараймиз

$$\begin{cases} x=x_0(t), \\ y=y_0(t), \\ z=z_0(t). \end{cases}$$

Фарз қилайлик,

$$\varphi_1(x,y,z)=C_1, \qquad \varphi_2(x,y,z)=C_2$$

иккита биринчи интеграл топилган бўлсин. У холда

$$\begin{cases} \Phi_1(t)=C_1, \\ \Phi_2(t)=C_2; \end{cases} \Leftrightarrow \qquad \Phi(C_1,C_2)=0$$

ва изланаётган ечим

$$\Phi(\varphi_1,\varphi_2)=0$$ бўлади.

12

Мисоллар

3-Мисол.

$x = 2$ да $x\frac{\partial z}{\partial x} + y\frac{\partial z}{\partial y} = z - xy, z = y^2 + 1$

Коши масалани ечинг.

$$\frac{dx}{x} = \frac{dy}{y} = \frac{dz}{z - xy}$$ системани тузамиз.

$$\frac{dx}{x} = \frac{dy}{y}$$ тенгламани ечимини изласак, қўйидагиларни хосил қиламиз:

$$\ln|x| = \ln|y| + \ln C_1, \quad C_1 = \frac{x}{y}$$

.

14

Мисоллар

$\frac{dx}{x} = \frac{dz}{z - xy}$ тенгламани қараймиз. $\frac{k_1dx + k_2dy + k_3dz}{k_1xz + k_2yz - k_3(z - xy)} = \frac{dz}{z - xy}$

айниятни тузамиз. $k_1 = y, k_2 = x, k_3 = 0$ булсин, у холда

$$\frac{ydx + xdy}{2xy} = \frac{dz}{z - xy}, \frac{d(xy)}{2xy} = \frac{dz}{z - xy}, \frac{1}{2}\ln|xy| = \frac{dz}{z - xy}$$

$$xy = t, dt = xdy + ydx$$ алмаштириш киритамиз.

$\frac{1}{2}\ln|t| = \frac{dz}{z - t}, \frac{1}{2}\ln|t| = \ln|z - t| + \ln C_2$ ни хосил қиламиз, бундан

$C_2 = \frac{t^2}{z - t} = \frac{x^2y^2}{z - xy}$ ни топамиз.

$F\left(\frac{x}{y}, \frac{x^2y^2}{z - xy}\right) = 0$ умумий ечимни хосил бўлади.

15

Мисоллар

$x = 2$ да $z = y^2 + 1$ Коши масалани караймиз

$$\begin{cases} 2y = C_1, \\ \frac{4y^2}{y^2 - 2y + 1} = C_2; \end{cases}$$

$$\begin{cases} 2y = C_1, \\ \frac{4y^2}{(y-1)^2} = C_2. \end{cases}$$

16

2 – тартибли ўзгармас коэффициентли чизикли тенгламалар

Иккинчи тартибли хусусий хосилали тенглама юкори тартибли хосилаларга нисбатан чизиқли дейилади, агар бу тенглама фақат биринчи тартибли хосилаларни ўз ичида сақласа.

$u = u(x.y)$ функцияга нисбатан иккинчи тартибли хусусий хосилали дифференциал тенглама қўйидаги умумий куринишга эга:

$$a(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + 2b(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + c(x,y)\frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + F(x,y,u,\frac{\partial u}{\partial x},\frac{\partial u}{\partial y}) = 0. \quad (1)$$

Агар $b^2 - ac > 0$ булса , (1) тенглама ***гиперболик типдаги тенглама*** (тўлкин тенглама), $b^2 - ac = 0$ бўлса, ***параболик типдаги тенглама*** (иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси), $b^2 - ac < 0$ бўлса, ***эллиптик типдаги тенглама*** (старционар тенглама)

17

2 – тартибли ўзгармас коэффициентли чизикли тенгламалар

(1) тенгламани янги ξ ва η ўзгарувчиларга формулалар бўйича ўтиш йўли билан каноник кўринишга келтириш мумкин.

x ва y ўзгарувчилари бўйича бериглан хосилаларни, ξ ва η ўзгарувчилар бўйича хосилаларга алмаштирамиз. Математик физик тенгламалар курси учун характерли белгилашларни киритамиз:

$$u_x = \frac{\partial u}{\partial x}, u_y = \frac{\partial u}{\partial y}, u_{xx} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, u_{xy} = \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y}, u_{yy} = \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}.$$

У холда

$$u_x = u_\xi \xi_x + u_\eta \eta_x,$$
$$u_y = u_\xi \xi_y + u_\eta \eta_y$$
$$u_{xx} = u_{\xi\xi}\xi_x^2 + 2u_{\xi\eta}\xi_x\eta_x + u_{\eta\eta}\eta_x^2 + u_\xi \xi_{xx} + u_\eta \eta_{xx},$$
$$u_{xy} = u_{\xi\xi}\xi_x\xi_y + u_{\xi\eta}(\xi_x\eta_y + \xi_y\eta_x) + u_{\eta\eta}\eta_x\eta_y + u_\xi \xi_{xy} + u_\eta \eta_{xy}$$
$$u_{yy} = u_{\xi\xi}\xi_y^2 + 2u_{\xi\eta}\xi_y\eta_y + u_{\eta\eta}\eta_y^2 + u_\xi \xi_{yy} + u_\eta \eta_{yy}$$

18

2 – тартибли ўзгармас коэффициентли чизикли тенгламалар

$\xi(x,y)$ ва $\eta(x,y)$ функцияларни топиш учун

$$a(d\ y)^2 - 2bdxdy + c(dx)^2 + 0, \quad (2)$$

характеристик тегнлама қаралади, у иккита тенгламалар системага тенг кучли:

$$\begin{cases} \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b + \sqrt{b^2 - ac}}{a} \\ \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{b - \sqrt{b^2 - ac}}{a} \end{cases}. \quad (3)$$

(2) эгри чизиқли интеграл тенгламалар (1) тенгламанинг характеристик тенгламалари деб аталади. Гиперболик, параболик ва элиптик типдаги тенгламаларни каноник кўринишга келтиришни қараймиз.

19

Гиперболик типдаги тенгламаларнинг каноник шакли

1.Агар (1) тенглама гиперболик типда бўлса, (3)-чи тенгламаларнинг биринчи интеграллари

$\varphi_1(x.y) = C_1, \varphi_2(x,y) = C_2$ хақиқий ва ҳар хил.

Улар (1) тенгламанинг хақиқий характеристикалари иккита турли оиласини аниклайди.

Ўгарувчиларни $\xi = \varphi_1(x.y), \eta = \varphi_2(x,y)$ алмаштириш ёрдамида, (1) тенглама гиперболик типдаги тенгламани қўйидаги ***каноник*** кўринишига келтирилади:

$$u_{\xi\eta} = \Phi(\xi, \eta, u, u_\xi, u_\eta)$$

$\xi = \mu + \nu, \eta = \mu + \nu$ ўзгарувчиларни алмаштириш ёрдамида бошқа

$$u_{\mu\mu} - u_{\nu\nu} = \Phi(\mu, \nu, u, u_\mu, u_\nu)$$

каноник кўринишга келтирилади.

20

Мисоллар

1-мисол.

$a^2 u_{xx} - y^2 u_{yy} = 0$ тенгламани каноник кўринишга келтиринг.

$b^2 - ac = 0 + x^2y^2 = x^2y^2 > 0$ бўлгани учун, бу гиперболик типдаги тенглама эканлигини аниқлаймиз. Характеристик тенглама тузамиз:

$$x^2(dy)^2\ y\ (dx)^2 = 0 \Leftrightarrow (xdy + ydx)(xdy - ydx) = 0$$

Иккита

$$(xdy + ydx) = 0, (xdy - ydx) = 0$$

дифренцал тенглама хосил қиламиз.
Узгарувчиларни ажратиб ва интераллаб қўйидаги кўринишга келамиз:

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| + \ln|y| = \ln C_1$$
$$\frac{dy}{y} - \frac{dx}{x} = 0, \ln|y| - \ln|y| = \ln C_2$$

21

Мисоллар

Потенциаллаштиргандан кейин, икки оила характеристикалар учун тенгламаларни топамиз:

$$xy = C_1, \frac{y}{x} = C_2$$

Энди янги ўзгарувчиларни киритамиз.

$$\xi = xy, \eta = \frac{y}{x}$$

Юкорида келтирган фомулалардан фойдаланиб, эски ўзгарувчилар буйича хусусий хосилаларни янги ўзгарувчилар буйича хусусий хосилалар орқали ифодалаймиз:

22

Мисоллар

$$u_x = u_\xi \xi_x + u_\eta \eta_x = y u_\xi + \frac{y^2}{x^2} u_\eta$$

$$u_y = u_\xi \xi_y + u_\eta \eta_y = x u_\xi + \frac{1}{x} u_\eta$$

$$u_{xx} = (u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_x)y - (u_{\eta\xi}\xi_x + u_{\eta\eta}\eta_x)\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = (y u_{\xi\xi} - \frac{y}{x^2}u_{\xi\eta})y -$$

$$-(y u_{\xi\eta} - \frac{y}{x^2}u_{\eta\eta})\frac{y}{x^2} + \frac{2y}{x^3}u_\eta = y^2 u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta.$$

$$u_{yy} = x(u_{\xi\xi}\xi_y + u_{\xi\eta}\eta_y) + \frac{1}{x}(u_{\eta\xi}\xi_y + u_{\eta\eta}\eta_y) = x(x u_{\xi\xi} + \frac{1}{x}u_{\xi\eta}) +$$

$$+\frac{1}{x}(x u_{\xi\eta} + \frac{1}{x}u_{\eta\eta}) = x^2 u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}$$

23

Мисоллар

Берилган тенгламага иккинчи хосила учуни топилган ифодаларни қўйиб

$$x^2(y^2 u_{\xi\xi} - 2\frac{y^2}{x^2}u_{\xi\eta} + \frac{y^2}{x^4}u_{\eta\eta} + 2\frac{y}{x^3}u_\eta) - y^2(x^2 u_{\xi\xi} + 2u_{\xi\eta} + \frac{1}{x^2}u_{\eta\eta}) = 0$$

ни оламиз. Охирги ифодани соддалаштириб,

$$u_{\xi\eta} - \frac{1}{2\xi}u_\eta = 0$$

каноник кўринишга келамиз.

24

Параболик типдаги тенгламаларнинг каноник шакли

Агар (1) параболик типдаги тенглама бўлса, у холда (3) тенгламалар устма-уст тушади. Бу холда (3) система учун битта $\varphi(x,y) = C$ биринчи интегралини хосил қиламиз.У холда ўзгарувчиларни

$$\xi = \varphi(x,y), \eta = \psi(x,y)$$

формула буйича амалштириб оламиз, бу ерда $\psi(x,y)$ -ни

$$\begin{vmatrix} \varphi_x & \varphi_y \\ \psi_x & \psi_y \end{vmatrix} \neq 0$$

шартни қаноатлантирувчи ихтиерий функция, яъни функционал детерминант –якобиан–нолга тенг бўлмаслиги лозим.

25

Мисоллар

2-мисол. Тенгламани каноник кўринишга келтиринг.

$$z_{xx}\sin^2 x - z_{xy}2y\sin x + z_{yy}y^2 = 0$$

$$b^2 - ac = y^2\sin^2 x - y^2\sin^2 x = 0$$ бўлгани учун тенглама гиперболик типга қарашли.

Характеристик тенгламаси қўйидагича

$$\sin^2 x(dy)^2 + 2y\sin x dxdy + y^2(dx)^2 = 0$$ ёки

$$(\sin x dy + y dx)^2 = 0$$ кўринишга эга. Яни

$$x dy + y dx = 0$$ тенгламани ўзгарувчиларни ажратиб ва интеграллаб

$$\frac{dy}{y} + \frac{dx}{x} = 0, \ln|x| + \ln tg\frac{x}{2} = \ln C, tg\frac{x}{2} = C.$$ тенгламани оламиз.

26

Мисоллар

$\xi = ytg\frac{x}{2}, \eta = y$ ўзгарувчиларни алмаштириб, бу ерда y - ихтиёрий

$\begin{vmatrix} \xi_x \, \xi_y \\ \eta_x \, \eta_y \end{vmatrix} \neq 0$ шартни каноатлантирувчи функция. Бу функция учун хусусий хосилаларни янги ўзгарувчилар орқали ифодалаймиз.

$$z_x = z_\xi \xi_x + z_\eta \eta_x = \frac{1}{2} z_\xi y \sec^2 \frac{x}{2},$$

$$z_y = z_\xi \xi_y + z_\eta \eta_y = z_\xi tg\frac{x}{2} + z_\eta,$$

$$z_{xx} = \frac{1}{2}(z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x) y \sec^2 \frac{x}{2} + \frac{1}{2} z_\xi y \sec^2 \frac{x}{2} tg\frac{x}{2} =$$

$$= \frac{1}{4} z_{\xi\xi} y^2 \sec^4 \frac{x}{2} + \frac{1}{2} y z_\xi \sec^2 \frac{x}{2} tg\frac{x}{2},$$

27

Мисоллар

$$z_{yy} = (z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y) tg\frac{x}{2} + z_{\eta\xi}\xi_y + z_{\eta\eta}\eta_y = z_{\xi\xi} tg^2 \frac{x}{2} + 2 z_{\xi\eta} tg\frac{x}{2} + z_{\eta\eta}$$

$$z_{xy} = \frac{1}{2}(z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y) y \sec^2 \frac{x}{2} + \frac{1}{2} z_\xi \sec^2 \frac{x}{2} =$$

$$= \frac{1}{2}(z_{\xi\xi} tg\frac{x}{2} + z_{\xi\eta}) y \sec^2 \frac{x}{2} + \frac{1}{2} z_\xi \sec^2 \frac{x}{2}$$

ни оламиз. Олинган хусусий хосилаларни берилган дифференциал тенгламага қўямиз.

$$\frac{1}{4} z_{\xi\xi} y^2 \sec^4 \frac{x}{2} + \frac{1}{2} y z_\xi \sec^2 \frac{x}{2} tg\frac{x}{2} - (z_{\xi\xi} tg\frac{x}{2} + z_{\xi\eta}) y^2 \sec^2 \frac{x}{2} \sin x -$$

$$- \frac{1}{2} z_\xi y \sec^2 \frac{x}{2} \sin x + y^2 (z_{\xi\xi} tg^2 \frac{x}{2} + 2 z_{\xi\eta} tg\frac{x}{2} + z_{\eta\eta}) = 0$$

28

Мисоллар

Соддалаштириб $\frac{1}{2} z_{\xi\xi} y \sec^2 \frac{x}{2} tg\frac{x}{2} \sin^2 x + y^2 z_{\eta\eta} - z_\xi y \sec^2 \frac{x}{2} \sin x = 0$

ёки $yz_{\eta\eta} = z_\xi \sin x$ ни оламиз.

$\sin x = \dfrac{2tg\frac{x}{2}}{1 + tg^2 \frac{x}{2}}$ бўлгани учун у холда

$$tg\frac{x}{2} = \frac{\xi}{\eta}, \sin x = \frac{2\xi}{\xi^2 + \eta^2}$$

натижада $z_{\eta\eta} = \dfrac{2\xi}{\xi^2 + \eta^2} z_\xi$ ни хосил қиламиз

29

Эллиптик типдаги тенгламаларнинг каноник шакли

Агар (1) тенглама эллиптик типда бўлса, системанинг биринчи интеграллари қўшма комплекс кўринишда бўлади:

$$\varphi(x,y) + i\psi(x,y) = C_1, \varphi(x,y) - i\psi(x,y) = C_2$$

$\xi = \varphi(x,y), \eta = \psi(x,y)$ формула буйича алмаштириш ердамида (1) тенглама

$$u_{\xi\xi} + u_{\eta\eta} = \Phi(\xi, \eta, u, u_\xi, u_\eta)$$

кўринишга келтирилади.

30

Мисоллар

3-мисол.

$$z_{xx} - 2z_{xy} + 2z_{yy} = 0$$ тенгламани каноник кўринишга келтиринг.

$$b^2 - ac = 1 - 2 = -1 < 0$$ бўлгани учун эллиптик типдаги тенглама экан.

Демак, характеристик тенглама

$$(dy)^2 + 2dxdy + 2(dx)^2 = 0, y'^2 + 2y' + 2 = 0$$

куринишга эга. Уни ечиб

$$y + x - ix = C_1, y + x + ix = C_2$$

ни топамиз. Иккита мавҳум характеристикалар оилаларини хосил қиламиз:

$$\xi = y + x, \eta = x$$ Ўзгарувчиларни алмаштириб

$$z_x = z_\xi \xi_x + z_\eta \eta_x = z_\xi + z_\eta,$$

31

Мисоллар

$$z_y = z_\xi \xi_y + z_\eta \eta_y = z_\xi,$$

$$z_{xx} = (z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x) + (z_{\eta\xi}\xi_x + z_{\eta\eta}\eta_x) = z_{\xi\xi} + 2z_{\xi\eta} + z_{\eta\eta},$$

$$z_{xy} = z_{\xi\xi}\xi_x + z_{\xi\eta}\eta_x = z_{\xi\xi} + z_{\xi\eta}$$

$$z_{yy} = z_{\xi\xi}\xi_y + z_{\xi\eta}\eta_y = z_{\xi\xi}.$$

ларга эга буламиз. Топилган ифодаларни берилган дифференциал тенгламага куйиб

$$z_{\xi\xi} + 2z_{\xi\eta} + z_{\eta\eta} - 2z_{\xi\xi} - 2z_{\xi\eta} + 2z_{\xi\xi} = 0$$ ни ёки

$$z_{\xi\xi} + z_{\eta\eta} = 0$$ ифодани оламиз.

32

Саволлар

1. *Хусусий хосилали дифференциал тенглама таъриф беринг.*
2. *Хусусий хосилали дифференциал тенглама тартиби деб нима айтилади.*
3. *Квазичизиқли дифференциал тенгалама қандай кўринишга эга?*
4. *Квазичизиқли дифференциал тенгалама умумий ечими тўғрисидаги теоремани келтиринг.*
5. *Бир жинсли иенгламанинг ечими тўғрисидаги теоремани келтиринг.*
6. *Иккинчи тартибли хусусий хосилали тенглама қачон чизиқли дейилади?*
7. *Хусусий хосилали дифференциал тенглама қачон гиперболик типдаги тенглама дейилади?*
8. *Хусусий хосилали дифференциал тенглама қачон параболик типдаги тенглама дейилади?*
9. *Хусусий хосилали дифференциал тенглама қачон эллиптик типдаги тенглама дейилади?*
10. *Математик физик тенгламалар курси учун характерли белгилашларни келтиринг.*
11. *2–чи тартибли ўзгармас коэффициентли гиперболик типдаги тенгламани каноник шаклига келтириш йўлини айтинг.*
12. *2–чи тартибли ўзгармас коэффициентли параболик типдаги тенгламани каноник шаклига келтириш йўлини айтинг.*
13. *2–чи тартибли ўзгармас коэффициентли эллиптик типдаги тенгламани каноник шаклига келтириш йўлини айтинг.*

Математик физика тенгламалари
маърузалар

Маъруза № 2.

Мавзу:

ГИПЕРБОЛИК ТИПДАГИ ТЕНГЛАМАЛАР.

1

Маъруза № 2
ГИПЕРБОЛИК ТИПДАГИ ТЕНГЛАМАЛАР.

Режа:

1. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг классификацияси.
2. Тебраниш тенгламаси учун масаланинг қуйилиши.
3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.
4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикаси.
5. Ярим тўғри чизиқдаги масала. Давом эттириш методи.

2

Таянч иборалар

хусусий хосилали теглама,
классификация,
тебраниш тенгламаси, Даламбер формуласи,
Коши масаласи, характеристика,
давом эттириш.

3

1. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг классификацияси

Ўтган маърузада берилган таърифларни эслаймиз.

Таъриф: *E^2 фазода иккинчи тартибли хусусий ҳосилаларга эга бўлган бирор бир функция* $U(x,y)$ *берилган(бунда* $U_{xy} = U_{yx}$ *) бўлсин.*

Шунда хусусий ҳосилали умумий тенглама деб

$$F\left(x, y, u, u_x, u_y, u_{xx}, u_{yy}\right) = 0$$

*тенгламага айтилади. Бунда **F** қандайдир функция. Квазичизиқли тенглама унинг хусусий ҳолидан иборат*

$$a_{11}\left(x, y, u, u_x, u_y\right)u_{xx} + 2a_{12}\left(x, y, u, u_x, u_y\right)u_{xy} +$$
$$+ a_{22}\left(x, y, u, u_x, u_y\right)u_{yy} + F_1\left(x, y, u, u_x, u_y\right) = 0$$

4

1. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг классификацияси

Таъриф: Агар $f \equiv 0$ бўлса шунда (2.1) тенглама бир жинсли тенглама акс ҳолда бир жинсли бўлмаган тенглама деб айтилади.

Таъриф: (x_0, y_0) нуқтада (2. 1) тенглама қуйидагича аниқланади.

1. Агар

$$a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) > 0$$

бўлса **гиперболик типдаги бўлади.**

2. Агар

$$a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) < 0$$

бўлса **эллиптик типдаги бўлади.**

3. Агар

$$a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) = 0$$

бўлса **параболик типдаги бўлади.**

5

1. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг классификацияси

Тенгламанинг типи маълум бир соҳа учун ҳам худди шундай аниқланади: (2.1) тенглама соҳада (гиперболик), (эллиптик), [параболик] типдаги деб аталади, агар шу соҳа барча нуқталарда

$$a_{12}^2(x_0, y_0) - a_{11}(x_0, y_0)a_{22}(x_0, y_0) > 0(< 0)[= 0]$$

бўлса.

Агар тенглама соҳанинг ҳар хил нуқталарида хар хил типга эга бўлса, бунда у шу соҳада аралаш типдаги тенглама тейилади.

6

2. Тебраниш тенгламаси учун масаланинг қуйилиши.

Бизлар гиперболик типдаги тенгламани кўриб чиқаммиз.

Фараз қилайлик $u(x,t) \in C^2 \ ((x,t): 0 < x < l, t > 0)$ бўлсин, шунда

$$u_{tt} = a^2 u_{xx}, \ \left((x,t): 0 < x < l, t > 0\right) \quad (2.1)$$

Тенглама *идеал торнинг тебраниш тенгламаси* дейилади.

Икки фазовий ўзгарувчиларнинг функцияси $u(x, y, t)$ ҳолида:

$$u_{tt} = a^2 \Delta u, \ (x, y) \in D, t > 0$$

бу эластик мембрананинг тебраниш тенгламаси.

(2. 1) тенгламани қараймиз. Биз қуйидаги бошланғич шартларни беришимиз мумкин:

$$\begin{cases} u \ (x,0) = \phi(x), \ 0 < x < l; \\ u_t \ (x,0) = \varphi(x), \ 0 < x < l, \end{cases}$$

– торнинг мувозанат ҳолатидан четланишини изоҳлайди;

ва чегаравий шартларни:

$$\begin{cases} u \ (l,t) = \mu \ (t), \ t > 0; \ (\text{махкмланган холда} \ \ \mu \equiv 0) \\ u_x \ (l,t) = \nu \ (t), \ t > 0; \\ u \ (l,t) + \alpha \ u_x(l,t) = \theta \ (t). \ t > 0 \end{cases}$$

7

одатда бизлар улардан баъзиларини оламиз.

2. Тебраниш тенгламаси учун масаланинг қуйилиши.

Гиперболик ёки тебраниш тенгламалар учун чегаравий масалалар тузамиз. **Биринчи чегаравий масала.**

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & 0 < x < l, \ 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & 0 \le x \le l; \\ u_t(x,0) = \varphi(x), & 0 \le x \le l; \\ u(0,t) = \mu_1(t), & 0 \le t \le T; \\ u(l,t) = \mu_2(t), & 0 \le t \le T; \end{cases}$$

8

2. Тебраниш тенгламаси учун масаланинг қўйилиши.

Худди шуни ўзи ***ярим тўгри чизиқ*** учун:

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0,\ 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & x \ge 0; \\ u_t(x,0) = \varphi(x), & x \ge 0; \\ u(0,t) = \mu(t), & 0 \le t \le T; \end{cases}$$

Шунингдек оддий **Коши масаласини** қарайш мумкин:

$$\begin{cases} u_{tt} = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < +\infty,\ 0 < t \le T; \\ u(x,0) = \phi(x), & -\infty < x < +\infty; \\ u_t(x,0) = \varphi(x), & -\infty_9 < x < +\infty. \end{cases}$$

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Бизлар тебраниш тенгламаси учун Коши масаласини қараймиз.

$$[1.1]\ \begin{cases} (1)\quad u_{tt} = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < +\infty,\ 0 < t \le T; \\ (2)\quad u(x,0) = \phi(x), & -\infty < x < +\infty; \\ (3)\quad u_t(x,0) = \varphi(x), & -\infty < x < +\infty. \end{cases}$$

Фараз қилайлик, $u \in C^2\left(R \times R^+\right)$ функция бўлиб, у [1.1] Коши масаласининг ечими бўлсин. Янги $\xi,\ \eta$ ўзгарувчиларни қўйидагича аниқлаймиз:

$$\begin{cases} \xi = x + at; \\ \eta = x - at; \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \dfrac{\xi + \eta}{2}; \\ t = \dfrac{\xi - \eta}{2a}. \end{cases}$$

10

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Янги функцияни аниқлаймиз: $v(\xi,\eta) = u\left(\dfrac{\xi+\eta}{2}, \dfrac{\xi-\eta}{2a}\right)$

Бу функциянинг хусусий ҳосилаларини топамиз.

$$v_\xi = u_x\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{2} + u_t\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{2a};$$

$$v_{\xi\eta} = u_{xx}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4} + u_{xt}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\left(-\frac{1}{4a}\right)$$

$$+u_{tx}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4a} + u_{tt}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\left(-\frac{1}{4a}\right) =$$

$$= u_{xx}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right)\frac{1}{4} - \frac{1}{4a}u_{tx}\left(\frac{\xi+\eta}{2}, \frac{\xi-\eta}{2a}\right) =$$

$$\{\textit{тебраниш тенгламаси}\} = 0;$$

11

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Энди тескари интеграллашни амалга оширамиз:

$$v_{\xi\eta}(\xi,\eta) = 0, \quad \xRightarrow{\xi\ \textit{бўйича интег-л}} \quad v_\eta(\xi,\eta) = \tilde{f}_1(\eta) \Rightarrow$$

$$\xRightarrow{\eta\ \textit{бўйича интег-л}} \quad v(\xi,\eta) = \int \tilde{f}_1(\eta)d\eta + f_2(\xi)$$

$$\Rightarrow v(\xi,\eta) = f_1(\eta) + f_2(\xi) \Rightarrow \{u(x,t) = v(x+at, x-at)\} \Rightarrow$$

$$u(x,t) = f_1(x-at) + f_1(x+at), \quad (2.2)$$

бу ерда $\tilde{f}_1, f_1, f_2$ -лар интеграллаш давомида ҳосил бўладиган функциялар.

Шундай қилиб биз тебраниш тенгламаси ечими бўлган u функциянинг умумий кўринишини ҳосил қилдик.

12

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Бошланғич шартлардан фойдаланиб f_1, f_2 -ларни аниқлаймиз:

$$\begin{cases} u\ (x,\ 0) = f_1(x) + f_2(x) = \phi(x); \\ u_t(x,\ 0) = -af_1'\ (x) + af_1'\ (x) = \varphi(x); \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} -f_1(x) + f_2(x) = \dfrac{1}{a}\displaystyle\int_{x_0}^{x} \varphi(\xi)d\xi + C \\ f_1(x) + f_2(x) = \phi(x). \end{cases}$$

Системадаги тенгламаларни қўшиб ва биридан бирини айириб қуйидагини ҳосил қиламиз.

13

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

$$\begin{cases} f_2(x) = \dfrac{\phi(x)}{2} + \dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x_0}^{x} \varphi(\xi)d\xi + \dfrac{c}{2}; \\ f_1(x) = \dfrac{\phi(x)}{2} - \dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x_0}^{x} \varphi(\xi)d\xi - \dfrac{c}{2}. \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \{u\ \ (x,\ t) = f_1(x-at) + f_2(x+at)\} \Rightarrow$$

$$u\ \ (x,\ t) = \frac{\phi(x-at)+\phi(x+at)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} \varphi(\xi)d\xi \quad (2.3)$$

(2.3) формула **Даламбер формуласи** дейилади.

14

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Теорема 2. 1 (Коши масаласи ечимининг мавжудлиги ва ягоналиги). *Фараз қилайлик* $\phi\,(x) \in C^2(R),\ \varphi\,(x) \in C^1(R)$

[1. 1] Коши масаласининг ечимидан иборат шундай $u(x,y)$ *функция мавжуд ва ягонадирки, бунда* $u \in C^2\left(R \times \overline{R}^{+}\right)$

Бу ерда $\phi\,(x),\ \ \varphi(x)$

функциялар бошланғич шартларни аниқлайди.

Исбот: Ечимнинг ***мавжудлиги*** (1)-(3) шартлардан фойдаланиб ва теорема шартларидан фойдаланган ҳолда бевосита ўрнига қўйиш билан текширилиб кўрилади. ***Ягоналиги*** қўйидаги мулохозалардан келиб чиқади: (1)-(3) шартларни қаноатлантириувчи ихтиёрий функция учун Даламбер формуласи бўйича ифодаси хаққонийдир, бу ифода эса фақат битта функцияни кўзда тутади. □

15

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

Теорема 2.2 (Турғунлик теоремаси). Фараз қилайлик

$\phi_1, \phi_2\ (x) \in C^2(R),\ \varphi_1, \varphi_1\ (x) \in C^1(R)$

ва улар R фазода чеаграланган бўлсин. Агар $u_1, u_2(x,t)$

функциялар [1.1] типдаги масаланинг ечимлари вам мос равишда $\phi_1, \phi_2, \varphi_1, \varphi_2$ бошланғич шартлар билан берилган ечимлари бўлса, шунда

$$\sup_{x\in R, 0\le t\le T} \left|u_1(x,t) - u_2(x,t)\right| \le \sup_{x\in R}\left|\phi_1(x) - \phi_2(x)\right| + T\sup_{x\in R}\left|\varphi_1(x) - \varphi_2(x)\right|$$

бўлади. **Исбот.**

u_1, u_1 учун (2.3) Даламбер формуларидан келиб чиқадики:

16

3. Даламбер формуласи. Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги.

$$u_{tt} = a^2 u_{xx}, \ \left((x,t): 0 < x < l, t > 0\right)$$

$$|u_1 - u_2| \le \left| \frac{\phi_1(x+at) - \phi_2(x+at)}{2} \right| + \left| \frac{\phi_1(x+at) - \phi_2(x+at)}{2} \right| +$$

$$+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} |\varphi_1(\xi) - \varphi_2(\xi)| d\xi \le \sup_{x\in R} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| +$$

$$+\sup_{x\in R} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} d\xi \le \sup_{x\in R} |\phi_1(x) - \phi_2(x)| + \sup_{x\in R} |\varphi_1(x) - \varphi_2(x)| T$$

Теорема исботланди. □

17

4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари.

Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали классик тенглама қуйидаги кўринишга эга:

$$a_{11}(x,y)U_{xx} + 2a_{12}(x,y)U_{xy} + a_{22}(x,y)U_{yy} = F(x,y,u,u_x,u_y) \quad (2.4)$$

Унга бир қийматли мослик билан қўйидаги оддий дифференциал тенгламани қўямиз:

$$a_{11}(dy)^2 - 2a_{12}\,dxdy + a_{22}(dx)^2 = 0 \quad (2.5)$$

Шунда (2.5)нинг ечимлари бўлган функциялар (эгри чизиқлар) (2.4) тенгламанинг ***характеристикалари*** дейилади. Масалан

$a^2 U_{xx} - U_{tt} = 0$ тебраниш тенгламаси учун характеристикалар ҳосил қилинадиган тенглама

$a^2 (dt)^2 - (dx)^2 = 0$ кўринишга эга.

18

4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари.

Ундан қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$\begin{bmatrix} a\ dt + dx = 0; \\ a\ dt - dx = 0. \end{bmatrix} \Rightarrow \begin{bmatrix} x + at = const\ ; \\ x - at = const\ . \end{bmatrix}$$

Булар гиперболик типдаги тенгламаларнинг характеристикаларидан иборат икки тўғри чизиқдир.

Фараз қилайлик *u (x, t)* функция маълум бир Коши масаласининг ечими бўлсин. OXT текислигининг биринчи чорагида ихтиёрий (x_0, y_0) нуқта оламиз. Бу нуқтадан фақат иккита характеристика ўтади:

$$x - at = x_0 - at_0,\ x + at = x_0 + at_0$$

Улар OX ўқини $(x_0 + at_0, 0)$, $(x_0 - at_0, 0)$ нуқталар орқали кесиб ўтиб, бунда характеристик учбурчакни ҳосил қилади.

19

4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари

u (x, t) функция учун $u(x_0, t_0)$ нуқтада (2.3) Даламбер формуласини ёзиб

$$u(x_0, t_0) = \frac{\phi(x_0 - t_0) + \phi(x_0 + t_0)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x_0 - at_0}^{x_0 + at_0} \varphi(\xi) d\xi$$

ҳосил қиламизки, *u (x, t)* функциянинг қиймати фақат характеристик учбурчакнинг асосидаги $\phi(x)$, $\varphi(x)$ қийматлари билан аниқланади.

Бу гиперболик типдаги тенгламаларнинг мухим ўзига хос хусусият. Уни қуйидаги мисолда тушиниб олиш мумкин.

20

4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари

Фараз қилайлик $\phi(x)$, $\varphi(x)$ функциялар бирор [a, b] кесма-нинг ташқарисида 0га тенг бўлсин. Шунда II, III соҳаларда *u (x, t)* функция ҳам 0 га айнан тенг бўлади. Бу Даламбер формуласидан осонгина кўриш мумкин. Ушбу факт (далил) гиперболик тенгламадаги *u (x, t) сигнал (хабар)ни* тарқалишининг (*x* ўқи бўйича) (*t* вақт мобайнидаги) охиридаги тезлигини кўрсатади.



4. Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари

Аксинча иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси учун берилган Коши масаласида

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx}, & -\infty < x < \infty, \quad t > 0 \\ u(x,0) = \phi(x) & -\infty > x > \infty, \end{cases}$$

ечим, кейинчлик кўрсатадиганидек, қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$u(x,t) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\sqrt{4\pi a^2 t}} \exp\left(-\frac{(x-s)^2}{4a^2}\right)\phi(s)ds$$

Кўриниб типибдики, агар $\phi(s)$ функция узлуксиз, манфий бўлмаган ва бирор нуқтада 0 дан фарқли бўлса, унда $u(x,t) > 0, \quad \forall t > 0$ бўлади.

Яъни биз шуни ҳосил қилдикки иссиқлик ўказувчанлик тенгламаси ҳолида сигнал (хабар) амалда дарҳол (мгновенно) тарқалади.

22

5. Ярим тўғри чизиқдаги масалалар. Давом эттириш усули.

Биринчи чегаравий масала. Ярим тўғри чизиқдаги бир жинсли шартга эга бўлган тебраниш тенгламаси учун биринчи чегаравий масала қуйидаги кўринишга эга:

$$\begin{cases} (1) \quad u_{tt} = a^2 u_{xx}, & x > 0, t < 0; \\ (2) \quad u(x,t) = 0, & t < 0; \\ (3) \quad u(x,0) = \phi(x), & x \geq 0; \\ (4) \quad u_t(x,0) = \varphi(x), & x \geq 0; \end{cases}$$

u (x, t) ва $u_t(x, t)$ функцияларнинг 0да узлуксизлигини таъминлаш учун $\begin{cases} \phi(0) = 0; \\ \varphi(0) = 0. \end{cases}$

боғланиш шартларини қўшамиз 24 (условия сопряжения).

5. Ярим тўғри чизиқдаги масалалар. Давом эттириш усули.

Модификацияланган Коши масаласини қараймиз.

$$\begin{cases} u_{tt}(x,t) = a^2 u_{xx}(x,t), & -\infty < x < \infty, \ t > 0; \\ u(x,0) = \Phi(x), \\ u(x,0) = \Psi(x). \end{cases}$$

Бу ҳолда *U(x,t)* ни топиш учун биз Даламбер формуласидан фойдаланамиз.

$$\mathrm{U}(x, t) = \frac{\Phi(x - at) + \Phi(x + at)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} \Psi(\xi)d\xi.$$

$x,t \geq 0$ *да* бизга керакли *u (x, t)* функция сифатида *U (x, t)* функцияни оламиз. Кўриниб типибдики (1), (3) ва (4) шартлар $x, t \geq 0$ бўлганда бирданига бажарилади,

25

5. Ярим тўғри чизиқдаги масалалар. Давом эттириш усули.

бу $\Psi(x),\Phi(x)$ ларни тарифидан келиб чиқади. (2) шартнинг бажрилиши қуйидаги алмаштиришлардан келиб чиқади.

$$u(0,t)\overset{def}{=}U(0,t)=\frac{\Phi(-at)+\Phi(at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{-at}^{at}\Psi(\xi)d\xi.$$

1-чи ва 2-чи қўшилувчилар тегишли функцияларнинг тоқлиги сабали нольга айланади. Бу эса 2чи шартнинг бажарилишини кўрсатади. Шундай қилиб бизлар тузган *u (x, t)* функция **биринчи чегаравий** масалаларнинг ечими эканлигини исботладик.

$\Psi(x), \Phi(x)$ функцияларни мос равишда исходные функциялар $\phi(x), \varphi(x)$ орқали ифодалаймиз:

26

5. Ярим тўғри чизиқдаги масалалар. Давом эттириш усули.

$$\text{Агар}\quad x\ge at\quad \text{бўлса}\begin{cases}\Phi(x+at)=\phi(x+at);\\ \Phi(x-at)=\phi(x-at);\\ \quad\Psi(\xi)=\varphi(\xi),\quad \text{агар}\quad \xi\in[x-at;x+at]\ \text{бўлса}\end{cases}$$

$$\text{Агар}\quad x<at\quad \text{бўлса}\begin{cases}\Phi(x+at)=\phi(x+at);\\ \Phi(x-at)=-\phi(x-at);\end{cases}$$

Биринчи чегаравий масалани ечиш учун қуйидаги ёрдамчи формулани ёзамиз.

$$\text{Агар}\ \ x<at\quad \text{булса}\ \ \text{унда}\ \int_{x-at}^{x+at}\Psi(\xi)d\xi=\int_{x-at}^{0}\Psi(\xi)d\xi+\int_{0t}^{x-a}\Psi(\xi)d\xi=$$

$$=\int_{x-at}^{0}-\varphi(-\xi)d\xi+\int_{0}^{x+at}\varphi(\xi)d\xi=$$

$$=\{-\xi=\xi\ \ \text{деб}\ \ \text{оламиз}\}=\int_{at-ч}^{0}\varphi(\xi)d\xi+\int_{0}^{x+at}\varphi(\xi)d\xi=\int_{at-x}^{at+x}\varphi(\xi)d\xi$$

27

5. Ярим тўғри чизиқдаги масалалар. Давом эттириш усули.

Шунда умумий формула қуйидагича бўлади:

$$u(x,t)=\begin{cases}\dfrac{\phi(x+at)+\phi(x-at)}{2}+\dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{x-at}^{x+at}\varphi(\xi)d\xi,\ \ x\ge at;\\[2ex] \dfrac{\phi(at+x)-\phi(at-x)}{2}+\dfrac{1}{2a}\displaystyle\int_{at-xt}^{at+xt}\varphi(\xi)d\xi,\ \ x<at;\end{cases}$$

28

Саволлар.

1. *Хусусий ҳосилали умумий тенглама деб нимага айтилади?*
2. *Хусусий хосилали чизиқли тенгламага таъриф беринг.*
3. *Бир жинсли хусусий ҳосилали тенглама таърифини беринг.*
4. *Хусусий хосилали тенгламага учун классификацияни келтиринг.*
5. *Тебраниш тенгламаси учун масаланинг қуйилиши.*
6. *Идеал торнинг тебраниш тенгламасини келтиринг.*
7. *Биринчи чегаравий масала.*
8. *Тебраниш тенгламаси учун Коши масаласи.*
9. *Даламбер формуласини ёзинг.*
10. *Коши масаласи ечимининг мавжудлиги турғунлиги ва ягоналиги тўғрисидаги теорема.*
11. *Турғунлик теоремаси*
12. *Иккинчи тартибли хусусий ҳосилали тенгламаларнинг характеристикалари*
13. *Ярим тўғри чизиқдаги бир жинсли биринчи чегаравий шартга эга бўлган тебраниш тенгламаси учун чегаравий масаланинг кўриниши.*
14. *Биринчи чегаравий масалани ечимини келтиринг*

29


Математик физика тенгламалари
маърузалар
Маъруза № 3.
Мавзу:
Биринчи чегаравий масала
ечиминиг мавжудгини исботлаш
учун ўзгарувчиларни ажратиш усули
1


Маъруза № 3
Биринчи чегаравий масала ечиминиг
мавжудгини исботлаш учун
ўгарувчиларни ажратиш усули
Режа:
1. Икккинчи чегаравий масала
2. Ўзгарувчиларни ажратиш усули
3. Штурм-Лиувилл масаласининг тривиал бўлмаган ечимлари
4. Биринчи чегаравий масала ечимининг мавжудлиги ҳақида теорема
5. 1–чи чегаравий масала ягоналиги
2


Таянч иборалар
чегаравий масала,
ўзгарувчиларни ажратиш,
усул,
Штурм-Лиувилль масаласи,
мавжудлик теоремаси,
ягоналик теоремаси
3

1. Иккинчи чегаравий масала

Ярим тўғри чизиқдаги бир жинсли чегаравий шарт билан берилган иккинчи чегаравий масала қуйидаги кўринишга эга:

$$
\begin{cases}
(1) \quad u_{tt} = a^2 U_{xx}, x > 0, t > 0 \\
(2) \quad u_x(0,t) = 0, t \ge 0; \\
(3) \quad u(x,0) = \phi(x), x \ge 0; \\
(4) \quad u_t(x,0) = \psi(x), x \ge 0.
\end{cases}
$$

Олдинги ҳолдагидай ҳаракат қиламиз. Лекин бизларни фақат жуфт давом эттириш қаноатлантиради:

$$
\Phi(x) = \begin{cases} \phi(x), x \ge 0; \\ \phi(-x), x < 0. \end{cases} \qquad \Psi(x) = \begin{cases} \psi(x), x \ge 0; \\ \psi(-x), x < 0. \end{cases}
$$

4

1. Иккинчи чегаравий масала

Янги Коши масаласи ва унинг учун Даламбер формуласи бўйича ечими 2-чи маърузада кўрсатганимздек бўлади:

$$
U(x,t) = \frac{\Phi(x-at)+\Phi(x+at)}{2} + \frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at} \Psi(\xi)d\xi.
$$

Одлинги холдагидек,

$u(x,t) = U(x,t), \quad x, y > 0$ бўлсин. У ҳолда (1), (3), (4) шартларнинг бажарилиши аён. (2) шартни текширамиз. Даламбер формуласини дифференциалласак ва $\Psi(t)$ жуфт функциянинг ҳосиласи тоқ функция бўлишини инобатга олиб, қуйидаги тенгликни ҳосил қиламиз:

$$
u_x(0,t) = U_x(0,t) = \frac{\Phi'(at)+\Phi'(-at)}{2} + \frac{1}{2a}[\Psi(at) - \Psi(-at)]
$$

$\Phi'(t)$ тоқлигидан ва $\Psi(t)$ жуфтлигидан кўринадики иккала ҳад ҳам нолга тенг.

$u(x,t)$ учун умумий формула шунга ўхшаш олинади.

5

2. Ўзгарувчиларни алмаштириш усули

$[0, l]$ кесмада ортрнормаллашган функциялар системаларини қараймиз.

$$
\left\{\sqrt{\frac{2}{l}}\sin(\frac{\pi n}{l}x)\right\}, n = 1, 2, 3, \ldots \qquad \left\{\frac{1}{\sqrt{l}}\sqrt{\frac{2}{l}}\cos(\frac{\pi n}{l}x)\right\}, n = 1, 2, 3, \ldots
$$

Фурье коэффициентларини қўйидагича аниқланади:

$$
\phi_n = \int_0^l \phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds; \qquad \tilde{\phi}_n = \int_0^l \phi(s)\cos(\frac{\pi n}{l}s)ds.
$$

У ҳолда, математик анализ курсидан маълумки, агар $\phi(x) \in C[a;b]$ бўлса $\sum_{n=1}^{\infty}\phi_n^2$ ва $\sum_{n=1}^{\infty}\tilde{\phi}_n^2$ қаторлар яқинлашади.

,

6

2. Ўзгарувчиларни алмаштириш усули

Буни эслаб қоламиз ва бир жинсли чегаравий шартлар билан берилган бир жинсли тебраниш тенгламаси учун биринчи чегаравий масалага ўтамиз:

$$
[1.2]\begin{cases}
(1) \quad u_{tt} = a^2 u_{xx}, 0 < x < l, t > 0; \\
(2) \quad u(0,t) = u(l,t) = 0, t \ge 0; \\
(3) \quad u(x,0) = \phi(x), 0 \ge x \ge l; \\
(4) \quad u_t(x,0) = \psi(x), 0 \ge x \ge l.
\end{cases}
$$

Унинг ечимини қуйидаги усул билан топамиз: бирор $u(x,t)$ функцияга келтирувчи алмаштиришларни бажарамиз, сўнгра маълум бир шартларни қаноатлантирувчи $\phi(x)$ ва $\psi(x)$ функциялар учун бу функция мавжуд бўлишини ва берилган масала ечими эканлигини исботлаймиз.

7

2. Ўзгарувчиларни алмаштириш усули

Ечимни $v(x,t) = X(x)T(t)$ кўринишда излаймиз. Бу нолга айнан тенг бўлмаган функция бўлсин.

$v(x,t)$ ни тебраниш тенгламасига қўйиб, қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$T''(t)X(x) = a^2 X''(x)T(t) \Rightarrow \frac{X''(x)}{X(x)} = \frac{T''(t)}{a^2 T(t)} = -\lambda$$

бу ерда λ қандайдир ўзгармас сон. Бу айниятлардан иккита тенглама келиб чиқади:

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0, 0 < x < l; \\ T''(t) + \lambda a^2 T(t) = 0, t > 0. \end{cases}$$

$X(0) = X(l) = 0$ да

$v(x,t)$ фунция (2) шартни қаноатлантиради.

8

3. Штурм – Лиувилл масаласи

Қуйидаги

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0, 0 \le x \le l; \\ X(0) = X(l) = 0. \end{cases}$$

Штурм – Лиувилл масаласининг тривиал бўлмаган ечимларни топамиз.

Иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси учун ечимни чиқаришда, қуйидаги хос қийматлар ва уларга мос хос функциялар тўғри келади (буни бизлар кейинчалик кўрсатамиз):

$$\lambda_n = (\frac{\pi n}{l})^2; \quad X_n(x) = \sin(\frac{\pi n}{l}x), n = 1, 2, \ldots$$

Топилган λ_n ларни $T(t)$ учун тузилган тенгламага қўямиз:

$$T_n''(t) + (\frac{\pi n}{l}a)^2 T_n(t) = 0 \Rightarrow T_n(t) = a_n \cos(\frac{\pi n}{l}at) + b_n \sin(\frac{\pi n}{l}at),$$

бу ерда a_n ва b_n лар қандайдир ўзгармаслар.

9

3. Штурм – Лиувилл масаласи

Шундай қилиб (1), (2) шартлар қаноатлантирадиган $X_n(x), T_n(t)$ функцияларни топдик. $v_n(x,t) = X_n(x)T_n(t)$ деб оламиз. Равшанки, бу функция учун ҳам (1), (2) шартлар бажарилади. (3), (4) шартлардан a_n, b_n константаларни

$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} u_n(x,t)$ деб оламиз;

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} u_n(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \sin(\frac{\pi n}{l}x)[a_n \cos(\frac{\pi n}{l}at) + b_n \sin(\frac{\pi n}{l}at)];$$

$$\phi(x) = u(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} a_n \sin(\frac{\pi n}{l}x) \Rightarrow a_n = \frac{2}{l}\int_0^l \phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds;$$

10

3. Штурм – Лиувилл масаласи

$$\psi(x) = u_t(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty}(b_n \frac{\pi n a}{l})\sin(\frac{\pi n}{l}x) \Rightarrow \frac{\pi n a}{l}b_n = \frac{2}{l}\int_0^l \psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds \Rightarrow$$

$$b_n = \frac{2}{\pi n a}\int_0^l \psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds.$$

Натижада, константаларни топдик, энди тўла формулани ёзамиз;

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty}[\frac{2}{l}\int_0^l \cos(\frac{\pi n}{l}s)\phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds + \frac{2}{\pi n a}\int_0^l \sin(\frac{\pi n}{l}at)\psi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds]\sin(\frac{\pi n}{l}x). \tag{1.6}$$

Энди бу формула коррект бўладиган шартларни ифодалаймиз.

11

4. Мавжудлик теоремаси

Теорема 1.3. (мавжудлик)

$$\phi(x)\in C^3[0;l],\phi(0)=\phi(l)=\phi''(0)=\phi''(l)=0;$$

$$\psi(x)\in C^2[0;l],\psi(0)=\psi(l)=0.$$

бўлсин. У ҳолда (1.6) формула билан аниқланадиган $u(x,t)$ **функция қуйидаги хоссаларга эга:**

$$u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;t]\}(T-\textit{ихтиёрий}>0)$$

ва (1)-(4) шартларни қаноатлантиради ([1.2] чегаравий масала ечими бўлади).

Исбот: $u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$

эканлигини исботлаймиз;

12

4. Мавжудлик теоремаси

$$\phi_n=\int_0^l\phi(s)\sin(\frac{\pi n}{l}s)ds=\{\textit{бўлаклаб интеграллаймиз}\}=$$

$$=-\phi(s)\frac{l}{\pi n}\cos(\frac{\pi n}{l}s)\Big|_0^l+\frac{l}{\pi n}\int_0^l\phi'(s)\cos(\frac{\pi n}{l}s)ds=$$

$$=\{\textit{ яна бир марта бўлаклаб интеграллаймиз }\}=$$

$$=\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\phi'(s)\sin\left(\frac{l}{\pi n}s\right)\Big|_0^l-\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\int_0^l\phi''(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=$$

$$=\left(\frac{l}{\pi n}\right)^3\phi''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)\Big|_0^l-\left(\frac{l}{\pi n}\right)^3\int_0^l\phi'''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.$$

$$\tilde{\phi}_n=\int_0^l\phi'''(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.\qquad n^3|\phi_n|=\left(\frac{l}{\pi}\right)^3|\tilde{\phi}_n|.$$

13

4. Мавжудлик теоремаси

Юқорида айтиб ўтилган хоссага кўра $\sum_{n=1}^{\infty}\tilde{\phi}_n^2$ қатор яқинлашади. Бундан $\sum_{n=1}^{\infty}n^2|\phi_n|$ қаторнинг яқинлашувчилиги келиб чиқишини кўрсатамиз:

$$\sum_{n=1}^{\infty}n^2|\phi_n|=\left(\frac{l}{\pi}\right)^3\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}|\tilde{\phi}_n|\le\left\{ab\le\frac{a^2+b^2}{2}\right\}\le\left(\frac{1}{n}\right)^3\left[\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^2}+\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}\tilde{\phi}_n^2\right]$$

Шундай қилиб, бизда иккала қатор ҳам яқинлашувчи қаторлар, шунинг учун $\sum_{n=1}^{\infty}n^2|\phi_n|$ **қатор мажорант аломатига кўра яқинлашади. Шунга ўхшаш**

$$\psi_n=\int_0^l\psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=\{\textit{ бўлаклаб интеграллаймиз }\}=$$

14

4. Мавжудлик теоремаси

$$=-\psi(s)\frac{l}{\pi n}\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\Big|_0^l+\frac{l}{\pi n}\int_0^l\psi'(s)\cos\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds=$$

$$=\{\textit{ яна бир марта бўлаклаб интеграллаймиз}\}=$$

$$=\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\psi'(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)\Big|_0^l-\left(\frac{l}{\pi n}\right)^2\int_0^l\psi''(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds$$

Шунга ўхшаш, $\sum_{n=1}^{\infty}n|\psi_n|$ **қаторнинг яқинлашишини кўрсатиш мумкин.**

$\left|\cos\left(\frac{\pi n}{l}st\right)\right|$ ни бир билан чегаралаб, $u(x,t)$ учун (1.6) қатор Вейерштрасс аломатига кўра текис яқинлашади (мажорант бўлиб

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{2}{l}|\phi_n|+\frac{2}{\pi n a}|\psi_n|\right]$$

яқинлашувчи қатор ҳисобланади).

15

4. Мавжудлик теоремаси

Бундан ташқари $u(x,t)$ бу ҳолда $[0;l]\times[0;T]$ да узлуксиз. Шунга ўхшаш x бўйича биринчи ва иккинчи ҳосилалар мавжудлиги ва узлуксизлиги учун (1.6) формуладаги мос ҳосилалардан иборат қаторнинг текис яқинлашишини кўрсатиш етарли. x бўйича дифференциаллаб, қуйидагиларни оламиз.

$$u_x(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\pi n}{l}\left[\begin{array}{l}\dfrac{2}{l}\displaystyle\int_0^l\cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds+\\ +\dfrac{2}{\pi na}\displaystyle\int_0^l\cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\end{array}\right]\cos\left(\frac{\pi n}{l}x\right).$$

$$u_{xx}(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2\left[\begin{array}{l}\dfrac{2}{l}\displaystyle\int_0^l\cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\phi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds+\\ +\dfrac{2}{\pi na}\displaystyle\int_0^l\cos\left(\frac{\pi n}{l}at\right)\psi(s)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds\end{array}\right]\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right).$$

4. Мавжудлик теоремаси

У ҳолда (Вейерштрасс аломатига кўра)

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\pi n}{l}\left(\frac{2}{l}|\phi_n|-\frac{2}{\pi na}|\psi_n|\right)\ ,\ \sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2\left(\frac{2}{l}|\phi_n|-\frac{2}{\pi na}|\psi_n|\right)$$

қаторлар яқинлашишини кўрсатиш етарли. У $\sum_{n=1}^{\infty}n^2|\phi_n|$ ва $\sum_{n=1}^{\infty}n|\psi_n|$ қаторлар учун ҳозир исбот қилинган хоссалардан келиб чиқади.

Шунинг учун ўша мулоҳазаларни t бўйича ҳосилалар учун утказиб, натижада $u(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ни ҳосил қиламиз. Бу ҳолда осон текшириш мумкинки (1.6) формула билан белгиланадиган $u(x,t)$ функция тебраниш тенгламасини қаноатлантиради (яъни (1) шартни).

4. Мавжудлик теоремаси

Бундай $u(x,t)$ функция (2)-(4) шартларни қаноатлантириши

уни кўришдан қурилади – чегаравий ва бошланғич шартлар ҳисобга олинган.

Теорема исботланди.

Шундай қилиб, ечим қурилди. Баъзи шартларда бу ечим ягона эканлигини исботлаймиз.

1–чи чегаравий масала ягоналиги

Қуйидаги умумий 1–чи чегаравий масалани қараймиз:

$$[1.3]\quad\begin{cases}U_{tt}=a^2U_{xx}+f(x,t), & 0<x<l,\quad 0<t<T\\ U(0,t)=\mu_1(t), & 0\le t\le T;\\ U(l,t)=\mu_2(t), & 0\le t\le T;\\ U(x,0)=\phi(x), & 0\le x\le l;\\ U_t(x,0)=\varphi(x), & 0\le x\le l;\end{cases}$$

Бу чегаравий масаланинг ечими ягоналигини исботлаймиз.

1-чи чегаравий масала ягоналиги

Теорема 1.4 (ягоналик). Фраз қилайлик

$u_1, u_2(x,t) \in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ва u_1, u_2

функциялар бир хил [1.3] чегаравий масаланинг ечими бўлсин, у ҳолда $\{[0;l]\times[0;T]\}$ сохада $u_1(x,t)\equiv u_2(x,t)$

Исбот: кўриниб турибдики функция $v(x,t)=u_1-u_2$

бизнинг чегаравий масаланинг $f,\varphi,\phi,\mu_1,\mu_2$

функциялар айнан 0 га тенг булгадаги ечим бўлади. Шудай қилиб

$v(x,t)\in C^2\{[0;l]\times[0;T]\}$ ва

$$\begin{cases} v_{tt}=a^2 v_{xx},\ 0<x<l, 0<t<T; \\ v(0,t)\equiv v(l,t)\equiv v(x,o)\equiv v_t(x,0)\equiv 0 \end{cases}$$

20

1-чи чегаравий масала ягоналиги

$v(x,t)\equiv 0$ исботлаш талаб этилади.

$$E(t)=\int_0^l\left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$$

функцияни аниқлаймиз ва уни энергия интеграли деб атаймиз. Мисол учун бизнинг тебранувчи торимизнинг ўзгармасгача аниқлик билан олинган тўла энергия деб физикавий интерпретация ўйлаш мумкин. Кўриниб турибдики, бизнинг v функция шартларида $E(t)$ дифференциаланувчи функциядир.

Демак унинг хосиласи қуйидагича ҳисобланади:

$$E'(t)=\int_0^l\left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t)+2a^2v_x(x,t)\right]dx$$

21

1-чи чегаравий масала ягоналиги

Бу интегралда иккинчи қўшилувчини x бўйича бўлаклаб интеграллаб қуйидаги ифодага келамиз:

$$E'(t)=\int_0^l\left[2v_t(x,t)v_{tt}(x,t)-2a^2v_{xx}(x,t)v_{xx}(x,t)\right]dx+2a^2v_x(x,t)v_t(x,t)\Big|_0^l$$

$v(x, t)$ тебраниш тенгламасини ечими эканлигини эсда тутган ҳолда, интеграл остидаги ифода айнан 0 га тенг эканлигини аниқлаймиз. Чегаравий шарларни t бўйича дифференциаллаб

$$v_t(0,t)\equiv 0\equiv v_t(l,t)$$

ни хосил қиламиз. Бундан хулоса: интеграл ташқарисидаги қўшилувчиси 0га тенг. Демак $E'(t)\equiv 0$ ёки

$$E(t)=\int_0^l\left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx\equiv const$$

22

1-чи чегаравий масала ягоналиги

Умуман олаганда биз ёпиқ [1.3] тенгламар билан ифодаланувчи системада энергия сақланиш қонунининиг яна бир кўринишига эга бўлдик — энергия сони доимийдир. Кўриниб турибдики

$$E(t)=E(t)=\int_0^l\left[(v_t(x,t))^2+a^2(v_x(x,t))^2\right]dx$$

Бошлангич шартлардан қуйидагига эга бўламиз.

$$v_t(x,0)=v_x(x,0)=0,\quad 0\geq x\geq l,$$

23

1-чи чегаравий масала ягоналиги

Демак, $E(0)=0 \Rightarrow E(t)\equiv 0$

Интеграл остидаги функцияларнинг манфий бўлмаганлиги $v_t(x,t)\equiv v_x(x,t)\equiv 0$ га тенг эканлиги аниқланади. Бундан $v\equiv const$, бошлангич шартлардан эса $v\equiv 0$ эканлиги келиб чиқади. Теорема исботланди.

Эслатма: $\begin{cases} v_x(0,t)=0 \\ v_x(l,t)=0 \end{cases}$

иккинчи тур чегаравий шартларгаэга бўлган масала учун ҳам барча тасдиқларимиз ўринли. Теореманинг исботи ўзгармайди, фақат интеграл ташқарисидаги қўшилувчи нолга тенг эканлиги бошқа усулда. Бундат ташқари, теореманинг барча тасдиқлари аралаш кўринишдаги чегаравий шартлар учун ҳам ўринлидир.

24

Саволлар.

1. *Ярим тўғри чизиқдаги бир жинсли чегаравий шарт билан берилган иккинчи чегаравий масала қуйилишини келтиринг*
2. *Иккинчи чегаравий масаланинг Даламбер формуласи бўйича ечимини келтиринг.*
3. *Ўзгарувчиларни алмаштириш усули.*
4. *Бир жинсли чегаравий шартлар билан берилган бир жинсли тебраниш тенгламаси учун биринчи чегаравий масалани келтиринг.*
5. *Штурм – Лиувилл масаласи.*
6. *Мавжудлик теоремаси.*
7. *Умумий 1 – чегаравий масалани қўйилишини келтиринг.*
8. *Умумий 1 – чегаравий масала ягоналиги.*

25

Математик физика тенгламалари

маърузалар

Маъруза № 4.

Мавзу:

Энергия интегралининг тебраниш тенгламаси учун чегаравий масала ечимининг ягоналиги

1

Маъруза № 4
Энергия интегралининг тебраниш тенгламаси учун чегараий масала ечимининг ягоналиги

Режа:

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.
2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.
3. Маьлумотлар характеристикаларда берилган масаланинг ягоналиги.

Таянч иборалар

чегаравий масала,
характеристика,
интеграл тенглама,
тебраниш тенгламаси,
энергия интеграли

3

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.

Қуйидаги масалани қараймиз

$$[1.4]\quad \begin{cases} (1)\quad u_{xy}(x,y) = a(x,y)u_x(x,y) + b(x,y)u_y(x,y) + \\ + f(x,y,u(x,y)),\quad 0 < x < l_1,\quad 0 < x < l_2 \\ (2)\quad u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l_1; \\ (3)\quad u(0,y) = \varphi(y), \qquad 0 \le y \le l_2; \end{cases}$$

Бу гиперболик типдаги чизиқли бўлмаган тенглама учун берилган масала **Гурса масала**си деб аталади. Илгари берилган таърифга кўра (1) тенгламанинг характеристикалари бу *dxdy=0* тенгламани қаноатлантирувчи функциялар бўлади. Бу эса *x=const*, *y=const* кўринишдаги тўғри чизиқлар оиласини билдиради. Шундай қилиб, бизнинг *u(x, y)* функциямизнинг *x=0*, *y=0* характеристикалардаги маълумотлар билан берилади.

4

1. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала. Интеграл тенгламаларнинг эквивалент системаси.

Таъриф: ***U(x, y)*** **функция [1.4] масаланинг ечими деб аталади, агарда** $u(x,y) \in C^2\{[0;l_1] \times [0;l_2]\}$

ва (1) – (3) шартларни қаноатлантирилса.

Берилган масаланинг ечими мавжудлиги ва ягонлигини бир неча этапларда исботлаймиз. Дастлаб биз [1.4] масалани қандайдир чизиқли бўлмаган интеграл тенгламалар системасига эквивалент эканлигини кўрсатамиз.

Фараз қилайли, *U(x, y)* функция [1.4] масаланинг ечими бўлсин. У ҳолда (1) тенгламани дастлаб *y* бўйича кейин *x* бўйича интеграллаб, қўйидагини хосил қиламиз:

$$u_x(x,y) = u_x(x,0) + \int_0^y a(x,\eta)u_x(x,\eta)d\eta +$$
$$+ \int_0^y b(x,\eta)u_y(x,\eta)d\eta + \int_0^y f(x,\eta,u(x,n))d\eta;$$

$$u(x,y) = u(0,y) + u(x,0) - u(0,0) + \int_0^x\int_0^y a(\xi,\eta)u_x(\xi,\eta)d\eta d\xi + \\ + \int_0^x\int_0^y b(\xi,\eta)u_y(\xi,\eta)d\eta d\xi + + \int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\eta d\xi \qquad (1.7)$$

Иккита янги функияларни киритамиз $\begin{cases} v(x,y) = u_x(x,y) \\ w(x,y) = u_y(x,y) \end{cases}$

У ҳолда, (2)-(3) бошланғич шартларни қўллаб, (1.7) тенгламани қўйидаги кўринишда ёзиш мумкин:

$$u(x,y) = \varphi(0,y) + \phi(x,0) - \phi(0) + \\ \int_0^x\int_0^y [a(\xi,\eta)v(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w(\xi,\eta)]d\xi d\eta + \int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u(\xi,\eta))d\xi d\eta \qquad (1.8)$$

Буни *x* бўйича дифференциаллаб, қўйидагини хосил қиламиз:

$$v(x,y) = \phi'(x) + \int_0^y [a(x,\eta)v(x,\eta) + b(x,\eta)w(x,\eta)]d\eta + \int_0^y f(x,\eta,u(x,\eta))d\eta \qquad (1.9)$$

6

Худди шундай y бўйича дифференциаллаймиз:

$$w(x,y)=\varphi'(y)+\int_0^x\left[a(\xi,y)v(\xi,y)+b(\xi,y)w(\xi,y)\right]d\xi+\int_0^x f(\xi,y,u(\xi,y))d\xi \quad (1.10)$$

Демак, агар *u(x,y)* [1.4] масалани ечими бўлса у ҳолда (1.8) – (1.10) тенгламаларини қаноатлантирувчи *v (x, y), w(x, y)* функсиялар мавжуд бўлади. Тескариси: (1.8) – (1.10) тенгламаларнинг ечимлари бўлган *u, v,w*- узлуксиз функцияларнинг мавжудлигидан $v=u_x; \quad w=u_y$

эканлиги келиб чиқади. Шунингдек бевосита дифференциаллашдан *u(x,y)* функсиялар [1.4] масалани ечими эканлигини текшириб кўриш мумкин.

7

2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.

Теорема [1.5]: (Мавжудлик теоремаси)

Қуйидаги тўртта шарт бажарилган бўлсин:

1. $a(x,y), \quad b(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\}$
2. $f(x,y,p)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}$

яъни, бизлар u(x, y) функцияни p ихтиёрий қиймат қабул қилувчи ўзгарувчи билан алмаштирдик

3. $\left|f(x,y,p_1)-f(x,y,p_2)\right|\le L\left|p_1-p_2\right|,$

$\forall x\in[0;l_1], \quad \forall y\in[0;l_2], \quad \forall p_1,p_2\in E$

p ўзгарувчи бўйича Липшиц шартидир

4. $\phi(x)\in C^1[0;l_1], \quad \varphi(y)\in C^1[0;l_2], \quad \phi(0)=\varphi(0)$

8

У ҳолда [1. 4] масаланинг ечими мавжуд.

Исбот. [1.4] масала (1.8)-(1.10)га эквивалентлигини хисобга олиб, (1.8)-(1.10)ни қаноатлантирувчиu *(x, y), v(x, y), w(x, y)* узлуксиз функциялар мавжудлигини исботлаймиз. Бу функцияларни итерациялар кетма-кетлиги ёрдамида топамиз. Кетма-кет интерацияллар процессини қуйидагича кўрамиз:

$$\begin{cases} u_0(x,y)=v_0(x,y)=w_0(x,y)=0 \\ u_{n+1}(x,y)=\varphi(y)+\phi(x)-\phi(0)+\int_0^x\int_0^y\left[a(\xi,\eta)v_n(\xi,\eta)+b(\xi,\eta)w_n(\xi,\eta)\right]d\eta d\xi+ \\ +\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u_n(\xi,\eta))d\eta d\xi \\ u_{n+1}(x,y)+\phi'(y)+\int_0^y\left[a(x,\eta)v_n(x,\eta)+b(x,\eta)w_n(x,\eta)\right]d\eta+\int_0^y f(x,\eta,u_n(x,\eta))d\eta \\ w_{n+1}(x,y)+\varphi'(y)+\int_0^x\left[a(\xi,y)u_n(\xi,y)+b(\xi,\eta)w_n(\xi,y)\right]d\xi+\int_0^x f(\xi,y,u_n(\xi,y))d\xi \end{cases}$$

9

Бу процессни яқинлашувчи эканлигини исботлаймиз. Бунинг учун

u_n, v_n, w_n **кетма-кетликларнинг ҳадлари орасидаги фарқларни баҳолаймиз.**

u_n **учун итерация таърифидан ва теореманинг (3) шартларидан қўйидаги тенгсизлик келиб чиқади:**

$$\left|u_{n+1}-u_n\right|\le\int_0^x\int_0^y\left[\left|a(\xi,\eta)\right|\left|v_n(\xi,\eta)-v_{n-1}(\xi,\eta)\right|+\left|b(\xi,\eta)\right|\left|w_n(\xi,\eta)-w_{n-1}(\xi,\eta)\right|\right]d\xi d\eta+$$

$$+\int_0^x\int_0^y L\left|u_n(\xi,\eta)-u_{n-1}(\xi,\eta)\right|d\xi d\eta$$

Фараз қилайлик: $(x,y)\in\{[0;l_1]\times[0;l_2]\times E\}da$

$M=\max\{\max\left|a(x,y)\right|\max\left|b(x,y)\right|,L\}$ **Шунда:**

$$\left|u_{n+1}-u_n\right|\le M\int_0^x\int_0^y\left[\left|v_n(\xi,\eta)-v_{n-1}(\xi,\eta)\right|+\right. \quad (1.11)$$

$$\left.+\left|w_n(\xi,\eta)-w_{n-1}(\xi,\eta)\right|+\left|u_n(\xi,\eta)-u_{n-1}(\xi,\eta)\right|\right]d\xi d\eta$$

10

v_n, w_n функциялар учун ҳам худди шундай:

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^y [|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|+ \qquad (1.12)$$

$$+|w_n(x,\eta)-w_{n-1}(x,\eta)|+|u_n(x,\eta)-u_{n-1}(x,\eta)|]d\eta$$

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^x [|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|+ \qquad (1.13)$$

$$+|w_n(\xi,y)-w_{n-1}(\xi,y)|+|u_n(\xi,y)-u_{n-1}(\xi,y)|]d\xi$$

Итерация процессининг барча элементлари узлуксиз функциялар бўлганлиги сабабли, бундан $|u_n|,|v_n|,|w_n|$ функция қандайдир H ўзгармас билан чегараланганлиги келиб чиқади.

Кетма-кетликнинг нольга тенг бўлган хадларнинг таърифидан $|u_1-u_1|\le M, |v_1-v_1|\le M, |w_1-w_1|\le M$ келиб чиқади. Буни қўллаб қуйидаги айирмани баҳолаймиз:

$$|u_2-u_1| \le M\int_0^x\int_0^y 3Hd\xi d\eta = 3HMxy \le 3HM\,\frac{(x+y)^2}{2}$$

$$|v_2-v_1| \le M\int_0^y 3Hd\eta = 3HMy \le 3HM(x+y)^2$$

$$|w_2-w_1| \le M\int_0^x 3Hd\xi = 3HMx \le 3HM(x+y)$$

Кетма – кетликни текис яқинлашувчи эканлигини исботлаш учун мажорант қатор қўришга тўғри келади, лекин дастлаб қуйидаги баҳони исботлаймиз.

$$|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{\,n-1}K^{\,n-2}\frac{(x+y)^2}{2};$$

$$|v_n(x,y)-v_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{\,n-1}K^{\,n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

$$|w_n(x,y)-w_{n-1}(x,y)| \le 3HM^{\,n-1}K^{\,n-2}\frac{(x+y)^{n-1}}{(n-1)!};$$

Бу ерда $K=2+l_1+l_2;$

Исботни индукция билан кўрамиз.

Индукция базаси. Юқорида исботланганидек n=2 учун ўринли

Индукция фарази. Фараз қилайлик n учун ўринли.

$n+1$ учун исботлаймиз . Индуктив ўтиш .

Индукция фаразидан фойдаланиб $|u_{n+1}-u_n|$ айирмани баҳолаймиз:

$$|u_{n+1}-u_n| \le M\int_0^x\int_0^y\left[3HM^{\,n-1}K^{\,n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{\,n-1}K^{\,n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\xi d\eta \le$$

$$\le 3HM^{\,n}K^{\,n-2}\left[\int_0^x \frac{(\xi+\eta)^{n+1}}{(n+1)!}\Big|_0^y d\xi + 2\int_0^x \frac{(\xi+\eta)^n}{n!}\Big|_0^y d\xi\right]$$

Интегрални ҳисоблайлик. Бунда бошланғич интеграл чегараларини қўйишда қуйи чегарани ташлаб юборамиз. Уларни қўшилувчилари манфий бўлиб,юқоридаги айирма учун шундай баҳони юқори чегара асосида ҳосил қиламиз:

$$\left|u_{n+1}-u_n\right| \le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+2}}{(n+2)!}+2\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\right]=$$

$$3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}\left[\frac{x+y}{n+2}+2\right]\le$$

$$\le\left\{\frac{x+y}{n+2}+2\le l_1+l_2+2=K\right\}\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}$$

15

Шундай қилиб u_n кетма-кетлик учун индукция фарази исботланган.

Қолган иккита кетма-кетлик учун баҳонинг исботи шунга ўхшаш бўлади.

$$\left|u_{n+1}-u_n\right|\le M\int_0^y\left[3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^n}{n!}+2\cdot 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(\xi+\eta)^{n-1}}{(n-1)!}\right]d\eta\le$$

$$\le 3HM^nK^{n-2}\left[\frac{(x+y)^{n+1}}{(n+1)!}+2\frac{(x+y)^n}{n!}\right]=3HM^nK^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\left[\frac{x+y}{n+1}+2\right]\le$$

$$\le 3HM^nK^{n-1}\frac{(x+y)^n}{n!}$$

Демак иккинчи баҳо ҳам тўғри . Учинчи баҳонинг исботи хам шу кўринишда бўлади ,шунинг учун уни ташлаб кетамиз. Энди u_n, v_n, w_n кетма –кетликларни текис якинлашувчи эканлигини исботлаймиз

Кўриниб турибдики бундай кетма-кетликнинг ҳар бир ҳадини тегишли қаторнинг қисмий йиғиндиси шаклида ифодалаш мумкин.

16

$$u_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(u_m(x,y)-u_{m-1}(x,y)\right);$$

$$v_n(x,y)=\sum_{m=1}^{n}\left(v_m(x,y)-v_{m-1}(x,y)\right);$$

$$w_n(x,y)=\sum_{m-1}^{n}\left(w_m(x,y)-w_{m-1}(x,y)\right);$$

Биринчи қаторнинг қўшилувчилари учун биз баҳони исботлаган эдик.

17

$$\left|u_n(x,y)-u_{n-1}(x,y)\right|\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(x+y)^n}{n!}\le$$

$$\le 3HM^{n-1}K^{n-2}\frac{(l_1+l_2)^n}{n1}=C\frac{a^n}{n!},\quad C,a=const.$$

Маьлумки,

$\sum_{n=1}^{\infty}c\frac{a^n}{n!}$ қатор яқинлашувчи. Бундан Вейерштрасс аломатига кўра u_n кетма-кетликни текис яқинлашишини ҳосил қиламиз.

Қўшилувчиларнинг узликсизлигидан лимитик функциянинг узлуксизлиги келиб чиқади.

Шунга ўхшаш қолган икки кетма-кетлик учун ҳам кўрсатиш мумкин:

$$v_n(x,y)\Rightarrow v(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

$$w_n(x,y)\Rightarrow w(x,y)\in C\{[0;l_1]\times[0;l_2]\};$$

18

2. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.

Энди биз $n \to \infty$

да лимитни ҳисоблаш итирацион жараёнини ёзишга ҳақлимиз. Бу эса ушбу тенгламалар системасининг ечими бўлган u, v, w

функцияларнинг мавжудлигини билдиради. Бу тенгламалар системасини бошланғич [1.4]га эквивалент деб олсак теорема бутунлай исботланади. Теорема исботланди. □

3. Маълумотлар характеристикаларда берилган масаланинг ягоналиги.

Шундай қилиб[1.4] масаланинг мавжудлигини исботладик. Энди унинг ягоналигини исботладик-равшанки бу (1.8)-(1.10) интеграл тенгламалар системаси ечимининг ягоналигига эквивалентдир .

Теорема 1.6 (Ягоналик) *Фараз қилайлик* $\{u_1(x,y), v_1(x,y), w_1(x,y)\}$, $\{u_2(x,y), v_2(x,y), w_2(x,y)\}$;

Икки функциялар системаси мавжуд бўлиб, улар (1-8)-(1-10) интеграл тенгламалар системасининг ечимлари бўлсин ва унда [1.4] тенгламанинг ечими мавжудлиги ҳақидаги теоремани (1)-(4) шартлари бажарилган бўлсин, у ҳолда

$$U(x.y) = u_1(x,y) - u_2(x,y), \quad V(x,y) = v_1(x,y) - v_2(x,y),$$
$$W(x,y) = w_1(x,y) - w_2(x,y)$$

функциялар

$\prod_{l_1 l_2} = \{[0;l_1] \times [0;l_2]\}$ *тўғри тўртбурчакда айнан 0 га тенг бўлади.*

Исбот. Шундай қилиб u_1, u_2 –(1.8) интеграл тенгламани ечими бўлсин.

$$u_1(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) +$$
$$+\int_0^x\int_0^y [a(\xi,\eta)v_1(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_1(\xi,\eta)]d\eta d\xi +$$
$$\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u_1(\xi,\eta))d\eta d\xi;$$
$$u_2(x,y) = \varphi(y) + \phi(x) - \phi(0) +$$
$$+\int_0^x\int_0^y [a(\xi,\eta)v_2(\xi,\eta) + b(\xi,\eta)w_2(\xi,\eta)]d\eta d\xi +$$
$$+\int_0^x\int_0^y f(\xi,\eta,u_2(\xi,\eta))d\eta d\xi.$$

Биридан иккинчисини айириб ва $f(x,y,p)$,

учун Липшиц шартини қўллаб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$|u_2 - u_1| \le \int_0^x\int_0^y [M|v_2(\xi,\eta) - v_1(\xi,\eta)| +$$
$$+M|w_2(\xi,\eta) - w_1(\xi,\eta)| + M|u_2(\xi,\eta) - u_1(\xi,\eta)|]d\eta d\xi \Rightarrow$$

$$|U(x,y)| \le \int_0^x\int_0^y [M|V(\xi,\eta)| + M|W(\xi,\eta)| + M|U(\xi,\eta)|]d\eta d\xi \qquad (1.14)$$

Шунга ўхшаш натижа $V(x,y)$, $W(x,y)$ функциялар учун ҳам ўринли:

$$|V(x,y)| \le \int_0^y [M|V(x,\eta)| + M|W(x,\eta)| + M|U(x,\eta)|]d\eta;$$

$$|W(x,y)| \le \int_0^x [M|V(\xi,y)| + M|W(\xi,y)| + M|U(\xi,y)|]d\xi.$$

Бундан ушбу функциялар П тўғри тўртбурчакда 0 га тенглиги келиб чиқишини исботлаймиз. Дастлаб улар $\prod_{x_0 y_0} = \{[0;x_0]\times[0;y_0]\}$, тўғри тўртбурчакда 0 га тенглигини кўрсатамиз. Бу ерда x_0, y_0 қуйидаги шартларни қаноатлантиради:

$$\begin{cases} 3x_0 y_0 M < 1; \\ 3x_0 M < 1; \\ 3y_0 M < 1. \end{cases}$$

Фарз қилайлик:

$$\bar{U} = \max_{\Pi x_0 y_0}|U(x,y)|; \bar{V} = \max_{\Pi x_0 y_0}|V(x,y)|; \bar{W} = \max_{\Pi x_0 y_0}|W(x,y)|$$

Умумийликни чегараласдан, $\bar{U} \ge \max\{\bar{V}, \bar{W}\}$ бўлишини фараз килсамиз. Бу ҳолда (1.14) тенгсизликдан қуйидаги тенгсизлик келиб чиқади:

23

$$|U(x,y)| \le M\int_0^x\int_0^y [\bar{U} + \bar{U} + \bar{U}]ds \le 3Mx_0 y_0 \bar{U}, (x,y) \in \Pi_{x\,y_0} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \bar{U} \le 3Mx_0 y_0 \bar{U}.$$

$3x_0 y_0 M < 1$ бўлганлиги сабабли, бу фақат $\bar{U} = 0$ да бажарилади. Бундан кўриниб турибдики $U(x,y), V(x,y), W(x,y)$ функциялар Π_{x_0, y_0} да айнан 0 га тенг. Кейинги қадамда биз шундай x_1 ни оламизки,

$$\begin{cases} 3(x_1 - x_0) y_0 M < 1; \\ 3(x_1 - x_0) M < 1; \\ 3y_0 M < 1. \end{cases}$$

24

ва уни $\Pi_{x_1 y_0}$ тўғри тўртбурчакда қараймиз. У ҳолда (1.14) тенгсизлик қуйидаги кўринишга эга:

$$|U(x,y)| \le M\int_{x_0}^x\int_0^y [\bar{U} + \bar{U} + \bar{U}]ds, (x, y \in \Pi x_1 y_0)$$

Олдинги қадамга ўхшаш ҳаракат қилиб $U(x,y)$, $V(x,y)$, $W(x,y)$ Функциялар тўғри тўртбурчакда айнан 0 га тенглигини ҳосил қиламиз. Шундай мулахозаларни давом этиб, чекли сонли қадамлардан кейин бу функцияларнинг $\Pi_{l_1 y_0}$ да 0 га тенг,

Сўнгра эса $\Pi_{l_1 l_2}$ да ҳам нольга тенг эканлигини кўрсатиш мумкин.

Теорема исботланди. □

25

Саволлар.

1. Энергия интеграли
2. Маълумотлар характеристикаларда берилган масала.
3. Гурса масаласи.
4. Характеристикаларда берилган ечимнинг мавжудлиги.
5. Мавжудлик теоремаси.
6. Липшиц шарти.
7. Умумий 1 – чегаравий масала учун ягоналик теоремаси

26

Маъруза № 5

Мавзу:

«Қўшма дифференциал оператор. Риман усули. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар »

Режа:

1. Қўшма дифференциал оператор
2. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.
3. Риман усули.
4. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар
5. Интеграллик айният маъносидаги умумлашган ечимлар

Таянч иборалар: *оператор, дифференциал оператор, қўшма оператор, чегаравий масала, Грин формуласи, Риман усули, лимит, Даламбер формуласи, Пуассон тенгламаси.*

1. Қўшма дифференциал оператор.

E^n фазони қараймиз.Фараз қилайлик

$$x = (x_1, \dots, x_n)$$

бир сидра ўзгарувчилар, $u(x)$ эса n *ўзгарувчи функция бўлсин.*

Таъриф: Бирор $u(x) \in C^2(E^n)$ функциядан $L[u]$ дифференциал оператор қуйидагича аниқланади:

$$L[u] = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n} a_{ij}(x) u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n} b_i(x) u_{x_i} + c(x) u \quad (1.15)$$

Бу ерда $a_{ij}, b_i \in C^2(E^2)$, $c(x)$ қандайдир функциялар. тартибли хусусий ҳосила дифференциаллаш тартибига боғлиқ бўлмаганлиги сабабли $a_{ij}(x) = a_{ji}(x)$ бир бирига тугирликни қабул қилинади.

Таъриф. Ҳар қандай $L[u]$ дифференциал операторга ўзаро бир қийматли мослик бўйича келувчи $M[v]$ қўшма оператор олиш мумкин.

$$M[v] = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left(a_{ij}(x)v\right)_{x_i x_j} - \sum_{i=1}^{n}\left(b_i(x)v\right)_{x_i} + c(x)v$$

Таъриф. *Агар $L[u] = M[v]$ бўлса оператор ўз-ўзига бўлса оператор ўз-ўзига қўшма оператор дейил*

Бизга қуйидаги формула керак бўлади .

$$vL[u] - uM[v] = \sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} \quad (1.16)$$

Бу ерда $p_i(x) = \sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] + b_i uv.$

Бу формулани исботлаш учун $p_i(x)$ ни (1.16) нинг ўнг томонига қўямиз ва қўшилувчиларни гуруҳлайми

$$\sum_{i=1}^{n}\left(p_i(x)\right)_{x_i} = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[va_{ij}u_{x_i x_j} - u\left(a_{ij}v\right)_{x_j x_i}\right] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] +$$
$$+ \sum_{i=1}^{n}\left[vb_i u_{x_i} + u\left(b_i v\right)_{x_i}\right] + cuv - cuv = \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}va_{ij}u_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n}vb_i u_{x_i} + cuv -$$
$$-\left(\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}u\left(a_{ij}v\right)_{x_i x_j} + \sum_{i=1}^{n}u\left(b_i v\right)_{x_i} + cuv\right) + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right] =$$
$$vL[u] - uM[v] + \sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\left[\left(va_{ij}\right)_{x_i}u_{x_j} - u_{x_i}\left(a_{ij}v\right)_{x_j}\right]$$

Қолган иккиланган йиғинди 0 га тенг –бу қўшилувчилар индексларининг симметриклигидан келиб чиқади. Бу ердан(1.16) формула тўғрилиги келиб чиқади.

2. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.

Чизиқли алгебрада А операторга қўшма A^* операторни деб қуйидаги $(Au, v) = (u, A^*v)$ муносабат айтилади. Бу E^n дан олинган барча u,v лар учун бажарилиши керак эди. Бизнинг таърифимиз шу берилган таъриф билан

қанчалик мос келишини кўриб чиқамиз.

Мисол 1. $\Omega \subset E^3$ бўлсин ва скаляр кўпайтма қуйидагича аниқлансин :

$$(f, g) = \iiint_{\Omega} fg\,d\tau, \; f, g \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega})$$

у ҳолда $u, v \in C^2(\Omega) \cap C^1(\overline{\Omega})$ $u, v|\Sigma = 0,$

(Σ – Ω нинг чегараси) бўлган функциялар учун қуйидаги $(v, L[u]) = (M[v], u)$ ифода тўғри бўлсин

Буни кўрсатамиз

$$\left(v,L[u]\right)-\left(M[v],u\right)=\iiint_{\Omega}\left(vL[u]-uM[v]\right)d\tau=\{(1.16)\}=\iiint_{\Omega}\left(\frac{\partial p_1}{\partial x_1}+\frac{\partial p_2}{\partial x_2}+\frac{\partial p_3}{\partial x_3}\right)d\tau=$$

$$=\left\{\vec{P}=\left(p_1,p_2,p_3\right)\right\}=\iiint_{\Omega} div\vec{P}d\tau=\left\{\text{Остроградский}-\text{Гаусс}\quad \text{формуласи}(5.3)\right\}=$$

$$\iint_{\Sigma}\left(\vec{P},\vec{n}\right)d\sigma=\left\{\vec{n}=\left(n_x,n_y,n_z\right)\right\}=\iint_{\Sigma}\left(p_1n_x+p_2n_y+p_3n_z\right)d\sigma=0$$

$p_i\big|\Sigma=0, u,v$ учун чегаравий шартдан келиб чиқади.

Мисол 2. Қўшма оператор учун оддий мисол бу Лаплас оператори ҳисобланади, масалан E^3 да

$L[u]=\Delta u=u_{x_1x_1}+u_{x_2x_2}+u_{x_3x_3}$ бўлади Бу ерда

$M[u]=\Delta v$ текшириш осон.

3. Риман усули.

E^2 фазод $u(x,y)$ функция учун қуйидаги дифференциалланувчи операторни қараймиз:

$$L[u]=u_{xy}+a(x,y)u_x(x,y)+b(x,y)u_y(x,y)+c(x,y)u(x,y)$$

Таърифга кўра, унга қўшма оператор қуйидаги кўринишга эга:

$$M[v]=u_{xy}-\left(a(x,y)v\right)_x-\left(b(x,y)v\right)_x+c(x,y)v$$

Шундай қилиб, (1.15) формулада

$$a_{11}=a_{22}=0,\quad a_{12}=a_{21}=\frac{1}{2},\quad b_1=a,\quad b_2=b,\quad c=c.$$

Кўриниб турибдики (1.16) формуладаги P_1,P_2

лар қуйидагича ҳисобланади:

$$p_1=\frac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv;\quad p_2=\frac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv;$$

Энди OXY текислигида $y=f(x)$ эгри чизиқ берилган бўлсин, ва унда $\forall x$ лар учун $f'(x)<0$ Унинг графигини L_f билан белгилаймиз. Нуқталари $f(x)$ функция графигидан юқорида ётган ярим текисликни R_f^+ деб белгилаймиз:

$$R_f^+=\{(x,y):y>f(x)\},$$

Қуйидаги чегаравий масалани (шуни таъкидлаш лозимки, бу масала гиперболик типдаги тенглама учундир) кўриб чиқамиз:

$$[1.5]\quad\begin{cases}(1)\quad L[u]=F(x,y,), & (x,y)\in R_f^+;\\(2)\quad u(x,y)=\phi(x,y), & (x,y)\in L_f;\\(3)\quad \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\psi(x,y), & (x,y)\in L_f;\end{cases}$$

($L[u]$ (1.17) формуласи билан аниқланади.)

Келтирилган чегаравий масаланинг ечимини R_f^+ да излаймиз. Унинг ихтиёрий $A(x_0,y_0)\in R_f^+$ нуқтада қандай қилиб хисобланилишини кўрсатиберамиз. Бунинг учун биз A нуқтани L_f эгри чизиқ билан координата ўқларига парралел бўлган кесмалар воситасида бирлаштирамиз ва у орқали кесишув нуқталари $B(x,y_0)$ ва $C(x_0,y)$ ни ҳосил қиламиз.

AB, AC кесмалар ҳамда BC ёй орасида ҳосил бўлган контурни L деб, унинг ички қисмини D билан белгилаймиз. Қўшма дифференциал оператор $M[v]$ нинг (бунда v - муаян бир функция). (1.16) формуласидан фойдаланамиз.

$$\iint_D \left(vL[u]-uM[v]\right)ds=\iint_D\left(\frac{\partial p_1}{\partial x}+\frac{\partial p_2}{\partial y}\right)ds$$

Бунинг ўнг қисмини ўзгартириш учун эгри чизиқли интеграллар учун Грин формуласидан фойдаланамиз:

$$\int_L Pdx+Qdy=\iint_D (Q_x-P_y ds)$$

Бу ҳолда қуйидагига эга бўламиз.

$$\iint_D (vL[u]-uM[v])ds=\int_L -p_2dx-p_1dy=$$

(контур қисмлари координата ўқларига парралел)

$$\int_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv\right]dy-\left[\tfrac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv\right]dx \right\}+$$
$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv\right]dy+\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv\right]dx \qquad (1.18)$$

Маълумки,

$$\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv\right]dy+\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv\right]dx =$$

$$\underbrace{\int_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y-uv_y)+auv\right]dy}_{I_{CA}}+\underbrace{\int_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x-uv_x)+buv\right]dx}_{I_{BA}}$$

Бунгача биз v функцияни оддийгина икки карра узлуксиз дифференциалланувчи функция деб белгилаган эдик. Энди $M[v]=0$ бўлишини аниқроқ айтганда қуйидаги масаланинг ечими бўлиши керак:

$$\begin{cases}(4)\quad v_{xy}-(a(x,y)v)_x-(b(x,y)v)_y+c(x,y)v=0, \quad x\le x_0, y\le y_0;\\ (5)\quad v(x_0,y)=\exp\{\int_{y_0}^{y} a(x_0,s)ds\}, \quad y\le y_0;\\ (6)\quad v(x,y_0)=\exp\{\int_{x_0}^{x} b(s,y_0)ds\}, \quad x\le x_0;\end{cases}$$

Бу масала [1.4] кўринишдаги характеристикалар ёрдамида берилган маълумотларга эга бўлган масаладир. Олдинги бўлимларда кўрсатган эдикки унинг ечимидан исбот бўлган ва ягона бўлгани (x,y) функция мавжуд. Бу функция бизга маълум деб ҳисоблаймиз ва айнан шу функциядан фойдаланамиз.

Биринчи бошланғич тенгламадан $F(x,y)$ функцияни қўйган ҳолда $u(x,y)$ учун (1.18) ифодага қайтамиз.

$$\iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds = \int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \right.$$
$$\left. + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + I_{CA} + I_{BA}$$

I_{CA} I_{BA} интегралларда координаталаридан бири фиксирланганидан фойдаланамиз. $v(x,y)$ учун (4) шартдан $x=x_0$ бўлса, $v_y - av = 0$ бўлишини осон

аниқлаш мумкин. Шундай қилиб:

$$I_{CA} = \int\limits_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy = \int\limits_C^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_y - u(v_y - av)\right]dy =$$
$$= \tfrac{1}{2}(uv)\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C$$

Худди шундай, $y = y_0$ бўлганда $u_x - bu = 0$

эканлигини кўрсатиш мумкин. Демак,

$$I_{BA} = \int\limits_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx = \int\limits_B^A \left[\tfrac{1}{2}(vu)_x - u(v_x - bv)\right]dx =$$
$$\tfrac{1}{2}(uv)\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B$$

Шундай қилиб, (1.18) ифодани қуйидагича ёзиш мумкин.

$$\iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds = \int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy + \right.$$
$$\left. + \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + uv\big|_A - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C - \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B.$$

Бундан $A(x_0,y_0)$ нуқтада $u(x,y)$ функциясини қийматини аниқлаш мумкин:

$$u(x_0,y_0)v(x_0,y_0) = -\int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \right.$$
$$\left. \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\} + \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B + \iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds$$

$v(x,y)$ нинг (5), (6) чегаравий шатрлардан $v(x_0,y_0) = 1$ эканлиги келиб чиқади. У ҳолда

$$u(x_0,y_0) = -\int\limits_B^C \left\{ \left[\tfrac{1}{2}(vu_y - uv_y) + auv\right]dy - \left[\tfrac{1}{2}(vu_x - uv_x) + buv\right]dx \right\}$$
$$+ \tfrac{1}{2}(uv)\big|_C + \tfrac{1}{2}(uv)\big|_B + \iint\limits_D v(x,y)F(x,y)ds$$

ҳосил бўлади.

Бу $u(x_0,y_0)$ учун якуний формуладир. Контурдаги хусусий ҳосилалар $u(x,y)$ бизга ноаниқ эканлиги кўриниши мумкин. Уларни (2),(3) чегаравий шартлардан топиш мумкинлигини кўрсатамиз:

$$\begin{cases} u(x,f(x)) = \phi(x,f(x)); \\ \dfrac{\partial u}{\partial n}(x,f(x)) = \varphi(x,f(x)); \end{cases}$$

L_f га уринманинг бирлик вектори $\vec{\tau}$

қуйидаги кўринишга эга:

$$\vec{\tau}=\left\{\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}};\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\right\}.$$

Бундан қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\frac{\partial u}{\partial n}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}+\frac{\partial u}{\partial y}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

$\frac{\partial u}{\partial \tau}$ қуйидаги ўзгартиришлардан топилади.

$$\frac{\partial}{\partial n}u(x,f(x))=u_x(x,f(x))+u_y(x,f(x))f'(x)=\sqrt{1+(f'(x))^2}\frac{\partial u}{\partial \tau}(x,y).$$

Маълумки,

$$\frac{\partial y}{\partial n}=(\vec{n},gradu).$$

L_j га нормалнинг, $\vec{\tau}$ векторга ортогонал бўлган бирлик вектори қуйидагича ҳисобланади:

$$\vec{n}=\left\{\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}};-\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\right\}.$$

Бундан:

$$\frac{\partial u}{\partial n}(x,y)=\frac{\partial u}{\partial n}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}-\frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}$$

Юқоридагиларга асосланиб, чегаравий шартлардан L контурда $u(x,y)$ ни топиш учун системани ҳосил қиламиз.

$$\begin{cases}\frac{\partial}{\partial x}\phi(x,f(x))=\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{\partial u}{\partial y}f'(x)\\ \varphi(x,f(x))=\frac{\partial u}{\partial x}\frac{f'(x)}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}-\frac{\partial u}{\partial y}\frac{1}{\sqrt{1+(f'(x))^2}}\end{cases}$$

Унинг детерминанти ҳеч қаерда 0 га тенг эмас.
Бундан келиб чиқадики, $u_x(x,y)$ $u_y(x,y)$ лар мавжуд ва улар бир қийматли аниқланиши мумкин.
Шундай қилиб, биз (1.19) формула тўғрилигини асосладик. Уни ҳосил қилиш учун қўлланиладиган усул **Риман усули** дейилади.

Эслатма: Даламбер формуласи (1.19) формуланинг хусусий ҳолидан иборат узлуксиз умумлаштирилган ечим.Шундай ҳоллар бўладики, амалий масалаларнинг ечимлари бўлади. Бундай ечимлар Ушбу курсдаги стандарт формулалар ёрдамида ҳосил қилиб бўлмайди. Аммо, уларни масалан, оддий ечимларнинг чегарасидек тасвирлаш мумкин.

4. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар

Умумий ёндошув: $L[u]=0$ тенгламадан топиш лозим бўлган u функция берилган ва бунда шу функцияг баъзи бир F ва Ф функциялар кўринишида шартлар қўйилган бўлсин. Агар бу масала ечимга эга бўлмаса, масалан, $F \notin C^2, \Phi \notin C^2$ бўлганлиги туфайли бу ҳолда биз текис яқинлашувчи кетма-кетликлар $F_n \Rightarrow F, \Phi_n \Rightarrow \Phi$ ни тузамиз. Бу ерда $F \notin C^2, \Phi \notin C^2$. Шунда агар F_n ва Φ_n функцияларга мос келувчи ечим (u_n) мавжуд бўлса u сифатида u_n функцияларнинг лимитини оламиз:

$$u=\lim_{n\to\infty} u_n$$

Бунда u_n кетма-кетлик u га текис яқинлашиш шарти бажарилган.

Мисол. Бизларга берилган гиперболик тенглама учун Коши масаласини кўриб чиқамиз:

$$\begin{cases} u_{tt}=a^2u_{xx}, -\infty<x<+\infty, 0<t\le T; \\ u(x,0)=\phi(x), \quad -\infty<x<+\infty; \\ u_t(x,0)=\psi(x), \quad -\infty<x<+\infty \end{cases}$$

Маълумки агар $\phi\in C^2(E), \psi\in C^1(E)$ бўлса ечим Даламбер формуласи билан берилган бўлади?

$$u(x,t)=\frac{\phi(x-at)+\phi(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi$$

Фараз қилайлик бизларга худи шундай масалада $\overline{\phi},\overline{\psi}$ функция фақатгина узлуксиз бўлса, яъни биз Даламбер формуласидан фойдалана ололмаймиз. $0<t\le T$ полосада фикр юритамиз $[-d;d]$ кесмадан ташқарида $\overline{\phi}=\overline{\psi}=0$ бўлишини талаб қиламиз. Бу ерда d маълум бир ўзгармас. Бундай хосса $\operatorname{supp} \overline{\phi},\overline{\psi}=[-d;d]$ каби белгиланади. Фараз қилайликки шундай $\phi_n(x),\psi_n(x)$ функциялар мавжуд бўлиб, $\phi_n\in C^2(E), \psi_n\in C^1(E)$ шунингдек $|x|\ge 2d$ учун $\overline{\phi_n}(x)=\overline{\psi_n}(x)=0$, ҳамда $[-2(d+aT);2(d+aT]$ кесмада

$$\begin{cases} \phi_n(x)\Rightarrow\overline{\phi}(x); \\ \psi_n(x)\Rightarrow\overline{\psi}(x). \end{cases}$$

Φ_n ψ_n функцияларга мос келувчи Коши масаласинин ечими учун Даламбер формуласи ўринлидир.

$$u_n(x,t)=\frac{\phi_n(x-at)+\phi_n(x+at)}{2}+\frac{1}{2a}\int_{x-at}^{x+at}\psi(\xi)d\xi \quad \Rightarrow u_n(x,t)\in C^2\{E\times[0;T]\}$$

Бундай функцияларнинг лимитини бизлар ечим деб номлаймиз.

$$\overline{u}(x,t)=\lim_{n\to\infty}u_n(x,t)$$

Аниқлашни тўғри деб ҳисоблаш мумкин агар биз

$$\prod = \{(x,t) : -2d - aT \le x \le 2d + aT, 0 \le t \le T\}$$

Тўғри бурчакда $u_n(x,t)$ кетма-кетликнинг текис яқинлашишини кўрсата олсак (равшанки тўғри тўрт бурчақдан ташқарида кетма-кетликнинг барча ҳадлари 0 га айнан тенг). Бунинг учун u_n фундаментал кетма-кетлик эканлигини,яъни

$$\forall \varepsilon > 0 \quad \exists M : \forall m > M, \forall p > 0 \quad |u_{m+p}(x,t) - u_m(x,t)| < \varepsilon \quad \forall (x,t) \in \prod$$

Бу айирмани Даламбер формуласи орқали

баҳолаймиз.

$$|u_{m+p}(x,t) - u_m(x,t)| \le \frac{|\phi_{m+p}(x+at) - \phi_m(x+at)|}{2} + \frac{|\phi_{m+p}(x-at) - \phi_m(x-at)|}{2} +$$
$$+ \frac{1}{2}\int_{x-at}^{x+at} |\psi_{m+p}(\xi) - \phi_m(\xi)| d\xi$$

Ҳосил қилинган йиғиндини ҳар қандай илгаридан берилган ε дан кичик қилиш мумкин –бу текис яқинлашиш шартидан,демак Φ_n ψ_n кетма-кетликларнинг фундаменталлигидан келиб чиқади. Шундан ҳосил қиламизки

$$u_n(x,t) \Rightarrow \bar{u}(x,t), (x,t) \in \prod$$

бу ерда

$$\bar{u}(x,t) \in C[\prod\ ]$$

Бундан ташқари $u_n(\pm(2d + aT), t) = 0,$ бўлгани учун $u\ (\pm(2d + aT), t) = 0,$ ва $\prod$ тўғри бурчакдан ташқарида $\bar{u}(x,t) = 0$ бўлади.

Шундай тарзда тузилган функция лимитик ўтиш шаклидаги умумлаштирилган ечим дейилади.Бу ечи ягонами деган савол туғилади (чунки биз Φ_n, ψ_n кетма-кетликларни ихтиёрий равишда танлаган эдик)? Бу саволга жавоб бериш учун бизлар ихтиёрий икки ϕ_n^1, ϕ_n^2 *ва* ψ_n^1, ψ_n^2 жуфт кетма-кетлик оламиз ва улар

$$\begin{cases} \phi_n^1 \Rightarrow \bar{\phi}, & \phi_n^2 \Rightarrow \bar{\phi}; \\ \psi_n^1 \Rightarrow \bar{\psi}, & \psi_n^2 \Rightarrow \bar{\psi}; \end{cases}$$ бўлади.

Фараз қилайликки бу кетма-кетликларга мос равишда Даламбер формуласи бўйича ҳосил қилинган u_n^1 *ва* u_n^2 кетма-кетликлар ҳадларининг лимитларидан иборат бўлган $\bar{u}^1(x,t), \bar{u}^2(x,t)$ икки ечимлар тўғри келсин $\bar{u}^1(x,t) \equiv \bar{u}^2(x,t)$ исботлаймиз.Бунинг учун уларнинг айирмасини бахолашимиз керак

$$\bar{u}^1(x,t) - \bar{u}^2(x,t) \left|\bar{u}^1(x,t) - \bar{u}^2(x,t)\right| \le \left|\bar{u}^1(x,t) - u_n^1(x,t)\right| + \left|u_n^1(x,t) - u_n^2(x,t)\right| + \left|\bar{u}^2(x,t) - u_n^2(x,t)\right|$$

u_n^1 *ва* u_n^2 функцияларнинг мос равишда $\bar{u}^1$ *ва* $\bar{u}^2$ функцияларга текис яқинлашиши сабабли ушбу айирманинг биринчи ва учинчи қўшилувчилари нолга интилади чунки ϕ_n^1,ϕ_n^2 *ва* ψ_n^1,ψ_n^2 кетма-кетликларга мос равишда яна ўша функциялар Φ ва ψ яқинлашади.Бу ердан $\bar{u}^1(x,t)$ *ва* $\bar{u}^2(x,t)$ функцияларнинг айнан тенглиги келиб чиқади.

6. Интеграллик айният маъносидаги умумлаш ечимлар.

Умумлашган ечимлар қўлланилишининг бошқа мисоли сифатида Пуассон тенгламасидаги $\Delta u = -f(x,y,z)$ f функция икки марта Дифференцияланмайдиган ҳолат, яъни нормал ечим мавжуд бўлмаган ҳолат бўлиши мумкин (чунки ҳамма вақт $\Delta u \in C^2$)

Умумий ёндашув. Σ чегарага эга бўлган $\Omega \in E^3$ соҳада $u(x,y,z)$ функциялар $L[u]=F$ тенглама билан аниқланадиган бўлсин,бу ерда

$$L[u]=\sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3}a_{i,j}(x)u_{x_i x_j}+\sum_{i=1}^{3}b_i(x)u_{x_i}+c(x)u$$

шунда бурчакга боғланган оператор қуйидагича берилади

$$M[v]=\sum_{i=1}^{3}\sum_{j=1}^{3}\left(a_{i,j}(x)v\right)_{x_i x_j}-\sum_{i=1}^{3}\left(b_i(x)v\right)_{x_i}+c(x)v$$

Бизлар фақат шунақа v функцияларни қараймизки, улар учун лимитда тўлиқ қуйидаги шарт бажарилиши керак. Маълумки агар $u,v \in C^2(\Omega)\cap C^1(\Omega)$ бўлса (1.16) формула ўринли бўлади

$$\iiint_{\Omega}(vL[u]-uM[v])d\tau=\iiint_{\Omega}div\vec{\rho}d\tau=\iint_{\Sigma}(\vec{p},\vec{n})d\sigma$$

v га қўйилган шартлардан v,v_x,v_y,v_z функциялар демак $\vec{\rho}$ вектор функция ҳам Σ да 0 га

айланишини ҳосил қиламиз. Бундан келиб чиқадики

$$\iiint_{\Omega}(vL[u]-uM[v])d\tau=0$$

$L[u]=F$ эканлигидан фойдаланамиз

$$\iiint_{\Omega}vFd\tau=\iiint_{\Omega}uM[v]d\tau \qquad (1.20)$$

u функция учун ҳосил қилинган ифода интеграл ўхшашлик маъносидаги умумлаштирилган ечим дейилади. Шундай қилиб биз узлуксиз дифференциалланиш талабини v функцияга ўтказиб, шунингдек бу функция қатъий Ω ичида ётувчи соҳадагина 0 га тенг бўлмаслиги шартини талаб этиб u функция учун тенгламани ўзгартирдик.

Саволлар.

1. Дифференциал оператор.
2. Қўшма дифференциал оператор .
3. Чизиқли алгебрадаги қўшма оператор билан боғланиш.
4. Қўшма дифференциал оператор мисол келтиринг.
5. $L[u]$ дифференциалланувчи операторни ёзинг.
6. $L[u]$ дифференциалланувчи оператор қўшма оператор қандай кўринишга эга
7. $L[u]$ дифференциалланувчи оператор учун чегаравий масалани келтиринг.
8. Эгри чизиқли интеграллар учун Грин формуласини ёзинг.
9. Лимитга ўтиш шаклидаги умумлашган ечимлар. Умумий ёндошув.
10. Гиперболик тенглама учун Коши масаласини келтиринг
11. Даламбер формуласини ёзинг.
12. Интеграллик айният маъносидаги умумлаш ечимлар. Умумий ёндашув.
13. Пуассон тенгламасини келтиринг.

Математик физика тенгламалари

маърузалар

Маъруза № 6.

Мавзу:

Иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси

1

Маъруза № 6

Иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси

Режа:

1. Фазода иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасини чиқарилиши
2. Бир фазовий ўзгарувчи билан берилган иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси. Асосий масалаларнинг қўйилиши
3. Биринчи чегаравий масала ечимининг мавжудлиги. Ўзгарувчиларни ажратиш усули.

2

Таянч иборалар

Фурье қонуни
Остраградский-Гаусс формуласи, Фазода иссиқлик утказувчанлик тенгламаси,
Чегаравий шартлар,
Бошланғич шартлар,
Биринчи чегаравий масала,
Иккинчи чегаравий масала,
Ярим тўғри чизиқдаги масала,
Коши масаласи

3

1. Фазода иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасини чиқарилиши

Уч ўлчовли фазода бирор иссиқлик ўтказувчи ва координаталари

(x, y, z) булган ихтиёрий М нуктанинг температураси t вакт моментида

$u(x, y, z, t)$ функция куринишида берилувчи жисмни караймиз. Маълумки, иссиклик потоки вектори учун $\vec{W}$ куйидаги **Фурье конуни** деб аталувчи формула уринлидир.

$$\vec{W} = -k \quad grad\, u$$

Бу ерда $k(x, y, z)$ - иссиқлик ўтказувчанлик коэффициэнти.

Агар жисм E^3

Ω соханинг чегараси Σ бўлади.

Шунда жисмнингнинг иссиқлик миқдори t вақт моментида қуйидаги формула билан ҳисобланади:

$$[t_1; t_2] \qquad (Q(t_1) = Q_1, Q(t_2) = Q_2)$$

вақт оралиғини қараймиз. Шунда

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_\Omega c(M)\rho(M)u(M,t_2)d\tau_M - \iiint_\Omega c(m)\rho(M)u(m,t_1)d\tau_M$$

бўлади.

Иссиқлик миқдорининг ўзгариши ташқаридан иссиқлик оқиб келиш натижасида ва баъзи ички манбанинг (стокларнинг) ҳаракати туфайли рўй беради:

$$Q_2 - Q_1 = \int_{t_1}^{t_2}\left[-\iint_\Sigma (\vec{W}, \vec{n})dv\right]dt + \int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_\Omega F(M,t)d\tau\right]dt$$

5

Биринчи интеграл учун Остоградский-Гаусс формуласини қўллаймиз ва ўрта қиймат ҳақидаги формулани эса иккинчи интеграл учун қўллаймиз:

$$Q_2 - Q_1 = -\int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_\Omega (div\vec{W})d\tau\right]dt + (t_1 - t_2)\iiint_\Omega F(M,t_4)d\tau$$

Бу ерда $t_4 \in [t_1; t_2]$ га қарашли.

Лагранж формуласидан қуйидаги силлиқ (буни фараз қиламиз) *u* функция учун фойдаланамиз:

$$u(M,t_2) - u(M,t_1) = u_t(M,t_3)(t_2 - t_1), \quad t_3 \in [t_1; t_2]$$

6

Бундан қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$Q_2 - Q_1 = \iiint_\Omega c(M)\rho(M)u(M,t_2)d\tau_M - \iiint_\Omega c(M)\rho(M)u(M,t_1)d\tau_M =$$

$$= (t_2 - t_1)\iiint_\Omega c(M)\rho(M)u_t(M,t_3)d\tau_M$$

Демак,

$$(t_2 - t_1)\iiint_\Omega c(M)\rho(M)u_t(M,t_3)d\tau_M =$$

$$= -\int_{t_1}^{t_2}\left[\iiint_\Omega (div\vec{W})d\tau_M\right]dt + (t_1 - t_2)\iiint_\Omega F(M,t_4)d\tau$$

7

Энди ҳамма интеграл учун умумлаштирилган ўрат қиймат формулани қўллаймиз:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2-t_1)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_5\\ M=M_2}}V_\Omega(t_2-t_1)+F(M_3,t_4)V_\Omega(t_2-t_1),$$

Бунда $t_5\in[t_1;t_2]; M_1,M_2\in\Omega$,

$V_\Omega-\Omega$ нинг ҳажми бўлади.

$V_\Omega(t_2t_1)$ га исқартириб, Ω дан олинган бирор бир M_1,M_2 нуқталар учун қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$c(M_1)\rho(M_1)u_t(M_1,t_3)V_\Omega(t_2-t_1)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_3\\ M=M_2}}+F(M_3,t_4)$$

8

Энди бирор M_0 нуқтагача Ω ни қиссак, $[t_1,t_2]$ кесма ҳам t_0 нуқтагача қисилади. Бундан кўринадики M_1,M_2 нуқталар M_0 га ўтади, t_3,t_4,t_5 лар эса t_0 га. Бундан лимитга ўтганда қуйидаги ҳосил бўлади:

$$c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0)=-div\vec{W}\Big|_{\substack{t=t_0\\ M=M_0}}+F(M_0,t_0)$$

$\vec{W}$ учун Фурье қонунини қўллаб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$div\vec{W}=div(-kgradu)=-\frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x}-\frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y}-\frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z}\Rightarrow$$

$$\Rightarrow c(M_0)\rho(M_0)u_t(M_0,t_0)=\frac{\partial}{\partial x}k\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{\partial}{\partial y}k\frac{\partial u}{\partial y}+\frac{\partial}{\partial z}k\frac{\partial u}{\partial z}+F(M_0,t_0)$$

9

M_0,t_0 нуқталарни ихтиёрий олганимиз сабабли, ҳосил қилинган формулани бутун $[t_1,t_2]$ ва Ω соҳа учун ёйиш мумкин:

$$c(x,y,z)\rho(x,y,z)u_t(x,y,z,t)=\frac{\partial}{\partial x}(k(x,y,z)u_x(x,y,z,t))+$$
$$+\frac{\partial}{\partial y}(k(x,y,z)u_y(x,y,z,t))+$$
$$+\frac{\partial}{\partial z}(k(x,y,z)u_z(x,y,z,t))+F(x,y,z,t)$$

Бу ифода **фазода иссиқлик утказувчанлик тенгламаси** деб номланади.

c,ρ,k ларни константа да деб олиб, қуйидаги тенглик ҳосил қиламиз:

$$u_t=a^2(u_{xx}+u_{yy}+u_{zz})+f(x,y,z,t),\qquad a^2=\frac{k}{c\rho},\qquad f=\frac{F}{c\rho}\qquad \textbf{(2.1)}$$

10

Агар u,f фақат x ва t ўзгарувчилари билан боғлиқ бўлса, у ҳолда бу тенглик қуйидагича ёзилади:

$$u_t=a^2u_{xx}+f(x,t)\qquad \textbf{(2.2)}$$

Физик интерпритацияда бир жинсли юпқа стержитнда иссиқлик ўтказувчанлик (ёйилиш) тенгламасидир. (2.2) тенгламани биз кейинчалик **иссиқлик утказувчи тенгламаси** деб юритамиз. Аналогик фикрлашни бошқа бир физик процеслар учун ҳам ўтказишимиз мумкин, масалан диффузия учун. Агар $u(x,y,z,t)$ фазода газнинг концентрацияси бўлса, у ҳолда **диффузия тенгламаси** қуйидагича бўлади:

$$cu_t=div(Dgradu)+F(x,y,z,t)$$
$$D-diffuziya\ \ koeffitsiyenti$$
$$F-biror\ bir\ \ funktsiya$$

11

2. Бир фазовий ўзгарувчи билан берилган иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси. Асосий масалаларнинг қўйилиши

Қуйидаги тенгламани қараб чиқамиз:

$$u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \quad 0 < x < l, \quad 0 < t \le T$$

Агар бизга стержиннинг бошланғич вақт моментидаги температураси маълум бўлса, у ҳолда биз бошланғич шартга эга бўламиз:

$$u(x,o) = \phi(x), \; 0 \le x \le l$$

Агар четларида температурани ўзгаришини билсак, у ҳолда айрим чегаравий шартлар **хосил қиламиз:**

12

Агар четларида температурани ўзгаришини билсак, у ҳолда айрим **чегаравий шартлар хосил қиламиз:**

$$x = l, 0 \le t \le T \quad \begin{cases} (1)\; u(l,t) = \mu_2(t) - birinchi\ chegaraviy\, shart \\ (2)\; u_x(l,t) = \nu_2(t) - ikkinchi\, chegaraviy\, shart \\ (3)\; u_x(l.t) = -\lambda_2[u(l,t) - \theta_2(t)] - uchinchi\, chegaraviy\, shart \end{cases}$$

$$x = 0, 0 \le t \le T \quad \begin{cases} (4)\; u(0,t) = \mu_1(t) - birinchi\ chegaraviy\, shart \\ (5)\; u_x(0,t) = \nu_1(t) - ikkinchi\ chegaraviy\, shart \\ (6)\; u_x(0,t) = -\lambda_1[u(0,t) - \theta_1(t)] - uchinchi\, chegaraviy\, shart \end{cases}$$

13

Бу шартлардан бир нечтасини танлаб ҳар хил типли масалаларни ҳосил қиламиз:

Биринчи чегаравий масала

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,o) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

14

Иккинчи чегаравий масала

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), \; 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u_x(0,t) = \nu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u_x(l,t) = \nu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

15

Ярим тўғри чизиқдаги масала

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), x > 0, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad x \ge 0 \end{cases}$$

Коши масаласи

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), -\infty < x < +\infty, 0 < t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad -\infty < x < +\infty \end{cases}$$

16

Биринчи чегаравий масала ечимининг мавжудлиги

Ўзгарувчиларни ажратиш усули.

Биринчи чегаравий масалага кенгроқ тўхталиб ўтамиз:

$$\text{[2.1]} \quad \begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t), 0 < x < l, 0 < t \le T \\ u(0,t) = \mu_1(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(l,t) = \mu_2(t), \qquad 0 \le t \le T \\ u(x,0) = \phi(x), \qquad 0 \le x \le l \end{cases}$$

17

Ечимнинг мавжуд ва ягоналигини қараб ўтамиз, шу билан бирга турҳунлигини ва **Гринн функциясини** қўллашини қараймиз. Биринчи чегаравий масаланинг ечима нима. Аниқки, биржинсли иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси ҳолатида $\tilde{u}(x,t)$

:узилишга эга бўлган функциялар туплами қаноатлантиради

$$\tilde{u}(x,t) = const,\ (x,t) \in Q_T = \{(x,t) : (0;1) \times (0;T)\};$$
$$\tilde{u}(0,t) = \mu_1(t);\ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(l,t) = \mu_2(t);\ 0 \le t \le T;$$
$$\tilde{u}(x,0) = \phi(x);\ 0 \le x \le l.$$

18

Таъриф. $u(x,t)$ функция **[2.1] иссиқлик ўтказувчанлик тенгламаси учун 1-чегаравий масаласининг ечими** дейилади, агар у қуйидаги 3 шартни қаноатлантирса:

$1. u \in C[\overline{Q_T}];$

$2 u_t, u_{xx} \in C[Q_T];$

$3 u(x,t)$ [2.2] шартларни каноатлантиради

19

Бир жинсли иссиқлик ўтазувчаснлик тенгламаси нолинчи чегаравий шартлар билан берилган биринчи чегаравий масала учун ечимни топамиз:

[2.2]
$$\begin{cases} (1)\, u_t = a^2 u_{xx}, 0 < x < l, 0 < t \le T; \\ (2)\, u(0,t) = 0,\ \ 0 \le t \le T; \\ (3)\, u(l,t) = 0,\ \ 0 \le t \le T; \\ (4)\, u(x,0) = \phi(x),\ 0 \le x \le l. \end{cases}$$

Ечимни қуйидаги йўл билан аниқлаймиз, аввало берилган тенгламани алмаштириш ёрдамида бирор *u(x,t)* функцияни тузатамиз, кейин эса, бошланғич шартларга қўйилган маълум бир чекланишларда биз тузган функция 1-чи чегаравий масаланинг ечими бўлишини исботлаймиз.

20

Янги функцияни аниқлаймиз: $v(x,t) = X(x)T(t.)$

Функциямизни иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасига қўйиб қуйидагини ҳосил қиламиз: $X(x)T'(t) = a^2 X''(x)T(t).$

Тенгликнинг икки томонини ҳам $a^2 X(x)T(t)$ га бўламиз:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)}$$

Ўнг ва чап томондаги функциялар ҳар хил ўзгарувчиларга боғлик бўлганлиги туфайли, аниқки уларнинг ҳар иккаласи ҳам бирор константага тенг бўлади, биз уни $-\lambda$ билан белгилаймиз:

$$\frac{T'(t)}{a^2 T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} = -\lambda$$

21

Бундан 2 та тенгламага эга бўламз:

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0; \qquad \textbf{(2.3)}$$

$$T'(t) + a^2 \lambda T(t) = 0. \qquad \textbf{(2.4)}$$

$v(x,t)$ функциямиз учун чегаравий шартларни ёзиб оламиз:

$$\begin{cases} v(0,t) = 0; \\ \qquad\qquad t \in [0;T]. \\ v(l,t) = 0. \end{cases}$$

22

Қуйидагини ҳосил қиламиз: $\begin{cases} X(0) = 0 \\ X(l) = 0. \end{cases}$

(2.3)ни хосил бўлган система билан бирлаштирсак, **Штурм-Лиувилл масаласини** ҳосил қиламиз:

$$\begin{cases} X''(x) + \lambda X(x) = 0; \\ X(0) = 0; \\ X(l) = 0. \end{cases}$$

Барча λ ларни топиш талаб қилинади.

23

Дифференциал тенглама курсидан маьлумки,

$$\begin{cases} \lambda_n = \left(\dfrac{\pi n}{l}\right)^2, n \in N \\ X_n(x) = c_n^1 \sin\left(\dfrac{\pi n}{l} x\right), n \in N \end{cases}$$

λ_n ни (2.4) га қўйиб, қуйидаги кўринишдаги тенгликни ҳосил қиламиз: $T_n'(t) + a^2 \lambda_n T_n(t) = 0.$

Ечим $T_n = c_n^2 \exp\left\{-a^2\left(\dfrac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}$ бўлади.

24

$X_n(x)$ *va* $T_n(t)$ ни бирлаштириб қуйидагини ҳосил қиламиз:

$$v_n(x,t) = X_n(x)T_n(t) = c_n \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right)\exp\left\{-a^2\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t\right\}$$

Қайд этиб ўтамизки, хамма шундай функциялар (1) иссиқлик ўтказувчанлик тенгламасининг ечими ва (2), (3) чегаравий шартларни қаноатлантиради; *u(x,t)* функцияни қаторнинг йиғиндиси сифатида аниқлаймиз:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,t)$$

25

Таькидлаб ўтамизки бу чегаравий шартларни қаноатлантиради. Консталарни шундай танлаймизки, бошланғич шартлар бажарилсин:

$$\phi(x) = u(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} v_n(x,0) = \sum_{n=1}^{\infty} c_n \sin\left(\frac{\pi n}{l} x\right)$$

Тенгликни $\sin\left(\dfrac{\pi m}{l} x\right)$ га кўпайтирамиз (m-бутун).

$x \to s$ алмаштириш оламиз ва *s* бўйича интеграллаймиз:

26

$$\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds = \sum_{n=1}^{\infty} c_n \int_0^l \sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}s\right)ds.$$

$$\int_0^l \sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\sin\left(\frac{\pi m}{l}x\right) = \begin{cases} 0, n \neq m; \\ \frac{l}{2}, n - m. \end{cases} \Rightarrow \int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds = \frac{l}{2}c_m \Rightarrow$$

$$c_m = \frac{2}{l}\int_0^l \phi(s)\sin\left(\frac{\pi m}{l}s\right)ds$$

27

